



**Z.N. YULCHIYEVA**

# **BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM  
VAZIRLIGI**

**Z.N. YULCHIYEVA**

**BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan  
oliy texnik ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.

**Toshkent 2021**

UDK

КБК

Z.N. Yulchiyeva

Boshqaruv psixologiyasi. Darslik – T.: 2021. - 267 b.

Darslik ta'lim standartlari hamda «Boshqaruv psixologiyasi» fanining o'quv dasturi asosida davlat tilida tayyorlangan bo'lib, unda texnik mutaxassislik xodimlari faoliyatining Menejment(sanoat korxonalarida innovatsion loyihalar boshqaruvi) soxasi psixologik jihatlari batafsil yoritilgan.

Mazkur darslik TDTUning 5230200-Menejment(sanoat korxonalarida innovatsion loyihalar boshqaruvi) bakalavriat ta'lim yo'nalishi hamda boshqaruv psixologiyasi sohalarida xodimlar faoliyati psixologiyasini o'rganayotgan tinglovchi va talabalar, uni tadqiq etish bilan shug'ullanayotgan ilmiy izlanuvchilar hamda professor-o'qituvchilarga, shuningdek, texnika yo'nalishidagi amaliyotchi xodimlarga mo'ljallangan.

Учебник подготовлен на государственном языке на основе образовательных стандартов и учебной программы предмета «Психология управления», в которой подробно описаны психологические аспекты деятельности технического персонала в сфере менеджмента (управление инновационными проектами в промышленных условиях).

Учебник предназначен для слушателей и студентов, изучающих психологию деятельности персонала в сфере высшего образования и Психологию управления 5230200-Менеджмент (управление инновационными проектами на промышленных предприятиях) технического направления, научных сотрудников и профессоров, занимающихся его исследованиями, а также для технических специалистов.

The textbook is prepared in the state language on the basis of educational standards and the curriculum of the subject "Psychology of Management", which describes in detail the psychological aspects of the activities of technical personnel in the field of management (management of innovative projects in an industrial environment).

The textbook is intended for listeners and students studying the psychology of personnel in the field of higher education and the Psychology of Management 5230200-Management (management of innovative projects at industrial enterprises) of the technical direction, researchers and professors engaged in its research, as well as for technical specialists.

**Taqrizchilar:**

O'.B.Shamsiev-

M.Ulug'bek nomidagi O'zMU "Psixologiya" kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari doktori

R. S.Samarov-

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Boshlig'ining Innovatsiya va Ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari psixol.f.n., fals.f.doktori professor.

M.A.Maxkamova-

TDTU "Sanoat iqtisodiyoti va korporativ boshqaruv" kafedrasida professori

## MUQADDIMA

Inson, ko'rganimizdek, shaxs bo'lib tug'ilmaydi, u shaxs bo'lib shakllanadi. Shaxsning bu shakllanishi oddiy organik etilish jarayonida kechadigan organizmning rivojlanishidan mohiyatan farq qiladi. Inson shaxsining mohiyati uning nafaqat har qanday organizm sifatida rivojlanishi, balki o'z tarixiga ega bo'lishida o'zining yakuniy ifodasini topadi. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o'laroq, insoniyat faqat oddiy takrorlanadigan rivojlanish davrlariga emas, balki tarixga ega, chunki insonlarning faoliyati voqelikni o'zgartirib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan moddiy va ma'naviy madaniyat mahsullarida ob'ektivlashtiriladi. Ular orqali avlodlar o'rtasida izchil bog'liklik yaratiladi, buning natijasida keyingi avlodlar oldingilarining ishini takrorlamaydilar, balki davom ettirib, ular bilan kurashga kirishganlarida ham o'tmishdoshlarining qilgan ishlariga tayanadilar.

Butun insoniyatga tegishli narsa har bir insonga ma'lum ma'noda tegishli bo'lmasligi mumkin. Nafaqat insoniyat, balki har bir odam insoniyat tarixida ma'lum darajada ishtirokchi va sub'ekt bo'lib, ma'lum ma'noda o'zining tarixiga ham ega. Har bir inson o'z tarixiga ega, chunki shaxsning rivojlanishi uning faoliyati natijasi orqali namoyon bo'ladi, insoniyatning taraqqiyoti ijtimoiy amaliyot mahsulotlari orqali namoyon bo'lgandek, ular orqali avlodlarning tarixiy izchilligi o'rnatiladi. Shuning uchun ham o'zining taraqqiyot yo'lini haqiqiy insoniy mohiyatida tushunish uchun inson uni ma'lum bir jihatda ko'rib chiqishi kerak: kim edim? — nima qildim? — kim bo'ldim? O'zlarining ishlarida, faoliyatlarida, mehnatlarida shaxs faqat namoyon bo'ladi, ulardan oldin va ulardan tashqari allaqachon tayyor bo'lib, ulardan keyin ham o'zgarmaydi, deb o'ylash noto'g'ri bo'lardi. Biror muhim ishni qilgan inson, qaysidir ma'noda, boshqa odamga aylanadi. Albatta, muhim bir ishni qilish uchun qandaydir ichki imkoniyatlarga ega bo'lish kerakligi ham to'g'ri. Biroq, insonning bu yashirin imkoniyatlari amalga oshmasa, ular to'xtab qoladi va o'ladi; shaxs faqat o'z mehnatining natijasida ob'ektiv ravishda amalga oshsagina, ular orqali o'sadi va shakllanadi. Shaxs bilan uning mehnat natijasi o'rtasida o'ziga xos dialektika mavjud. Inson qilgan ishidan charchashi shart emas; aksincha, biz qilgan

ishlari natijasida odamlarni charchagan deb hisoblasak, ular bizda shaxsiy qiziqish uyg'otmaydilar. Shu bilan birga, inson qilgan ishiga qanchalik o'zini bag'ishlab, charchamagan bo'lsa, ish ortida shaxsi alohida qiziqish uyg'otadigan tirik odam borligini his etamiz. Bunday odamlar o'zlarining ishiga, o'z faoliyatlari natijasiga erkin munosabatda bo'ladilar; ular charchamagan holda, yangi yutuqlar uchun ichki kuch va imkoniyatlarini saqlab qoladilar.

Shunday qilib, gap inson hayoti tarixini bir qator tashqi ishlarga jalb qilish haqida emas. Bunday ma'lumot shaxsning psixik rivojlanishi va ichki psixik mazmuni uchun ahamiyatli bo'lgan psixologiyaga kamroq tegishli, ammo masalaning mohiyati shundaki, shaxsning psixik rivojlanishining ma'lum sotsium va uning boshqarishdagi amaliy va nazariy faoliyati, uning xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Inson o'z tarixining birinchi bosqichida kim bo'lganligi, keyingi bosqichda kimga aylanganligidan kelayotgan chiziq uning qilgan a'mollaridan o'tadi. Insonning faoliyatida, amaliy va nazariy faoliyatida insonning ruhiy va ma'naviy rivojlanishi nafaqat namoyon bo'ladi, balki amalga oshadi.

***Muallif***

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 7 fevral 2017 yil farmoni bilan 2017—2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqilishi ta’lim sohasini davlat siyosatida ustuvor o‘rin tutish bilan birga keng jamoatchilik ishtirokini ham talab qilishiga alohida e‘tibor qaratadi. To‘rtinchi yo‘nalish ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bunda ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohaslarini rivojlantirish va yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bilan birga ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish alohida uqtirib o‘tildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil 14 maydagi PQ 4319-sonli qarori va Vazirlar mahkamasining 395-sonli qarorini targ‘ibot qilish yuzasidan beshta muhim tashabbus bo‘yicha Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, kitobxonlik madaniyatini takomillashtirish orqali ta’lim sohasini tubdan isloh qilishda har bir sohaning “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shu o‘rinda talabalarni “Boshqaruv psixologiya” fani kategoriyalarini o‘rgatish eng muhim vazifa sanaladi.

“Boshqaruv psixologiya” o‘quv kursi texnik oliy ta’lim muassasalari ta’lim yo‘nalishi talabalarida kasbiy psixologik sifatlarini shakllantirish, ularni menejer va faoliyatni boshqarishga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy sharoitda fanni o‘qitish talaba yoshlarni ilm-fan, texnika va texnologiya sohaslarida erishilayotgan ilg‘or yutuqlar, umuminsoniy g‘oyalar, milliy qadriyatlarga tayangan holda tayyorlash, ularda pedagogik - psixologik madaniyatni rivojlantirish, ijodiy-texnik tafakkurni tarkib toptirish, etakchi faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, ishlab chiqarish jarayoni va personalni boshqarish malakalarini hosil qilishga yo‘naltirilgan.

“Boshqaruv psixologiya” fani talabalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, yosh avlodda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga doir zamonaviy psixologik bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalarning zarur hajmini, muhandis shaxsda namoyon bo‘lishi zarur bo‘lgan umumiy kasbiy va shaxsiy fazilatlarni muvaffaqiyatli egallashlari lozim. Bakalavrlar – bo‘lg‘usi muhandis texnologlarning

boshqaruv faoliyatiga tayyorgarligi ta'lim va ishlab chiqarish amaliyoti integratsiyasi, umumiy hamda mutaxassislik fanlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, milliy va jahon psixologiyasining eng ilg'or g'oyalari uyg'unligi, zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so'nggi yangiliklariga tayangan holda ta'minlanadi.

“Boshqaruv psixologiya” fanida talabalarni psixologiyaning mohiyati, uning metodlari va tamoyillari, shaxsning bilish jarayonlari, individual-tipologik xususiyatlari, faoliyati, muloqot va shaxslararo munosabatlar, muhandislik psixologiyasi va boshqaruv psixologiyasining nazariy va amaliy asoslari haqidagi bilimlarni uyg'unlashtiradi. Shaxsning emotsional-irodaviy sohasi, hissiyotning umumiy turlari chuqur tahlil etiladi. Har qanday inson kundalik hayotida odamlar bilan uchrashib, muloqotga kirishadi va bu muloqot jarayonida har ikki tomon o'zining ichki va tashqi ruhiy olamini namoyon qiladi. Ana shu ruhiy holatlarning barchasi insonning psixikasini tashkil qiladi. O'quv qo'llanma, Davlat ta'lim standartlari hamda “Boshqaruv psixologiya” fanining o'quv dasturi asosida tayyorlandi. Uni tayyorlashda psixolog olimlar – G.M.Andreeva, A.M.Chufarovskiy, E.G'.G'oziev, V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, S.V.Asyamov, R.S.Samarov va boshqalarning ilmiy ishlaridan keng foydalanildi.

# **I-MODUL. BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI FANINING PREDMETI, AHAMIYATI, UNI O'RGANISHNING ZARURLIGI**


## **I-BOB. BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI FANINING PREDMETI, AHAMIYATI**

### **G'arb va Sharq mutafakkirlari nazaridagi yondashuvlar.**

Mashhur rus olimasi, sobiq ittifoqda ijtimoiy psixologiya fanining asoschilaridan biri, ijtimoiy psixologiya bo'yicha ilk darslik muallifi G.M.Andreeva ijtimoiy psixologiya soxasida ishlayotgan mutaxassisning aslida kim ekanligi - psixologmi, faylasufmi yoki sotsiologmi, uning ushbu fan predmetiga yondashuvda o'z aksini topadi, chunki agar u sotsiolog bo'lsa, ijtimoiy qonuniyatlarni avval boshdan jamiyatdagi an'analar va umumiy qoidalar tilida tushuntirishga intilsa, psixolog konkret olingan shaxs psixologiyasining qonuniyatlarini umumjamiyat qonun qoidalariga tatbiq etishga xarakat qiladi. Shuning uchun ham G. Andreeva ijtimoiy psixologiyaning mavzu bahsi haqidagi hozirgi zamon qarashlarini umumlashtirib, bu o'rinda uch xil: sotsiologik, psixologik va sotsiopsixologik yondashish mavjudligini asoslaydi. Nima bo'lganda xam, shuni asosli tarzda e'tirof etish zarurki, ijtimoiy psixologiyaning aloxida fan bulib ajralib chikishiga sabab bulgan ilmiy manbalar ikki fan psixologiya va sotsiologiya fanlarining erishgan yutuklari va xar kaysisining doirasida ma'lum muammolarning echilishi uchun yana kushimcha aloxida fanning bulishi lozimligini tan olish tufayli yuzaga keldi. Shuning uchun xam uzok yillar mobaynida ijtimoiy psixologiya soxasida tadkikotlar olib borayotgan shaxsning kimligiga karab, izlanishlarning natijalarida u yoki bu yondashuv psixologik yoki sotsiologik yondashuvning ustuvorligi yakkol kuzga tashlandi.

Boshqaruv psixologiya faning predmetini hozirgi kunda quyidagicha ta'riflash mumkin: boshqaruv psixologiyasi – odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatlari, ularni boshqarish jarayoni davomida ularda hosil bo'ladigan tasavurlar, fikrlar, e'tiqodlar, g'oyalar, xis-tuyg'ular, kechinmalar, turli xulq-atvor shakllarini tushuntirib beruvchi fandır.





1-rasm.

Ko'p vaqt davomida ijtimoiy psixologiya fanining predmeti borasida tortishuvlar kechgandir. Sababi - boshqaruv psixologiyasi fani ikki turdagi qonuniyatlar – ijtimoiy taraqqiyot hamda psixik taraqqiyot qonuniyatlari bilan ish olib boradi. Shuning uchun bo'lsa kerak ijtimoiy psixologik mavzu bahsi va u o'rganadigan sohalar borasida turlicha qarashlar va tortishuvlar mavjudligini kuzatamiz.

Ijtimoiy psixologiyaning mavzu bahsini ta'riflashga aynan psixologik yondashuv A.V.Petrovskiy va V.V.Shpalinskiylarning «Jamoaning ijtimoiy psixologiyasi» kitoblarida bayon etilgan. Bu mualliflarning fikricha, «Boshqaruv psixologiyasi» – psixologiya fanining shunday tarmog'iki, u turli uyushgan va uyushmagan guruhlardagi odamlarning muloqoti, ularni uyushtirish va boshqarish, o'zaro ta'sir munosabatlaridan kelib chiqadigan psixik xodisalarni o'rganadi. Shuning uchun ham G.M.Andreeva boshqaruv psixologiyaning mavzu bahsi haqidagi hozirgi zamon qarashlarini umumlashtirib, bu o'rinda uch xil yondashish borligini e'tirof etadi. Birinchisi, sotsiologik yondashish bo'lib, uning tarafdorlarining fikricha, boshqaruv psixologiya asosan ommaviy psixologik jarayonlarni xalqlar psixologiyasi, ularni boshqarish masalasi, ommaviy marosimlar, udumlar, rasm – rusumlarning inson xulq-atvorida namoyon bo'lishini o'rganishi kerak. Ikkinchi psixologik yondashuv tarafdorlari asosan psixologlar bo'lib, ular asosiy diqqatni shaxsning ijtimoiy psixologik hislatlariga, uning turli guruhlarda tutgan o'rnini, mavqei, ijtimoiy ustanovkalar va xokazolarga qaratmoq lozim deb hisoblaydilar. Shu bilan birgalikda,

hozirda ham sotsiologik ham psixologik qarashlarni birgalikda mujassamlashtirayotgan olimlar ham bor, ular ham ommaviy jarayonlarni, ham shaxsning shu jarayonlardagi xulq-atvorini motivlarini o'rganishni yoqlab tadqiqotlar o'tkazmoqdalar.

Amerika ijtimoiy psixologiyasida ham boshkaruv psixologiyaning mavzu bahsi borasida uzoq tortishuvlar mavjud bo'lgan. Chunki shu paytgacha shaxs va jamiyat borasida muommolar soxasida ikki xil yondashuv bo'lib kelgan edi: psixologiya inson tabiatini, uning psixikasini, sotsiologiya esa, jamiyat tabiatini, psixikasini o'rganib keladi. Ijtimoiy psixologiya paydo bo'ldiki, u insonning jamiyatga munosabatining psixologik tomonini o'rganmoqda<sup>1</sup>.

Demak, xar bir shaxsning jamiyatda yashashi, uning ijtimoiy normalariga rioya qilgan holda navbatga o'xshash shaxslar bilan o'rnatadigan murakkab o'zaro munosabatlari va ularning ta'sirida hosil bo'ladigan hodisalarning psixologik tabiatlarini va qonuniyatlarini tushuntirib berish ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifasidir. Bundan kelib chiqadigan umumiy ta'riflarga binoan, ijtimoiy psixologiya ijtimoiy muloqotning murakkab shakl va mexanizmlarini o'rganuvchi fandır.

Boshqaruv psixologiyasi va umuman ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi fanlarning asosiy vazifasi – barkamol avlod tarbiyasini, ta'minlovchi barcha ma'naviy, ruhiy va insoniy munosabatlar; mohiyatini tahlil qilish, ularni boshqarishning eng samarali usullarini hayotga tadbiiq etishdir. Bu o'rinda, ayniqsa ijtimoiy tafakkurning, yangicha dunyoqarash va munosabatlarning shakllanishini, insonning o'zgalarga ta'sir etish mexanizmlarini o'rganish eng dolzarb masalalardandır. Xo'sh, bugungi kunda ijtimoiy psixologiya oldida qanday vazifalar mavjud? Birinchidan, uning asosiy yo'nalishi kichik guruhlar va jamoalar psixologiyasini o'rganishdan iboratdir. Xar bir uning oilasi, mehnat jamoasi, ko'cha-ko'ydagi norasmiy guruhdagi do'stlari davrasi, o'quv jamoasi va xkazolardir. Shaxsning yakka va turli guruhlar doirasida o'zini tutishi, xulq-atvori, mavqei, unga navbatga xos guruhii ta'sirlar, guruhdagi shaxslararo moslik, liderlik, guruhii tazyiqqa beriluvchanlik kabi qator hodisalar aslida

---

1. <sup>1</sup> David G. Myers «Social Psychology», 7th ed., 2002

o'sha guruhlarni boshqarish, o'zaro munosabatlar sharoitini yaratish – bu odamlarni samarali o'zaro muloqotga o'rgatishning zaruriyatidir.

Ikkinchidan, boshqaruvchi shaxsning ijtimoiy psixologik qiyofasi masalasi ham bugungi kundagi o'zgarishlar va ma'naviy jixatidan poklanish davrida o'ta muhim soxadir. Shaxsni ijtimoiy psixologik o'rganish tadqiqotlarning obekti sifatida qaralganda, avvalo uning xulq-atvori, ijtimoiy motivlar, uning yo'nalishlari, xulq-atvori, normalari, shaxsning jamiyatdagi turli ijtimoiy rollari, mavqei, ijtimoiylashuvi; shaxsning o'ziga-o'zi baxosi, munosabati, hurmati xamda ijtimoiy, tarixiy va madaniy shart-sharoitlarning shaxs ongiga ta'siri, shaxs tiplari o'rganiladi.

Uchinchidan, jamiyat miqyosida ro'y beradigan ommaviy hodisalar ijtimoiy psixologiya uchun tadbqiqiy ahamiyatga ega. Ijtimoiy psixologiyada ommaviy hodisalar deganda turli kishilar guruhida shaxslararo munosabatlar va o'zaro ta'sir jarayonlari; milliy etnopsixologiya hamda sinflar psixologiyasi muommolari; milliy madaniyat, urf-odatlar, an'analar, udumlar, aqidalarning shaxs shakllanishidagi roli; olomon psixologiyasiga oid psixologik qonuniyatlar; turli guruhlarda odamlarning bir-birini idrok qilishlari va tushuntirishlari, o'zaro ta'sir masalalari tushuniladi. Chunki alohida shaxs tarbiyasida ommaviy hodisalarning, katta guruhlarning ta'sirini inkor etish masalaga bir yoqlama yondashish bilan barobardir. Masalan, shaxs uchun u mansub bo'lgan millat, elat yoki xalqning ruhiyati, uning ongidagi asrlar davomida saqlanib kelayotgan an'analar, rasm-rusumlar, aqidalar, udumlar, faoliyat stereotiplari kabilar o'z muayyan ta'sir kuchiga ega.

To'rtinchidan, kichik guruxlar ijtimoiy psixologiyaning o'rganish obekti sifatida. Bu erda boshqaruvga hos psixologik jarayonlar, gurux a'zolarining bir-birlariga munosabatlari, o'zaro moslik masalalari, mojarolarning psixologik omillari, shaxs tarbiyasining ijtimoiy psixologik metodlari o'rganiladi.

Ajratilgan vazifalardan yana biri shuki, hozirgi davrda boshqaruv psixologiyasi navbat bilan bevosita aloqador bo'lgan boshqa psixologiya tarmoqlari bilan hamkorlikda keskin o'zgarishlar davrida har bir inson ongida nima sodir bo'ladi, u bu o'zgarishlarni qanday idrok qilmoqda, uning hayotiy mavqeini qanday qilib maqsadga muvofiq tarzda faollashtirish mumkin, degan savollarga ilmiy asoslangan javob topib berishdir. Boshqaruv psixologiyasi, sanoat va ishlab chiqarish psixologiyasi ham

shunday guruhij jarayonlarning qonun va qoidalarn tadqiq etish tufayli ajralib chiqqan tadbiqiy soxalardir. Ijtimoiy psixologiya o‘rganadigan eng asosiy va yuqorida ta’kidlab o‘tilgan muommalarni o‘z ichiga olgan masalalardan biri - bu muomaladir. Psixolog olimlarning fikricha, bugungi kunda ijtimoiy psixologiyaning predmeti ham va uning doirasida o‘tkaziladigan barcha tadqiqotlarning umumiy obekti ham muomiladir. Uning inson hayotida tutgan o‘rnini aniqlash turli ijtimoiy faoliyatlar sharoitida samara beradigan muomila turlari va uslublarini yoritish, uning sof psxologik mexanizmlarini tadqiq etish, fanning eng muhim tadbiqiy yo‘nalishlaridandir. Shuning uchun ham xar bir konkret sharoitda shaxslararo muloqot samaradorligini oshirish omillarini o‘rganish xozirgi ijtimoiy psixologiyadagi muxim muammolardandir.

2. Ko‘pchilik zamonaviy tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, “menejment” tushunchasining ilm-fan olamida paydo bo‘lishi iqtisodiy sohada bozor prinsiplarining shakllantirilishi bilan bog‘liq. Mazkur ilmiy tushuncha XIX asr oxirlarida XX asr boshlarida ilk bor tilga olinadi. Asl ma’nosiga ko‘ra “menejment” – boshqaruvchilik faoliyatini anglatadi. Keng ma’noda oladigan bo‘lsak, bashariyatning uzoq o‘tmishidanoq boshqaruvchilik ma’lum faoliyat turi sifatida mavjud bo‘lganini e’tirof etishga to‘g‘ri keladi. Zero, insonlarning birgalashib hayot kechirishi pirovard natijada muayyan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizimlarning qaror topishiga olib keladi. Bu xil [tizimlarning shakllanishi esa](#), o‘z navbatida maxsus faoliyat turini va shu xil faoliyat bilan mashg‘ul ijtimoiy guruhlarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Ularning faoliyati dastavval empirik amaliy tajribalar zamirida rivojlanib bordi.

Har bir tarixiy davrning o‘ziga xos madaniyati bo‘lgan. Har qanday madaniy taraqqiyotni tom ma’noda ijtimoiy hayot davomida to‘plagan sotsial tajribalarning umumlashtirilgan natijasi, deb e’tirof etish o‘rinli.

O‘zbekistonning shon - u sharafiga aylangan ulug‘ allomalar o‘z zamonasida rivoj topgan ilm-fanning barcha yo‘nalishlarida ijod qilib, kattadan-katta ishlarga qo‘l urishgan. Ularning ilmiy salohiyati va izlanishlari nihoyatda keng ko‘lamlidir. Olimu fuzalolar muhokama etayotgan boshqaruv masalalari yuzasidan ham juda o‘rinli mulohazalar bildirgan. Aynan shuning uchun ularning maslahatlari o‘z zamondoshlari va kelgusi avlodlar uchun ham nihoyatda qadrli hamda foydalidir.

*Abu Nasr Forobiy* (870 – 950) shunday zotlardan biri. Allomaning “Fozil odamlar shahri” deb atalgan asarida umumiy ma’nodagi boshqaruvchilik xususida g’oyat qiziqarli fikrlar bayon etilgan. Jumladan, olim insonlar hayotining farovonligini ta’minlash shart-sharoitlari xususida fikr yuritib, shunday degan edi: “Ijtimoiy hayot farovonligi, eng avvalo saxovatpesha hukmdorning mavjudligiga bog’liq. Bunday hukmdor mamlakatdagi adolat tantanasining garovi bo’lish bilan birga, muhtojlar haqida g’amho’rlik qiluvchi himmat sohibi hamdir”. Ijtimoiy turmush farovonligining muhim shartlaridan biri haqida so’z ketganida olimning ushbu fikrini e’tirof etsa bo’ladi: “Ijtimoiy hayotda ezgu maqsadlar yo’lida hamkorlik qilish niyatida kishilarni birlashtirishga asoslangan davlat hayr-saxovatli hisoblanadi”.

Farobiyning ilg’or insonparvarlik g’oyalari O’rta Osiyodan chiqqan yana bir buyuk dahoning dunyoqarashlari shakllanishiga kuchli ta’sir ko’rsatgan. *Abu Ali ibn Sino* (980-1037) ko’proq tibbiy sohaga ta’lluqli asarlari bilan mashhur. Ammo, Ibn Sino tibbiyotdan tashqari boshqa fan sohalariga oid yirik asarlar yozishga ham muvaffaq bo’lgan. Uning davlat boshqaruvchiligi, xususan, davlat xarajatlari va daromadlari o’rtasidagi balansni ta’minlash tamoyillariga oid fikrlarini e’tirof etish shart.

Abu Ali ibn Sinoning zamondoshlaridan biri *Abu Rayhon Beruniy* (973-1048) ham o’z davrining ilm-fanini yuksaltirishga alohida hissa qo’shgan. Beruniyning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy fanlar rivojiga qo’shgan hissasiga to’xtalar ekanmiz, olim inson o’zini qo’rshab turuvchi atrof-muhit bilan uzviy bog’liqligi, ular o’rtasidagi munosabatlarning rivoji, ahamiyati haqida fikr yuritib, insonning ma’naviy kamolotga erishishida mehnatning alohida o’rni va rolini ochib bergan.

O’rta Osiyo hududida *Amir Temur* (1336-1405) sulolasi hukmronlik qilgan davrlarda ilm-fanning ko’pgina tarmoqlari, shu jumladan, zamonaviy iqtisodiy fanlar g’oyat muhim ta’limotlar bilan rivojlantirilgandir. Amir Temur hukmdor sifatida zamonaviy siyosiy boshqaruvchilik sohasining tarkib topishi hamda rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko’rsatgan. Ushbu hukmdor o’zining benihoya katta saltanatini boshqarish uchun maxsus ishlab chiqilgan siyosiy tizimni yaratishga muvaffaq bo’ldi. Siyosiy boshqaruvchilik sohasini shakllantirish va rivojlantirish barobarida menejment g’oyalari bilan hamnafas qarashlar tizimi ham rivojlantirilganki, buni inkor etish

mumkin emas. Hukmdorning siyosiy boshqaruvchilik sohasidagi qarashlari asosan “Temur tuzuklari” deb nom olgan asarda yaqqol ifodalangan.

Menejmentning tarkib topishiga turtki boʻlgan boshqaruvchilikka oid ilgʻor gʻoyalarning yanada rivojlantirilishini Sharq allomalaridan biri *Alisher Navoiy* (1441-1501) asarlarini oʻrganish davomida kuzatish mumkin. Ulugʻ shoir, mutafakkir va davlat arbobi boʻlgan Alisher Navoiy oʻz iqtisodiy-siyosiy qarashlarini 22 ta asarida ifoda etgan. Alisher Navoiy “Zakariyo” va “Munshaot” asarlarida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi haqidagi gʻoyat qimmatli fikrlarini bayon etadi.

*Oʻrta Osyo hududida istiqomat qilib, bashariyatning kelajakdagi rivojiga ulkan hissa qoʻshgan ulugʻ zotlar haqida soʻz borganda Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530), Mirzo Bedil (1644-1721), Ozodiy (1700-1760), Mahtumquli (1733-1782) va boshqa daholarni eslamaslik mumkin emas.*

Zamonaviy ilm-fan rivojiga Sharq va Gʻarb mutafakkirlari oʻzicha taʼsir koʻrsatgan. Sharqda insonning maʼnaviy izlanishi va yuksalishi bosh maqsad hisoblansa, Gʻarbda umumbashariyatning ozodligi va maʼnaviy yuksalishi yoʻlida izlanish muhim sanalgan. Shu boisdan Sharq mutafakkirlarining ilohiy va nazariy bilimlarni bevosita amaliyotga tadbiiq etish imkoniyatlari ayrim obʼektiv shart-sharoitlar tufayli cheklangan boʻlishi ehtimoldan holi emas. Bunday imkoniyat va amaliy tajribalar aynan Gʻarb mamlakatlarida amalga oshdi.

Insoniyat tarixida ilk bora Buyuk Britaniyada fabrika sharoitida mehnat qilish haqidagi qonunlar majmuasi ishlab chiqildi. Soʻng Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi mamlakatlarda ham bunday ishlar amalga oshirildi. Shu oʻrinda taʼqidlamoq kerakki, eʼtirof etilgan qonun majmualarida Sharq allomalarining asarlarida bayon qilingan ijtimoiy kafolatlar haqidagi ilgʻor gʻoyalar oʻz aksini topgandi. Lekin, Gʻarb islohotchilari bu masalaga oʻziga xos tarzda yondashishgan, qolaversa Gʻarb mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti Sharq mamlakatlaridagidan farqli ravishda rivoj topgandi. Ana shu oʻziga xoslik pirovard natijada voqealar rivojini, muammolar echimini belgilab beradi. Sharq mamlakatlarining tarixiy rivojlanish anʼanasiga koʻra, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi islohotlarni amalga oshirish va fuqarolarning manfaatlarini himoyalash davlat (hukmdor) ning zimmasiga yuklatilgan. Shunga yarasha xalq ommasi umidvorlik bilan yashagan. Gʻarb mamlakatlarida esa bu

xil jarayonlar keskin sinfiy kurashlar zamirida kechgan. Omma va shaxs o'z manfaatlarini himoyalash yo'lida shaxsiy faollik ko'rsatishga moyillik ko'rsatardi. Yollanma mehnatkashlar kuchini ekspluatasiya qiluvchilar bilan yollanib mehnat qiluvchilar o'rtasidagi muhosasiz kurashlar (ijtimoiy-iqtisodiy konflikt) natijasida butun ijtimoiy tuzilmada islohotlar ro'y bergan. Bunday siyosiy jarayonlar zamirida kuzatiladigan holatlar va ular asosidagi ziddiyatlarni bartaraf etish chora-tadbirlari u yoki bu tarzda Sharq mutafakkirlarining asarlarida o'z ifodasini topgani benihoya quvonarlidir.

G'arbda insoniy kamolotga erishish aql-zakovat vositasida (pragmatizm) amalga oshirilgani haqida e'tirof etilgan edi. Aql-zakovat esa hamma narsaning tub mohiyatini anglashga, jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga, tuzilmaning barcha elementlarini muayyan tartibga solishga intiladi.

Sharq olamida asta –sekin ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda tanazzul alomatlari namoyon bo'la boshlagan bir vaqtda G'arb mamlakatlarida jonlanish kuzatiladi. U erda ijtimoiy taraqqiyotning navbatdagi bosqichida keng ko'lamda bozor munosabatlari shakllanib bormoqda. Bu xil jarayonlar ijtimoiy munosabatlarni nihoyatda keskinlashtirib yuboradi. Bu voqealar davlat tizimi faoliyatida liberalizm konsepsiyalarining ustuvor bo'lishi bilan izohlanadi. Aholining tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga davlat tomonidan ko'proq e'tibor berila boshlandi. Ijtimoiy munosabatlar sohasida eng dolzarb muammo- mehnat munosabatlari edi. Jamiyat miqyosidagi ichki nizolar aynan shu masalaning echimi bilan bog'langan, demakki, uning keyingi taraqqiyoti pirovard natijada mazkur nizolarning qay tarzda echilishiga qarab amalga oshishi mumkin. XX asrda ro'y bergan iqtisodiy tanazzul jamiyatning liberalistik modelga asoslangan iqtisodiy rivojlanishi nechog'li asossiz ekanini ko'rsatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat jarayonlar rivojiga davlatning aralashuvini taqozo etardi. Ana shunday shart-sharoitlarda iqtisodiy jihatdan ancha ilgari ketgan G'arb mamlakatlarida, xususan, AQSh da “insoniy munosabatlar” maktabining *E.Meyo*, *F.Retlisberg*, *M.Follet* kabi namoyandalari tomonidan jamiyat hayotini ijtimoiylashtirish darajasini oshirish zaruriyatini ifoda etuvchi izlanishlar natijasi e'lon qilina boshlandi. Buyuk Britaniyadagi “ijtimoiy-texnik tizimlar” maktabining radikal namoyandalari ham o'z fikr-mulohazalarini ovoza etdi. Ularning fikriga ko'ra,

texnologik jihatdan olib qaralganda, har qanday rivojlanish sotsiotexnik xususiyat kasb etadi. Zero, texnologik jarayonlar o'z-o'zicha amalga oshmaydi, balki insonlar tomonidan boshqariladi.

### **Boshqarishdagi barcha tamoyillarning bir-biri bilan o'zaro aloqadorligi.**

Ijtimoiy sohada adolat tamoyillarini qaror toptirish muammosining echimiga ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy-texnik omillar ta'sir o'tkazadi. Shuni inobatga oladigan bo'lsak, mazkur masalalarni tartibga solish uchun davlat aralashuvining nechog'lik muhimligi ayon bo'ladi. Sharq olamida davlat tizimining (hukmdor faoliyati) o'rni va roli nechog'lik ahamiyatli ekanini anglab etishgan bo'lsa, G'arbda xuddi shu fikrga sotsial tajribalar asosida va aql-zakovat yordamida etib kelishdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda boshqaruvchilik sohasida amalga oshirilgan muhim ishlarni, jumladan, aholini sotsial himoyalash muammolariga katta e'tibor berilganini e'tirof etish lozim. Shu o'rinda buyuk ajdodlarimiz ham aynan shu masalalar yuzasidan nihoyatda o'rinli va qimmatli maslahatlar berishganini ta'kidlamaslik mas'uliyatsizlik bo'lardi.

Umumbashariy taraqqiyot tamoyillarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, sotsial adolat prinsipini tarkib toptirishga intiluvchi har qanday davlat tizimida ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi barcha tomonlarning manfaatlarini uyg'un tarzda qondirish yo'l-yo'riqlarini izlab ish tutish yaxshi samara beradi. Bunda albatta davlatning o'rni va roli alohida belgilanadi. Davlat ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va muvofiqlashtirib borish masalasi bilan shug'ullanmog'i lozim bo'ladi.

Shunday qilib, zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot prinsiplarining rivojlanish tamoyillari, xususiyatlari ko'p jihatdan Sharq va G'arb olamining o'zaro ta'sirlashuvi zamirida shakllanar ekan.

3. Dastlab "*funksiya*" va "*vazifa*" iboralarining lug'aviy ma'nosi to'g'risida ikki og'iz so'z.

"Funksiya" tushunchasi "vazifa" tushunchasiga nisbatan torroq ma'noga ega. Zero, funksiya faqat o'z faoliyat doirasidagi vazifalarni o'z ichiga oladi. Masalan, marketologning ishini bajarish korxonada muhandisining funksiyasiga kirmaydi, chunki u shu bevosita marketolog faoliyati doirasidagi yumushdir. "Vazifa" esa o'z faoliyat



doirasidan tashqarida ham bo'lishi mumkin. Boshqarish funksiyasi, deganda u yoki bu obyektiv boshqarishga oid aniq vazifalarni hal etishga karatilgan bir turdagi ishlar majmui tushuniladi.

*Demak, boshqaruv muayyan funksiyalar orqali amalga oshiriladi. Funksiyalarni aniqlash, ularning mohiyatini ochish va o'rganish boshqaruv jarayonini to'g'ri tashkil qilishning muhim shartidir.*

Boshqaruv funksiyalarining mazmuni u yoki bu faoliyatni tashkil qilishdan kelib chikadi. Masalan, ishlab chiqarishning dastlabki bosqichida: loyihalash; konstruktorlik; rejalashtirish kabi ishlarni bajarish bilan bog'liq funksiyalar paydo bo'ladi. Keyingi funksiyalar ishlab chiqarishni tayyorlash, ya'ni, mahsulot tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish, mehnat normalari, materiallari sarfini belgilash; asbob-uskunalarini tayyorlash kabi ishlarni bajarish bilan bog'liq funksiyalar paydo bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayonini boshlash va uni uzluksiz davom ettirish uchun ishlab chiqarish vositalari, texnika, xom ashyo, energiya, transport kabi moddiy ta'minot vositalari zarur. Shundan keyin, kadrlarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish, mehnatni tashkil qilish, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish kabi bir qator tashkiliy funksiyalar kelib chiqadi. Ko'rinib turibdiki, boshqaruv mazmuni jarayon sifatida uning funksiyalarida namoyon bo'layapti. Zero, funksiyalar faoliyat turlarini, sub'ektning boshqarish obyektiga aniq, ta'sir qilish yo'nalishlarini aks ettiradi. Aniq funksiyalar. Iqtisodiy funksiyalar. Qo'llanish va foydalanish miqyosiga qarab sotsial funksiyalar boshqarish faoliyati turlariga qarab ma'naviy-ma'rifiy funksiyalar. Tashkiliy funksiyalar boshqaruv funksiyalaridan tashqarida boshqaruv jarayonining o'zi ham bo'lishi mumkin emas. Funksiyalar tarkibini, ularning ko'lamini va mazmunini aniqlash boshqaruvchi xodimlar sonini belgilash, boshqaruv apparatining tashkiliy tarkibini loyihalash uchun muhim asos bo'lib hisoblanadi.

Boshqarish funksiyalari — ko'p qirrali tushunchadir. Shu sababli ularni muhim belgilar bo'yicha turkumlarga ajratib o'rganish zaruriyati tug'iladi. Boshqarish funksiyalarining tasnifi. Boshqaruv funksiyalarining mohiyati, tasnifi va mazmunini o'rganish boshqaruvning butun jarayonini tartibga solib turish uchun zarurdir, chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, boshqaruv mazmuni jarayon sifatida uning funksiyalarida namoyon bo'ladi.

## **Boshqaruvning rejaliligi, ommaning boshqaruvdagi ishtiroki.**

G'arb menejmentining bugungi zamonaviy nazariyasi boshqarish funksiyalarini tasniflashda, eng avvalo uning quyidagi asosiy (umumiy) funksiyalariga ustuvorlik beradi: *rejalashtirish; tashkil qilish; tartibga solish va muvofiklashtirish; nazorat; rag'batlantirish (motivlashtirish)*. Bu funksiyalar boshqaruvning barcha bo'g'inlarida va hamma bosqichlarida quyidagi izchillikda amalga oshiriladi:

- \* rejalashtirish;
- \* [marketingni boshqarish](#);
- \* moliyaviy boshqarish;
- \* sifatni boshqarish;
- \* mehnatni boshqarish;
- \* xodimlarni boshqarish;
- \* innovatsiyani boshqarish va hokazo.

Bunday holda ishlab chiqarishni boshqarish faoliyatining ayrim turlari va sohalari alohida ajralib turadi.

Boshqarishning yuqorida sanab o'tilgan asosiy funksiyalari ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida muhim o'rin tutishi zarur bo'lganligi tufayli ularni mufassal ko'rib chiqamiz.

Demak, boshqarish rejalashtirishdan boshlanib, faoliyatni tashkil qilish, uni rag'batlantirish bilan davom ettirilib, nazorat bilan tugaydi. Bu erda muvofiqlashtirish barcha funksiyalar jarayonida o'z aksini topadi. Bu funksiyalar boshqaruvning hamma bosqichlariga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarga ega bo'lib, boshqaruv apparatining barcha rahbarlari va mutaxassislari faoliyatida mavjud bo'ladi. Ularni, shuningdek, boshqaruvning hamma tomonlarini qamragan funksiyalar deyish ham mumkin, chunki ular boshqaruv tizimini ham bo'yiga (vertikaliga), ham eniga (gorizontaliga) qamrab oladi. Boshqarish funksiyasini tasniflashning ikkinchi yondashuvida boshqarish ishini aniq ijrochilar bo'yicha taqsimlashga ustuvorlik beriladi. Bunda bir butun aniq funksiyalar tizimi ajratiladi. Masalan, zamonaviy g'arb firmalarida ishlab chiqarishga oid 20—25 tadan kam bo'lmagan funksiyalar ajratiladi. Bular quyidagilardir: asosiy

ishlab chiqarishni boshqarish; qo'shimcha ishlab chiqarishni boshqarish; ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi ishlab chiqarishni boshqarish;

Boshqarish faoliyatining turlariga ko'ra, funksiyalar quyidagicha bo'ladi: boshqarishning iqtisodiy [funksivalari](#), ya'ni, mablag'larning doiraviy aylanishni amalga oshirish, mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, marketing xizmatini uyushtirish, foyda olishni ta'minlash va h.k.; boshqarishning sotsial funksiyalari, ya'ni: mehnat sharoitini yaxshilash, xodimlarning uy-joyga ehtiyojini, sotsial madaniy-ma'naviy ehtiyojlarni qondirish, moddiy rag'batlantirishni ta'minlash, ijtimoiy himoyani ta'minlash va h.k.; boshqarishning ma'naviy-ma'rifiy funksiyalari, ya'ni, xodimlarni insoniylik, yaxshilik, mehr-shafqatli va o'zaro munosabatlarda sabr-toqatli bo'lish ruhida tarbiyalash, xodimlarni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, halolikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalashga xizmat qilish va h.k. Boshqarishning tashkiliy funksiyalari ya'ni, ishlab chiqarishni tashkil qilish, o'zaro aloqalarni o'rnatish va muvofiqlashtirish, barcha bo'g'in va bo'limlar o'rtasida vazifalar taqsimoti, vakolat va boshqarish apparati xodimlari o'rtasida ma'suliyatlarni belgilash, boshqarishning aniq uslubini tanlash va qaror qabul qilishda ish tartibi izchilligi, axborotlar oqimini tashkil qilish va h.k. Qayd qilingan funksiyalar bir-biri bilan bog'liq va ma'lum darajada tartibga solingan ko'p unsurlardan, tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular yaxlitlikka ega. Shuning uchun ham boshqarish jarayonida ularning birortasi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Boshqarishning funksiyalaridan yana biri — bu tarmoqli boshqarish bilan hududiy boshqarishning mutanosibligini ta'minlashdir. Har bir korxonaga qandaydir bir tarmoqqa (sektor tarkibiga) kiradi. Ayni vaqtda u bir tuman hududida joylashganligi jihatidan mahalliy ishlab chiqarish — hududiy majmuiga kiradi. Boshqarish jarayonida bu funksiya ham hududiy, ham tarmoq manfaatini ko'zda tutishi lozim. Tarmoqqa doir bo'lgan boshqaruv funksiyalari zarur. Busiz tarmoq "yo'qoladi", yagona texnik va texnologiya siyosatini amalga oshirish va butun tarmoqqa taalluqli boshqa masalalarni hal etish qiyin bo'ladi. Biroq, ayni vaqtda, boshqarishning hududiy funksiyalari ham zarur. Bu funksiya muayyan tuman, viloyat hududida joylashgan turli tarmoqlar (sektorlar) ga qarashli korxonalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, ratsional aloqalarni o'rnatilishini ta'minlaydi. Hududiy funksiyalar idorachilik g'ovlarini yo'qotish,

noratsional tashuvlarni kamaytirish va pirovard oqibatda samaradorlik darajasini oshirish imkoniyatini beradi. Qayd qilingan funksiyalardan tashqari boshqarishning o'ziga xos aniq funksiyalari ham bor.

Boshqarishning o'ziga xos aniq funksiyalari, deganda muayyan boshqaruv organiga va uning boshqaruvchisiga aniq biriktirilgan ishlar, ma'suliyat, maqsad va unga erishish vositalari majmui tushuniladi. Tegishli funksiyalarning to'la-to'kis va sifatli bajarilishiga ishlab chiqarishning umumiy rahbarlari — direktor (rais), uning o'rinbosarlari, bo'g'in va bo'limlar boshliqlari, [brigadirlar shuningdek](#), xizmat ko'rsatish bo'limlari rahbarlari — kadrlar bo'limi boshlig'i, reja-iqtisod bo'limi boshlig'i va boshqalar ma'suldirlar. Quyida korxonalar (firma, jamoa xo'jaligi)ni boshqarishning o'ziga xos aniq funksiyalari berilgan.

***Boshqarish tamoyili*** dasturilamal qoida, xulq me'yorlari, uning standartlari bo'lib, iqtisodiyotga rahbarlik unga asoslanadi.

Boshqarish tamoyillari bir-biri bilan o'zaro bog'liq va amaliyotda yaxlit holda foydalanilishi lozim. Boshqarish tamoyillari rahbarlikning oltin qoidalarini o'zida namoyon etadi. Bu qoidalar majmuasining amalda ro'yobga chiqarilishi boshqarish tizimining sifatli ishlashini ta'minlaydi.

*Boshqarish tamoyillarining mohiyati va ularning tahlili.*

1. *Zaruriy turli-tumanlik va tezkor harakat tamoyili.* Boshqaruv organi ishlab chiqarish jarayonida ehtimoliy xilma-xillik va tashqi muhit taasurotlari tezligiga qaraganda ko'p turli hamda tezkor xarakterdagi harakatlar dasturiga ega bo'lishi lozim.
2. *To'g'ridan-to'g'ri o'zaro tobelik tamoyili.* Har bir xodim barcha ishlab chiqarish masalalarida bitta rahbarga tobe bo'lishi lozim. Bu qoida har bir xodim faqat bitta rahbardan topshiriq olishi va unga hisobot berishiga imkon yaratadi. Shu bois xodim bittadan ortiq rahbardan topshiriq olmasligi lozim.
3. *Nazoratning ko'lami tamoyili.* Biror rahbar boshqarish me'yori oshib ketgan miqdordagi xodimlarni samarali boshqara olmaydi. Rahbariyat uchun qo'l ostidagilarning etarli deb hisoblanadigan miqdori turli darajadagi boshqaruv tizimlarida turlichadir. Jumladan, doimiy rahbarlar uchun qo'l ostidagilarning yo'l qo'yiladigan me'yoriy miqdori quyidagi chegaraga ega: brigadir -25; sex boshlig'i-18; direktor-12; vazir -5.

4. *Huquq, majburiyat mas'uliyat muvofiqligi tamoyili.* Rahbar yoki xodim muvaffaqiyatli ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi uchun uning huquq, majburiyat va mas'uliyati bir-biriga muvofiq kelishi lozim. Majburiyatlar xodim o'z vazifasini hal etishi uchun boshqarishi lozim bo'lgan ochiq bir xatti-harakat sifatida shakllanadi. Majburiyatlar ta'rifini, agar xodimning tezkor rejasiga o'zgartirishlar kiritish majburiyatni to'liq bajarish paytida qayd etish zarur bo'lsa, qoniqarli deb hisoblash mumkin. Huquq hokimiyat o'lchovidir. Huquq shunday mehnat shart-sharoitini o'z ichiga oladiki, ularsiz xodim o'z majburiyatlarini bajara olmaydi. Mas'uliyat xodim o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajara olmaydi. Mas'uliyat xodim o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganda unga qo'llaniladigan sanksiyadir.

5. *Vakolatni amalga oshirish tamoyili.* Rahbar qo'l ostidagi xodim muvaffaqiyatli bajarayotgan ishni o'zi bajarmasligi lozim. Rahbarning asosiy vazifasi o'zi bajarishi lozim bo'lgan to'rt majburiyatni o'z ichiga oladi:

- kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish;
- firma bo'linmalarini o'rtasidagi o'zaro aloqani tashkil qilish;
- tashqi aloqalar olib borish;
- boshqarish obyektini rivojlantirish istiqbollarini ta'minlash.

6. *Personalni boshqarishni markazlashtirish darajasi va mehnat jamoalarining o'z-o'zini boshqarish darajasi oqilona uyg'unlashtirish* negizida amalga oshirilishi lozim. Mohiyat jihatidan qaraganda, bu o'rinda gap boshqarishni markazlashtirish va markazlashtirishdan chiqarishning optimal uyg'unligi haqida bormoqda. Bu tamoyil pog'onali (iyerarxik) tizimining har bir o'zaro tobelik darajasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'yicha vakolatlarni oqilona taqsimlashga imkon beradi. Strategik qarorlar markazlashgan holda qabul qilinadigan variant eng maqbuli hisoblanadi. Bu xo'jalik yuritishning barcha bosqichlarida muvofiqlashtirishning yuqori darajasini talab etadi. Boshqarishning barcha tamoyillari bir-biri bilan o'zaro aloqadordir. Ishlab chiqarish sharoitida bir tamoyilning buzilishi barcha tamoyillarning ham buzilishiga olib keladi. Rahbar barcha tamoyillarni yoddan bilishi shart. Faqat shundagina menejer ishlab chiqarish muammosi paydo bo'lganda uni tezda hal qila oladi. Korxonadagi ish to'xtab qolish sababini aniqlaydi va mazkur holatda qaysi tamoyil amal qilishini belgilab beradi. Shuni unutmaslik kerakki, ko'rib chiqilgan barcha tamoyillarni

ro'yobga chiqarish firma boshqaruvi tizimi samarali ishlashiga imkon beradi. Shuning uchun G'arbda ushbu tamoyillar boshqarishning "oltin" qoidalari deb ataladi.

Boshqaruv psixologiyasi zamonaviy ijtimoiy psixologiyaning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u boshqaruv faoliyatining psixologik qonuniyatlari (turli ijtimoiy tuzilmalardan insonlarning muloqoti va o'zaro aloqasi muammolari)ni o'rganadi.

Ushbu yo'nalish asosan boshqaruv qarorlarining psixologik mazmuni haqidagi bilimlarni birlashtirishga mo'ljallangan. Boshqaruv har doim tirik insonlar bilan bog'liq bo'lib, shuning uchun ko'pincha boshqaruv jamiyat, jamoa, insonga ma'lum maqsadga erishish uchun ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatish tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, boshqaruv bu boshqaruv va bo'ysunishdan iborat ikki tomonlama jarayondir, shuning uchun uning samaradorligi, ya'ni belgilangan maqsadga qisqa vaqt ichida erishish ikkita shartni: oqilona rahbarlik va ishonchli bo'ysunishni ta'minlash orqali mumkin bo'ladi.

Ongli rahbarlik, o'z navbatida, ham menejment psixologiyasini yaxshi bilish, ham rahbardagi boshqaruv faoliyatining katta tajribasi natijasidir. Oqilona rahbarlik ishonchli bo'ysunishni ta'minlaydi, ammo buning teskarisini emas.

*Shuning uchun, menejment psixologiyasi o'z rivojlanishining ikkita asosiy manbaiga ega ekanligini aytish mumkin. Bular:*

1) insonni boshqarish ob'ekti va sub'ekti sifatida o'rganish va hisobga olishni talab qiluvchi amaliyot ehtiyojlari;

2) ruhiy holatni, jarayonlarni, xususiyatlarini va umuman inson faoliyatini boshqarish muammosini hal qilishga yordam beradigan psixologiya fanining rivojlanish ehtiyojlari.

Menejment psixologiyasi ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida boshqaruv nazariyasi, menejment, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, differensial psixologiya, konfliktologiya, pedagogika, iqtisod, qaror qabul qilish nazariyasi va b. kabi fanlar bilan bog'liqlir. Boshqaruv psixologiyasi tahlil metodologiyasi va usullarini psixologiya fanidan oladi, qo'l ostidagilarni tarbiyalash va o'qitish muammolarini esa pedagogika va andragogika yordamida hal qiladi. Shu bilan birga, menejment psixologiyasi sotsiologiya, ayniqsa, tashkilotlar sotsiologiyasi bilan yaqin aloqaga ega.

Menejment psixologiyasining, ya'ni ushbu fan o'rganadigan sohaning *predmeti* inson tomonidan boshqaruv tajribasini o'zlashtirishning asoslari, mexanizmlari, qonuniyatlari va bu o'zlashtirish jarayonidan kelib chiqadigan rahbarning boshqaruv sub'ekti sifatidagi intellektual va shaxsiy rivojlanishi darajasida o'zgarishlar hisoblanadi.

Menejment psixologiyasining asosiy *vazifasi* bu barcha darajadagi rahbarlar ishining samaradorligi va sifatini yaxshilash uchun psixologik sharoit va boshqaruv faoliyatining xususiyatlarini tahlil qilishdir. Shu bilan birga, menejment psixologiyasining aniq vazifalari quyidagilardir<sup>2</sup>:

- 1) menejment va boshqaruv nazariyasi va amaliyotini o'rganish;
- 2) rahbarning psixologik tayyorgarligi darajasi hamda shaxsga va jamoaga ta'sir o'tkazish usullari o'rtasidagi aloqani aniqlash;
- 3) boshqaruv usullari va yo'llarini optimallashtirish;
- 4) boshqaruvchi shaxsining bo'ysunuvchilarga boshqaradigan ta'sir qilish mexanizmlari va qonuniyatlarini fosh qilish;
- 5) kommunikativ muhitni o'rganish va rahbarning kommunikativ malakasini oshirish;
- 6) tashkilot, guruh va jamoani boshqarish xususiyatlarini aniqlash;
- 7) amaliy muloqotni optimallashtirish va amaliy suhbatlarning sifatini oshirish;
- 8) rahbarlar va xodimlarni psixologik tanlash mexanizmlari, qonuniyatlari, mezonlarini aniqlash;
- 9) boshqaruv uslubini aniqlash va uni takomillashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqish;
- 10) nizoli holatlar sabablarini o'rganish va nizolarni boshqarish usullarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, menejment psixologiyasi boshqaruv jarayonining psixologik jihatlarini o'rganish sohasida turli fanlarning yutuqlarini birlashtiradigan, rahbarlar va qo'l ostidagilarning individual farqlarini, ularning o'zaro aloqasi va muloqotini

---

<sup>2</sup> Қаранг: Подоляк Я. В. Психология управления: теория и практика менеджмента.- Харьков, 2004. –Б. 23-25.

o'rganadigan hamda tashkilotning professional faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan keng qamrovli bilimlar sohasidir.

Menejment psixologiyasining *tamoyillari* bu boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish bo'yicha menejmlarning asosiy g'oyalari, psixologik qonuniyatlari va xatti-harakatlari qoidalaridir. Menejment psixologiyasining *asosiy tamoyillari* quyidagilardir:

1. Boshqaruv inson turmushining ajralmas qismidir. Boshqaruvsiz insonlarning birgalikdagi faoliyati amalga oshishi mutlaqo mumkin emas. Boshqaruv insonlarning kuchli psixologik fazilatlarini samarali amalga oshirish, zaiflarni esa bartaraf qilish imkonini beradi.

2. Madaniy va tarixiy an'analar ta'siri ostidagi boshqaruv barcha mamlakatlar rahbarlarining psixologiyasiga chuqur kirib, bunda ular asosan bir xil vazifalar va funksiyalarni bajaradilar.

3. Har qanday tashkilot barcha ishchilarni birlashtiradigan oddiy va aniq maqsadlarga muhtoj bo'ladi. Shu munosabat bilan, menejment psixologiyasining vazifasi jamoada barcha xodimlarni ittifoqchilarga aylantira oladigan qadriyatlar va motivlar tizimini o'rnatishdan iboratdir.

4. Menejment psixologiyasining vazifasi jamoaga va uning har bir a'zosiga o'z qobiliyatlarini o'stirish, shaxsiy xislatlarini yaxshilash va ehtiyojlarni to'liq qondirish imkoniyatini berishdir.

5. Har bir xodimning ishini bajarishi shaxsiy intizom va tayinlangan ish uchun mas'uliyatga asoslangan bo'lishi lozim; u o'z vazifalarini aniq tasavvur etishi va umumiy ish uchun qo'shgan shaxsiy hissasini baholash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

*Boshqaruvning xususiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:*

- \* boshqaruvning ilmiy asoslanganlik tamoyili;
- \* davlat qonunchiligi tamoyili; boshqaruv ob'ekti va sub'ektining organik yaxlitligi tamoyili;
- \* ierarxialik va qayta aloqa tamoyili;
- \* rejalilik tamoyili;
- \* markazlashtirish va markazsizlashtirishni biriktirish tamoyili;



- \* motivatsiya tamoyili;
- \* xususiy avtonomiya va erkinlik tamoyili;
- \* tashkilotdagi har bir xodimning huquqlari, majburiyatlari va mas'uliyatini birlashtirish tamoyili;
- \* boshqaruv tizimining barqarorligi va harakatchanligi tamoyili;
- \* boshqaruvni demokratizatsiyalash tamoyili.

Muammolarni hal qilish va boshqaruv tamoyillarini amalga oshirish turli usullarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Boshqaruv psixologiyasi – asl “insoniy munosabatlar” oynasi ekanligini fsoqlang.
2. G'arb va Sharq yondashuvlari. Hozirgi davrdagi menejmentning psixologik talqini, mohiyatini tushintiring.
3. Boshqaruv psixologiyasi fanini maqsadi. Boshqaruv psixologiyasining asosiy tamoyillarini farqlang.
4. Demokratik dettsenralizm, psixodiagnostik tizim, ma'naviy va moddiy rag'batlantirish masalasining mohiyatini ochib bering.

## II- BOB. BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI.

### *Boshqaruv va menejment fanining rivojlanish tarixi*

Boshqaruv - taraqqiyotning har qanday bosqichida jamiyatga xos bo'lgan ichki xususiyatdir. Bu xususiyat umumiy xarakterga ega. Bu xususiyat ijtimoiy jamoa mehnatida, turmush va mehnat jarayonida kishilarning o'zaro aloqada bo'lishi, o'z moddiy va ma'naviy faoliyatining mahsulotini almashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Mehnat hamma davrlarda ijtimoiy xarakterda bo'lgan. Chunki, jamiyat qonunlari shuni taqozo etadi. Insonlar dunyoga kelib, ongli hayotlarini boshlashi bilanoq birgalikda ishlashga ehtiyoj sezganlar. Bu zarurat turli davrlarda turlicha kechgan. Barcha davrlarga xos yagona xususiyat boshqaruv jarayoni bilan izohlanadi. Jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida jamiyatning alohida qobiliyat va bilimlarga ega bo'lgan kishilar tomonidan boshqarilishiga ehtiyoj paydo bo'la boshladi. Keyinchalik boshqaruvchi kishilar soni ko'paya borib, alohida ijtimoiy guruhga, so'ng tabaqaga aylandilar. Bu ijtimoiy tabaqa kengayib, davlat deb nomlanadigan boshqaruv organi paydo bo'la boshladi.

Odamlarni boshqarish va ularga rahbarlik qilishga insoniyatda har doim, ibtidoiy jamiyat tuzumidan boshlab urug'ning, qabilaning barcha a'zolarini ov va birgalikdagi mehnat, hujum va mudofaa uchun sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish zarur bo'lgan paytdan qiziqish uyg'otgan. Rivojlanishning har bir bosqichida har qanday davlat jamiyatni boshqarish va bo'ysunmas insonlarni majburlashning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, buning uchun turli hokimiyat institutlari va ko'plab boshqaruv xodimlaridan foyladanilgan.

Qadimgi Shumerda (miloddan 5 ming yil avval) yozuvning rivojlanishi bilan birga savdo operatsiyalarini, amaliy yozishmalarni olib borgan kohinlarning alohida tabaqasi paydo bo'ldi. Shumerlik kohinlar dunyodagi birinchi ishbiarmonlar edi.

Qadimgi Misrda (miloddan 3000 yil avval) etarlicha rivojlangan davlat boshqaruv apparati va uning xodimlari (kohinlar, kotib-mansabdorlar va boshqalar)

mavjud bo‘lgan. Misr ehromlari va boshqa noyob inshootlarni aniq rejalashtirishsiz, ko‘plab odamlarning ishini oqilona tashkil etishsiz, ularning ishini qat’iy nazorat qilishsiz tasavvur qilish qiyin. Buyuk istilolar, shuningdek, qo‘shinlarni mohirona boshqarmasdan va ularga rahbarlik qilmasdan amalga oshishi mumkin emas edi.

Boshqaruvga alohida faoliyat sohasi sifatida ilmiy tavsif bergan birinchi inson qadimgi yunon faylasufi Suqrot (miloddan 470-399 yillar avval) edi. U boshqaruvning ko‘p qirrali tamoyilini e‘lon qildi. Uning shogirdi Aflotun davlat boshqaruvi shakllarini ishlab chiqdi, boshqaruv organlarining vazifalarini ajratib, ularni “Davlat” kitobida aks ettirdi. Aristotel (miloddan 384-322 yillar avval) davlat boshqaruvi haqidagi g‘oyalarni rivojlantirib, davlatning eng yaxshi shakllari deb monarxiya, aristokratiya, mo‘tadil demokratiyani, eng yomon shakllari deb esa zulm, oligarxiya, oxlokratiyani (olomonning hukmronligi) hisobladi.

Italiyalik siyosiy mutafakkir Nikkolo Makiavelli (1469-1527) Yevropa boshqaruv tizimining asoschisi hisoblanadi. U shunday deb yozgan edi: "Etakchining nufuzi yoki kuchi tarafdorlarining qo‘llab-quvvatlashiga asoslanadi. Yetakchi har doim o‘z tarafdorlari uchun donolik va adolat namunasidir". Makiavelli “Hukmdor” kitobida Italiyaning siyosiy bo‘linishini faqat kuchli davlat hokimiyati engishi mumkinligini ta’kidlagan edi. Bunday hokimiyatni mustahkamlash uchun esa har qanday vosita qo‘l keladi. Axloqiy me‘yorlarni e‘tiborsiz qoldiradigan bunday shafqatsizlik boshqaruvda "makiavellizm" deb nomlana boshlandi.

XIX asrning boshlarida ingliz olimi Robert Ouen xususiy mulk, sinflar, ekspluatatsiya, aqliy va jismoniy mehnat o‘rtasidagi nizolardan mahrum bo‘lgan o‘zini o‘zi boshqaradigan "umumiylik va hamkorlik qishloqlari"ni yaratish orqali jamiyatni tubdan qayta qurish dasturini ilgari surdi. Uning ishlab chiqarishni boshqarishni insonparvarlashtirish g‘oyalari, shuningdek, o‘qitish, ishchilarning ish sharoitlari va turmush darajasini yaxshilash zarurligini e‘tirof etishi bugungi kunda ham dolzarbdir.

XX asrning birinchi yarmida. amerikalik muhandis F.U.Teylor ilmiy boshqaruv nazariyasini ishlab chiqqan va amalga oshirgan bo‘lib, uning maqsadi mehnat intensivligini maksimal darajada oshirish va mehnat harakatlarini ilmiy jihatdan ratsionalizatsiya qilish orqali daromad olishdan iboratdir. Teylor o‘zining “Fabrikani boshqarish” (1903) va “Ilmiy menejment tamoyillari” (1911) asarlarida ishchilarni

tanlash, joy-joyiga qo'yish va rag'batlantirishning ilmiy yondashuvlarini asoslab berdi. Uning xizmati shundaki, u "ilmiy menejment" nazariyasini rivojlantira boshlagan edi.

1921 yilda nemis sotsiologi va iqtisodchisi Maks Veber "ratsional byurokratiya" tushunchasini taklif qildi. U ilgari surgan tezisga ko'ra, byurokratiya (so'zma-so'z – kanselyariyaning hukmronligi, frans.. Bureau — byuro, kanselyariya va yunon. kratos — kuch, hokimiyat, hukmronlik) bu qoidalar bilan belgilangan tartib — insonlar tashkilotining eng samarali shaklidir. Uning fikriga ko'ra, byurokratik boshqaruvning kamchiliklari bu demokratiyani har tomonlama rivojlantirish orqali bartaraf etilishi mumkin bo'lgan rasmiyatchilik, korrupsiya va mansabdor shaxslarning o'zboshimchaliklari hisoblanadi.

XX asrning 30-yillarida psixologiya va sotsiologiyaning yutuqlari boshqaruvda joriy etila boshlandi, "inson munosabatlari maktabi" paydo bo'ldi. Ushbu nazariyaning asoschisi Elton Meyo edi. U ishchilar guruhi ichki nazoratga bo'ysunuvchi ijtimoiy tizim ekanligini aniqladi. Agar ijtimoiy tizimga muayyan tarzda ta'sir ko'rsatilsa (masalan, odamlarga e'tibor qaratilsa), unda mehnat natijalari yaxshilanishi mumkin.

XX asrning 60-yillarida kompyuterlarning paydo bo'lishi va matematikadan foydalanish bilan boshqaruvda "boshqaruv maktabi" rivojlandi, qarorlarni imitatsion modellashtirish, noaniqlik sharoitida tahlil qilish usullari, ko'p maqsadli boshqaruv qarorlarini baholashning matematik ta'minoti kabi ichki boshqaruvni rejalashtirishning yangi elementlari joriy etildi.

Boshqarishdagi tizimli yondashuvda tashkilotga odamlar, tuzilmalar, vazifalar, texnologiyalar, zaxiralar kabi o'zaro bog'liq elementlarning majmui deb qaraladi. Tizim nazariyasining asosiy g'oyasi shundaki, hech qanday harakat boshqalardan ajralib amalga oshirilmaydi. Har bir qaror butun tizim uchun oqibatlarni keltirib chiqaradi. Boshqaruvdagi tizimli yondashuv bir sohada qaror qabul qilish boshqasida muammo tug'diradigan vaziyatlarga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi.

XX asrning 70-yillarida "boshqaruvda ochiq tizim" paydo bo'ldi. U turli xil ichki muhitga ham, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga ham moslashish tendensiyasiga ega. Tashkil etish ochiq tizim sifatida tashqi energiya, axborot va materiallarga bog'liqdir.

"Boshqaruvda vaziyatli yondashuv" eng iqtisodiy-tejamli yondoshuv sanaladi. Uning mohiyati shundaki, shakllar, usullar, tizimlar, boshqaruv uslublari mavjud

vaziyatga qarab farqlanishi kerak. Vaziyatli yondashuv boshqaruv nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Unda tashkil etishning tashqi va ichki muhit sharoitlari va shartlariga qarab, boshqaruv amaliyotida ilmiy qoidalarni qo'llash bo'yicha aniq tavsiyalar mavjud.

XXI asrga insoniyat bilan birga kirib kelgan zamonaviy boshqaruv tushunchalarining o'ziga xos xususiyati haqida gapirganda, birinchi navbatda ularning uzluksizligi, tanlanish xususiyati va integrativligini ta'kidlash lozim. Dunyoda davlat tuzilmalari faoliyatida namoyon bo'ladigan demokratik va gumanitar g'oyalarning yoyilishi boshqaruvni bosqichma-bosqich demokratizatsiyalash va insonparvarlashtirishga ham ta'sir ko'rsatadi.

### ***Boshqaruv va menejmentning umumiy xususiyatlari***

Amaliy faoliyatda "boshqaruv" va "menejment" atamalari ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladi. Biroq, nazariy ma'noda "boshqaruv" atamasi "menejment" atamasidan kengroq bo'lib, loyihalashtirish, iqtisodiy zaxiralarni rejalashtirish, echimlarni modellashtirish, matematik axborotni qayta ishlash va boshqalar bilan bog'liq turli faoliyat turlariga nisbatan qo'llaniladi.

Menejment (ingl. manage - boshqarmoq) tashkilot darajasida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish - xo'jalik faoliyati va xodimlarni boshqarishni anglatadi. Menejment va boshqaruvga quyidagi ta'riflarni berish mumkin.

Menejment ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va daromadni ko'paytirish uchun ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan ishlab chiqarishni boshqarishning tamoyillari, usullari, vositalari va shakllari majmuidir.

Ijtimoiy jarayon sifatida boshqaruv bu ob'ekt (jamiyat, guruh, jamoa)ni tartibga solish, sifatli spesifikani saqlash, takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida unga nisbatan boshqaruv sub'ektining muayyan faoliyati (operatsiyalari, usullari, yo'llari)dir.

Boshqaruvning *maqsadlari* quyidagilar bo'lishi mumkin: motivatsiyani rivojlantirish, kasbiy bilim, mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish; professional muhim fazilatlarini, ijobiy his-tuyg'ularni va kayfiyatni tarbiyalash; ishlab chiqarish

muammolarini hal qilish; qo‘l ostidagilarni muayyan harakatlarni amalga oshirishga undash va h. Agar aniq maqsad bo‘lmasa, boshqaruv tartibsiz amalga oshadi. Agar maqsadga qisqa vaqt ichida erishilmasa, boshqaruv samarasiz bo‘ladi.

Rahbar (menejer) boshqaruvning *sub’ektidir*. Misol uchun, AQShdagi davlat xizmatchilari orasida barcha menejerlar o‘n sakkizta daraja<sup>3</sup> bo‘yicha tasniflanadi: 1-dan 8-gacha — eng past darajadagi xodimlar (ofis xodimlari, mashinistkalar); 9-dan 12-gacha — eng past darajadagi rahbar xodimlar; 13-dan 15-gacha — o‘rta darajadagi rahbarlar (davlat muassasalarida ular menejerlar deb ataladi); 16-dan 18-gacha — yuqori professional rahbariyat (vazirlar va ularning o‘rinbosarlari, boshqarma boshliqlari va h.).

Boshqaruv *ob’ekti* bu bir kishi (qo‘l ostidagi) yoki bir guruh odamlar, xodimlar, jamoa, jamiyatdir. Bundan tashqari, boshqaruv ob’ekti yana jarayon, vaziyat yoki boshqaruv ta’siriga yo‘naltirilgan ob’ektiv voqelikning boshqa bir qismi bo‘lishi mumkin.

Jamiyat har doim o‘z a’zolari, guruhlari va jamoalariga ma’lum talablarni qo‘yadi. Ushbu talablarni bajarishga qarab, jamiyat rivojlanadi yoki tanazzulga yuz tutadi. Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida boshqaruv *mexanizmining* ikkita: ongli va tartibsiz turlari mavjud.

Boshqaruvning ongli mexanizmlari bu mamlakatni qonunlar va uzoq muddatli dasturlar (iqtisodiy, siyosiy, ta’lim, madaniy va b.) asosida ilmiy jihatdan boshqaradigan ijtimoiy institutlardir. Masalan, davlat hokimiyati uchta tarkibiy qism — qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati shaklida eng muhim vazifalarni bajaradi va xalq oldida mas’uldir.

Boshqaruvning tartibsiz mexanizmi oldindan aytib bo‘lmaydigan tarzda ishlaydi - bu, odatda, davlatning xabardorligisiz tez-tez paydo bo‘ladigan turli kuchlarning to‘qnashuvi, ko‘pincha nizoli omillarning, tasodifiy yagona harakatlarning natijasidir. Masalan, bozor iqtisodiyoti kapitalizmning asosiy boshqaruv kuchi bo‘lib, u nafaqat ishlab chiqarishni tashkil etadi, balki odamlarning hayotini qayta tiklaydi, o‘ziga xos axloqni va kutilmagan ijtimoiy munosabatlarni yaratadi.

---

<sup>3</sup> Қаранг: Подоляк Я. В. Психология управления: теория и практика менеджмента. - Харьков, 2004. -Б.18.

Jamiyatning ilmiy boshqaruvi ijtimoiy qonuniyatlarni bilish va xalq manfaati uchun haqiqiy faoliyat dasturlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ilmiy boshqaruvning mohiyati tizimda to'rtta jihatning o'zaro bog'liqligi bo'lib, ular quyidagilardir:

1) informativ jihat (tizimning maqsadi va vazifalari, funksiyalari va imkoniyatlari);

2) loyihaviy-dasturiy jihat (haqiqiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda loyihalashtirish, dasturlash, rejalashtirish);

3) buyruqli jihat (boshqaruv qarorlari asosida dasturlarni amalga oshirish);

4) nazorat-tahlil jihati (tizimning ishlashini nazorat qilish va tahlil qilish).

Ushbu jihatlardan har birini takomillashtirish umuman boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Ijtimoiy tuzilmalarda amalga oshiriladigan boshqaruv o'ziga xos xususiyatlarga ega va turli xil bilimlardan, inson aqli moslashuvchanligidan, xotiradan, kuchli irodali fazilatlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Murakkab ijtimoiy tuzilmalarda samarali boshqaruvni amalga oshirish uchun yakuniy maqsadni aniq belgilash, erishish uchun mumkin bo'lgan yo'llarni belgilash, turli boshqaruv ta'sirlarida va tashqi vaziyatlardagi o'zgarishlarda boshqarish tizimining xatti-harakatlarini oldindan ko'ra bilish (taxmin qilish) zarur.

Boshqaruvni ilmiy tashkil etish tadqiqotchi va rahbar tomonidan vaziyatni tizimli tahlil qilishni, boshqariladigan ob'ektning va undagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarning modelini (aqliy tasavvurlar yoki moddiylashtirilgan sxemalar, rejalar shaklida) yaratishni, muayyan ijtimoiy-psixologik tuzilmani tashkil etuvchi shaxsning kasbiy faoliyati jarayonlarini modellashtirish (professiogrammalarni yaratish) va xulq-atvorini (odamlarning psixogrammalarini) modellashtirishni qo'llashni talab qiladi.

Ijtimoiy tuzilmalardagi boshqaruv nafaqat odamlar o'rtasidagi psixologik munosabatlarni, balki ijtimoiy guruhlarning maqsadlarini amalga oshirish uchun muhim sanalgan iqtisodiy, madaniy, siyosiy, huquqiy, ishlab chiqarish, ekologik va boshqa munosabatlarni ham o'z ichiga olib, bu sohalarda insonlarning muayyan faoliyati amalga oshiriladi. Bugungi jamiyatning hayoti ishlab chiqarish, ilm-fan va

texnikaning rivojlanishi, yangi huquqiy tuzilmalarning shakllanishi, jamiyatning demokratlashuvi bilan bog‘liq holda qanchalik murakkab va ko‘p qirrali bo‘lsa, boshqaruv jarayonlari mazmuni, hajmi va usullariga ko‘ra shunchalik murakkablashadi.

Ijtimoiy tizimni ham o‘z ichiga olgan murakkab boshqaruv tizimlari har doim ikkita asosiy quyi tizimga: boshqaruv (rahbarlik) va boshqariladigan (ijrochilar)ga bo‘linadi. Ularning har biriga o‘z navbatida o‘ziga xos kichik tizimlarga ega mustaqil tizimlar sifatida qarash mumkin.

Demak, murakkab tizimlar ko‘p bosqichli ierarxik tuzilishga ega bo‘lib, ularning har bir bo‘g‘ini (quyi tizimi)da to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari aloqalarning mahalliy yo‘nalishlari mavjudki, ular o‘z-o‘zini boshqarishning ichki konturlarini tashkil qiladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, har bir boshqaruv tizimida sub’ekt – boshqaruvchi bo‘g‘in (boshqaruvchi quyi tizim) va boshqaruv ob’ekti (boshqariladigan quyi tizim) mavjud bo‘ladi.

### **Boshqaruv faoliyatining psixologik tuzilisi**

Ishlab chiqarishni samarali boshqarish uchun hokimiyat organlari rasmiy tashkilotlarni, ya’ni korxonalar, firmalar, muassasalar, idoralar va boshqa mehnat tuzilmalarini tashkil qiladi. Rasmiy tashkilotlar bilan bir qatorda norasmiy tashkilotlar ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi.

Tashkilot bu umumiy maqsadlarga ega bo‘lgan bir guruh odamlardir. Tashkilot o‘zini ushbu guruhning bir qismi deb hisoblaydigan kamida ikki kishini o‘z ichiga oladi. Tashkilotning mavjud bo‘lishi uchun asosiy jihat - foyda olishga qaratilgan maqsadning birligi va birgalikdagi faoliyat hisoblanadi. Tashkilot ichki va tashqi muhitga sezilarli darajada bog‘liqdir. Tashkilotning asosiy xususiyatlari quyidagilardir: tashkilotning maqsadlari, tashkilotning vazifalari, tashkiliy tuzilmasi, texnologiyalari va resurslari<sup>4</sup>.

*Tashkilotning maqsadlari* bu mehnat jamoasining erishmoqchi bo‘lgan yakuniy holati yoki istalgan natijasidir.

---

<sup>4</sup> Қаранг: Подольяк Я. В. Психология управления: теория и практика менеджмента. - Харьков, 2004. –Б.13-15.



*Vazifalar* oldindan belgilangan muddatlarda oldindan belgilangan tartibda bajarilishi kerak bo'lgan o'rnatilgan ish yoki uning bir qismi (operatsiyalar, protseduralar)dir.

*Tashkiliy tuzilma* bu tashkilotning maqsadlariga erishish va muammolarini hal qilish uchun eng ta'sirchan tarzda imkon beradigan shaklda qurilgan boshqaruv darajalari va funksional sohalarning mantiqiy o'zaro munosabatidir.

*Texnologiya* bu materiallar, axborot va insonlarda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan malakali ko'nikmalar, uskunalar, infratuzilma, vositalar va tegishli bilimlarning birikmasidir.

*Resurslar* bu odamlar, asosiy va aylanma mablag'lar, texnologiyalar va ma'lumotlardir.

*Tashqi muhit* omillari quyidagilardir: hokimiyat organlari, banklar, etkazib beruvchilar, mijozlar, kasaba uyushmalari, mulk egalari, raqobatchilar, yollanma ishchilar.

Tashkilotning *ichki muhiti* sifatida quyidagilar namoyon bo'ladi: tashkilotning maqsadlari, tashkiliy tuzilmasi, vazifalari, texnologiyasi, mehnat resurslari, shtatdagi xodimlari. Ichki omillar boshqaruv qarorlarining natijasi hisoblanadi. Ichki muhitning eng muhim jihati bu mehnat resurslari - tashkilotning maqsadlariga mehnati orqali erishiladigan insonlar hisoblanadi.

Tashkilotning boshqaruvi quyidagi beshta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

1. Umumiy rahbarlik – tashkilot faoliyatining asosiy, istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish.
2. Texnologik rahbarlik - ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish.
3. Iqtisodiy rahbarlik - strategik va taktik rejalashtirish, tashkilotlarning iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish, ish rentabelligini ta'minlash.
4. Operativ boshqaruv - operativ rejalarni tayyorlash va alohida ijrochilarga etkazish, ijrochilarni ish joylariga qo'yish, ularga yo'l-yo'riq berish, ishlab chiqarish jarayonining borishini muntazam nazorat qilishni tashkil etish.
5. Xodimlarni boshqarish - tashkilotning mehnat resurslarini tanlash, joy-joyiga qo'yish va o'stirish.

Tashkilotni boshqarish jarayonida "boshqaruvchilar" - rahbarlar, menejerlar, mutaxassislar va yordamchi xodimlar ishtirok etadi. Har bir boshqaruvchi o'z vazifalariga ega. Rahbarlar (menejerlar) tashkilot faoliyatining eng muhim masalalari bo'yicha qarorlarni qabul qiladi, quyi bo'g'inlar ishini boshqaradi va muvofiqlashtiradi. Mutaxassislar boshqaruv qarorlarini tayyorlash va amalga oshirish vazifalari (boshqaruv va ijro vazifalari)ni bajaradilar. Yordamchi xodimlar (texnik ijrochilar) boshqaruv apparatiga xizmat ko'rsatadi.

Boshqaruv ishi bu alohida ijrochilarning ham, umuman tashkilotning ham maqsadli, muvofiqlashtirilgan faoliyatini ta'minlash asosiy vazifasi bo'lgan ijtimoiy mehnatning o'ziga xos bir turidir. Boshqaruv mehnatining xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- boshqaruv apparati xodimlarining aqliy mehnati;
- moddiy boyliklarni yaratishda bevosita emas, balki bilvosita boshqalarning mehnati orqali ishtirok etish;
- mehnat predmeti - axborot;
- mehnat vositalari - tashkiliy va hisoblash texnikasi;
- mehnat natijasi - boshqaruv qarorlari.

Har bir mamlakatda milliy menejment rivojlanmoqda va takomillashtirilmoqda. Hozirgi vaqtda Yaponiya boshqaruvi eng samarali boshqaruv tizimi hisoblanib, uning samarasi o'laroq iqtisodiy jihatdan qoloq va urushda xonavayron bo'lgan mamlakat etakchi pog'onalariga chiqdi.

Yaponiyalik menejment bo'yicha mutaxassis X.Yosixaraning fikriga ko'ra, Yaponiya boshqaruv tizimining sakkizta xarakterli xususiyati mavjud:

1. Ish bilan ta'minlash kafolati va ishonch muhitini yaratish.
2. Tashkilotning oshkoraligi va qiymati.
3. Axborotga asoslangan boshqaruv.
4. Sifatga yo'naltirilgan boshqaruv.
5. Ishda menejerning doimiy ishtiroki.
6. Ozodalik va tartibni saqlash.
7. Uzluksiz ta'lim va o'zini takomillashtirish tushunchasi.
8. Qaror qabul qilishning mas'uliyati va o'z vaqtida bajarilishi.

Barcha mamlakatlarda menejment maxsus funksiyalar yordamida amalga oshiriladigan davriy jarayondir.

*Menejment funksiyalari* menejerning muayyan boshqaruv faoliyati bo'lib, u maxsus usullar va yo'llar bilan amalga oshiriladi, shuningdek, tashkilotning va alohida har bir xodimning faoliyatini nazorat qiladi.

Menejmentning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazorat.

1. *R e j a l a s h t i r i s h* funksiyasi tashkilotning kelajakdagi holatining ijtimoiy-iqtisodiy modelini, muayyan vaqt ichida qanday yo'lni bosib o'tishini belgilaydi. Boshqaruv darajasiga qarab strategik, taktik va operativ rejalashtirish turlari amalga oshiriladi. Barcha uchta reja bosh reja yoki biznes rejasi deb ataladigan umumiy tizimni tashkil qiladi.

2. *T a s h k i l e t i s h* funksiyasi menejer va ijrochilar faoliyatining texnik, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy-psixologik tomonlarini tartibga solishni ta'minlaydi.

3. *M o t i v a s i y a* funksiyasi ijrochilarni turli mukofotlar (maqto'v, mukofot, lavozim bo'yicha ko'tarilish) orqali tashkilotning maqsadlariga erishishga undashdir.

4. *N a z o r a t* funksiyasi erishilgan natijalarni rejalashtirilgan ko'rsatkichlar bilan solishtirishga (taqqoslashga) qaratilgan. Nazorat dastlabki, joriy, yakuniy bo'lishi mumkin. Nazorat jarayonida olingan ma'lumotlar rejalashtirish, tashkil etish va xodimlarni rag'batlantirish bosqichida qo'llanilishi mumkin.

Boshqaruv har doim muayyan professional faoliyat doirasida amalga oshiriladi.

Ma'lumki, inson faoliyati ham fanning ichkidagi, ham fanlararo tadqiqotlarning predmeti bo'lib, faoliyat mehnat haqidagi fanlarning psixologik majmuida o'rganiladi. Faoliyat, shuningdek, mamlakat umumiy psixologiyasining asosiy tushunchalaridan biridir, chunki insonning mavjudligini tavsiflovchi toifalar orasida u eng muhim o'rnini egallaydi. Ong va faoliyatning birligi tamoyilini psixik jarayonlarni, holatlarni va xususiyatlarni o'rganishda qo'llash, avvalo tushunarsiz tuyulgan ko'plab hodisalarni tushuntirish, insonning psixik rivojlanishi muhim qonuniyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Izohli va lingvistik lug'atlar, ensiklopediyalardagi ma'lumotlar va ilmiy ishlarning tahlili "faoliyat" tushunchasi falsafada, fiziologiyada, sotsiologiyada va

psixologiyada shakllanar ekan, o'zaro kesishma o'zgartirishlar natijasida to'rtta asosiy: "mehnat", "ish", "faoliyat" va "xulq-atvor" ma'nolarga ega bo'lganini ko'rsatadi.

"Faoliyat" atamasi birinchi marta nemis klassik falsafasidan olingan bo'lib, keyinchalik "ish" atamasiga juda yaqin bo'lgan mehnat faoliyati (mehnat) atamasini joriy etgan K.Marksda falsafiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'ldi.

Xulq-atvor "faoliyat" atamasining ekvivalenti sifatida bizning ijtimoiy va umumiy ruhiyatimizga, bir tomondan, reaksiya tizimi sifatida talqin qilingan xulq-atvor psixologiyasidan, va boshqa tomondan esa G'arb sotsiologiyasidagi "ijtimoiy bixeviorizm" atamasi orqali kirdi (xatti-harakatlar tizimi).

Faoliyatni ehtiyojlardan kelib chiqadigan hamda tashqi dunyo va insonning o'zini bilish va o'zgartirishga qaratilgan faollikni anglash bilan boshqariladigan o'ziga xos insoniy faoliyat sifatida belgilash mumkin. Faoliyatda psixik deb ataladigan shaxsning jarayonlari, holatlari va xususiyatlarining butun tizimi u yoki bu ko'rinishda shakllanadi, rivojlanadi, namoyon bo'ladi.

Insonning mehnat faoliyatida ikkita mantiqan qarama-qarshi: professional va noprofessional turlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

**Professional** faoliyat kasb sifatida, ya'ni maxsus tayyorgarlik, ish tajribasi natijasida olingan maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan insonning mehnat faoliyati turi sifatida belgilanadi.

Shunday qilib, **noprofessional** faoliyat aksincha maxsus bilim va ko'nikmalarni talab qilmaydigan, lekin inson ish kuchining oddiy sarfini ifodalovchi mehnat faoliyati sifatida belgilanishi mumkin. Professional tayyorgarlikning davomiyligi va uning professionalligi professional va noprofessional faoliyat o'rtasidagi farqning amaliy mezoni bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, quyidagi samarali professional faoliyat omillarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) sub'ektiv:

- professional tayyorgarlik darajasi;
- professional muhim xususiyatlar;
- xodimning holati;

2) ob'ektiv:

- atrof-muhitga bog‘liq (faoliyatni tashkil qilish, vaziyatning ob‘ektiv shartlari, yashash sharoitlari);

- apparatga oid (ish joyini tashkil etish, axborot oqimi, faoliyatni nazorat qilish).

Professional faoliyatni psixologik o‘rganish haqida gap ketganda, odatda, bu individning faoliyati yoki individual faoliyatni anglatadi. So‘nggi yillarda amaliyot so‘rovlarining ta‘siri ostida qo‘shma professional, guruhli, shu jumladan jamoaviy faoliyat psixologik tadqiqot ob‘ektiga aylandi.

Faoliyatning tuzilishi haqidagi tasavvurlar faoliyat nazariyasining asosini tashkil etadi. Inson faoliyati murakkab ierarxik tuzilishga ega.

**Harakat** - bu faoliyatni tahlil qilishning asosiy birligi. Harakat nima? U maqsadni amalga oshirishga qaratilgan jarayondir.

**Maqsad** - inson harakatlarining tabiati va usullarini belgilaydigan istalayotgan natijaning tasviri. Maqsad insonning o‘zi tomonidan shakllantiriladi va oldinga siljish fenomeni hisoblanadi. Shakllantirilgan maqsad muhim professional faoliyatda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, faoliyatning murakkabligi maqsadning faoliyat ob‘ektidan qanchalik uzoq bo‘lishiga, shuningdek, shaxsning mablag‘lari (va egalik darajasi) ga bog‘liq.

Odatda, faoliyat ketma-ket amalga oshiriladigan harakatlar tizimi sifatida amalga oshirilib, ularning har biri maqsadga qaratilgan qadamni qo‘ygan singari, shaxsiy muammoni hal qiladi. Maqsad bu faoliyatning eng yuqori regulyatoridir (har bir qadam sayin muayyan vazifaga aylanadi).

Harakatlarni bajarish usuli **operatsiya** deb ataladi. Qo‘llanilayotgan operatsiyalarning tabiati harakatning amalga oshiriladigan shartlariga bog‘liq. Operatsiyalar harakatlarning texnik tomonini, texnikani ochib beradi.

Professional faoliyatni takomillashtirishga intilish, harakatlarni mashq qilish avtomatlashtirilgan harakatlar — ko‘nikma va odatlarni shakllantirishga olib keladi.

**Odat** biron bir harakatga ehtiyoj, shaxsning ushbu harakatga bog‘liqligi sifatida ko‘raladi. Shaxs **ko‘nikmalar**ning harakatiga bog‘liq bo‘lmaydi.

Bitta turdagi faoliyat bilan bog‘liq ko‘nikmalar tizimi asosida **mahoratlar** hosil bo‘ladi. Mahoratli harakat har doim o‘z ishini bilgan holda bajariladigan harakatdir. Bilimlar tizimi bilan ko‘nikmalar tizimi insonning oldiga qo‘yilgan vazifalarni

mustaqil hal etishga tayyorligini yaratadi. Avtomatlashtirilgan harakatlar sifatidagi ko‘nikma va odatlar uchun stereotiplik xosdir. Mahorat esa yangi muammolarni hal qilishda o‘zini namoyon qilib, ijodkorlik jihatlarini o‘z ichiga oladi.

Bilimlar, mahoratlar va ko‘nikmalarning rivojlanish darajasi inson mehnatining umumiy madaniyati va uning professional mahorati bilan belgilanadi. Lekin professional mahorat bu bilan to‘xtab qolmaydi. Amaliy fikrlashda namoyon bo‘lgan ijodkorlik uning zarur tarkibiy qismi sanaladi.

Professional faoliyatning tuzilishini tahlil qilgan holda, quyidagi savolga javob berish kerak: insonni maqsadlarni belgilashga va ularni amalga oshirishga nima undaydi?

Bunga javob berish uchun "ehtiyotlar", "motivlar" tushunchalariga murojaat qilish lozim bo‘ladi.

**Ehtiyot** - insonning biror narsaga bo‘lgan ob‘ektiv ehtiyotining ichki holati, muayyan yashash sharoitlariga bog‘liqligi.

**Motiv** - ehtiyotning predmeti sifatida tavsiflanadi. Ehtiyotning predmetlashtirilishi va motivning paydo bo‘lishi ortidan xulq-atvorning turi keskin o‘zgaradi - yo‘nalishga ega bo‘ladi. Motiv bu harakat nima uchun amalga oshiriladigan narsadir.

Ehtiyotning predmeti (motiv) ideal bo‘lishi mumkin, masalan, hal qilinmagan professional, boshqaruv vazifasi. Bitta motivning o‘zi turli harakatlarga undashi mumkin, shuningdek, bitta harakatning o‘zi turli motivlar bilan belgilanishi mumkin.

Motiv va maqsad faoliyatning yo‘nalishini belgilaydigan "faoliyat vektori"ni, shuningdek, uni amalga oshirishda sub‘ekt tomonidan amalga oshiriladigan sa‘y-harakatlarning qiymatini tashkil qiladi.

Muayyan motivdan kelib chiqadigan faoliyat qanday bo‘lishi maqsadga qarab belgilanadi. Motiv faoliyatga undaydigan ehtiyotga, maqsad esa faoliyat yo‘naltirilgan va uni amalga oshirish jarayonida mahsulotga aylantirilishi kerak bo‘lgan ob‘ektga tegishli bo‘ladi. Motiv va maqsad to‘liq mos kelishi, sezilarli darajada farq qilishi va hatto bir-biriga zid bo‘lishi mumkin.

"Motiv - maqsad" vektori faoliyatning eng yuqori regulyatori va unga kiritilgan psixik jarayonlar bo'lib, idrokning tanlash xususiyatini, e'tibor va xotiraning o'ziga xos xususiyatlarini, axborotni fikrlashda o'zgartirish usullarini belgilaydi.

Mavjud konsepsiyalarni tahlil qilish asosida B.F.Lomov asosiy "shakllantiruvchi" faoliyatlarni aniqladi. Bular: motiv, maqsad, faoliyatni rejalashtirish, joriy axborotni qayta ishlash, operativ qiyofa (va konseptual model), qarorni qabul qilish, harakat, natijalarni tekshirish va harakatlarni tuzatish.

Professional faoliyatning maqsadi ikki jihatda: kelajakdagi natijaning ideal yoki xayoliy tasavvuri va shaxsning da'vo qilayotgan yutuqlari darajasida namoyon bo'ladi.

Faoliyat rejasi uni vaqt va makonda tashkil qiladi, harakatlar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Rejada faoliyatni amalga oshirishning strategiyasi va taktikasi uning bajarilishining ob'ektiv va sub'ektiv shartlari asosida aks ettiriladi.

Faoliyat ob'ektini o'zgartirish uchun inson (faoliyat sub'ekti) nafaqat obrazga - maqsad va rejaga ega bo'lishi, balki ob'ektning hozirgi holati haqida ma'lumotni ham anglashi kerak. Faoliyat ob'ektida o'zgartirilgan ob'ektning maxsus ideal tasviri operativ qiyofa sifatida namoyon bo'ladi.

Qarorni qabul qilish har qanday faoliyatga kiritilgan bo'lib, umuman butun faoliyatga, alohida harakatlarga yoki uning tarkibiy qismlariga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, boshqaruv ob'ektiga uning holatini o'zgartirish uchun boshqaruv sub'ektining ta'sirini belgilovchi sub'ektiv vazifa operativ qiyofa bilan maqsadli qiyofa o'rtasidagi o'ziga xos "kelishmovchilik" sifatida namoyon bo'ladi. Bu qaror qabul qilish yo'nalishini belgilab, uning jarayonida farazlar paydo bo'ladi, ularni tekshirish va baholash, ya'ni qarorni qabul qilish ro'y beradi.

Qo'shma professional faoliyatda umumiy maqsad insonlarni birlashtiradigan omil bo'lib, guruhning ehtiyojlari bilan yaxlit tuzilma sifatida bog'liq bo'ladi. Individlarning motivlari bir-biriga bog'langan bo'lib, birgalikdagi faoliyatda qo'shilishi mumkin. Umumiy reja, eng avvalo, ushbu faoliyat ishtirokchilari o'rtasidagi funksional munosabatlarni belgilaydigan muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaradi. Har bir inson foydalanadigan umumiy axborot jamg'armasi mavjud. Qo'shma professional faoliyatda taqlid qilish, singdirish, o'zaro hissiy quvvat olish va boshqa hodisalar kuzatiladi.

Boshqaruvchi, rahbarning faoliyati individual faoliyat (masalan, qo‘l ostidagi xodimga psixologik ta‘sir ko‘rsatish), guruhdagi faoliyat (masalan, tenglik asosida kollegial qaror qabul qilish)ning xarakteriga ega bo‘lishi mumkin, lekin ko‘p hollarda bu o‘ziga xos, kamdan kam uchraydigan faoliyat turi bo‘lib, shaxsga bo‘lgan talabni oshiradi. Bunda quyidagilar zarur bo‘ladi:

- yanada yuqori ichki motivatsiya, o‘z xohishiga ko‘ra tashkilot oldida turgan eng murakkab vazifalarni hal qilish istagi va mahorati;

- individual faoliyat va, ayniqsa, mas‘uliyatning bo‘linganligi yoki hatto anonimligi kuzatiladigan guruh faoliyatida bo‘lgandan yanada yuqori mas‘uliyat. Muvaffaqiyatsizlik ro‘y bergan taqdirda butun jamoa, butun tashkilot jabr ko‘rishi mumkin;

- o‘z orkestrining dirijyori bo‘lish mahorati – bu har doim turli xizmatlar va ularning rahbarlari, xodimlari bilan muloqotda bo‘lishni, xotirada katta hajmdagi turli xil, lekin muammolarni hal etish uchun zarur bo‘lgan axborotni saqlagan holda unga bo‘lgan yuklamani oshirishni anglatadi;

- o‘z jamoasi, tashkilotini yangidan taqdim etish, yutuqlarni namoyish qilish, reklama (bu talablarga har doim ham individual va guruh faoliyati darajasida rioya etilavermaydi);

- rahbarning prognostik imkoniyatlariga, kelajakka yoki tashqaridan qarash qobiliyatiga yuqori talablar ("gelikopter effekti");

- agar muvaffaqiyatsizlikka uchralsa, rahbar tez-tez gunohkorga aylanishini yodda tutmoq;

- rahbar shaxsiyatining stressga chidamliligi, axloqiy qiyofasi va huquqiy ongini rivojlantirish darajasi va b.

Boshqaruv faoliyatining umumiy xususiyatlari professional faoliyat turlaridan biri sifatida (V.F.Rubaxinning ilmiy ishlarida eng ko‘p tizimlangan) quyidagi xususiyatlarga ega:

- sotsiotexnik xarakter (texnik va ijtimoiy-ishlab chiqarish tizimlarining bir vaqtning o‘zida boshqarilishi);
- boshqaruv ierarxiyasining turli darajalarida bitta tur doirasida juda ko‘p xildagi faoliyat turlari;



- tez-tez o'zgarib turadigan, ko'pincha qarama-qarshi vaziyat, sharoit etarli bo'lmagan ma'lumot bilan bog'liq faoliyatning ijodiy tabiati; hal qilinadigan boshqaruv vazifalarining yorqin prognostik tabiati;
- o'tkir vaqt tanqisligi sharoitida ko'plab boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish;
- kommunikativ funksiyalarni kuchaytirish.

Rahbarning funksiyalari tarkibiga turli mualliflar quyidagilarni kiritadi:

- ma'muriy, strategik, ekspert-maslahat, kommunikativ-tartibga solish, intizomiy, tarbiyaviy, psixoterapevtik;
- maqsadli, tashkiliy, texnik, ijtimoiy-psixologik, operativ;
- umumiy rahbarlik, rejalashtirish, xodimlarni boshqarish;
- umumiy rahbarlik qiluvchi va maxsus (rejalashtirish-iqtisodiy, texnologiya-boshqaruv va xodimlar);
- jamoaning maqsadini belgilash, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish, nazorat qilish, tarbiyalash vazifalari.

Funksiyalarni tasniflash yagona asosda amalga oshirish to'g'riroqdir. Boshqaruv ob'ekti bunday yagona asos bo'lishi mumkin.

Rahbar faoliyatining psixologik tarkibida uchta asosiy komponentni ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: ijodiy hamkorlik, ya'ni rahbarlik ob'ekti bo'yicha o'zaro boshqaruvchi aloqani ishlab chiqish (qarorlarni qabul qilish); o'zaro tashkilotchilik aloqasi. Uning davomida rahbar ijrochilarda faoliyat vakillarining munosib qiyofasini shakllantiradi va ularning motivatsiya sohasini faollashtiradi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Menejmentda ob'ekt va sub'ekt munosabatlari. Menejment vazifasining tuzilishi: mazmun va mohiyati, faoliyat turi, ob'ekti mehnat taqsimoti
2. Menejment funktsiyasi turkumlari: umumiy, maxsus, tashkiliy, xududiy, tarmoq, ijrochilik, menejerlik.
3. Boshqaruv psixologiyasidagi asosiy tamoyillar. Mehnatga nisbatan ehtiyoj, mas'uliyat va javobgarlik, tartib-intizom, boshqaruvda yakkaboshlik, shaxs va tashkilot manfaatlarining o'zaro uyg'unlik, xamkorlik, qarorlar qabul qilishda va munosabat bildirishda adolatlilik.

### **III- BOB. BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI FANINING METODLARI.**

#### **Boshqaruv psixologiyasida qo‘llaniladigan asosiy metodlar**

Har bir fanda bo‘lgani singari boshqaruv psixologiyasining o‘z metodlari va ularni qo‘llash vositalari mavjud. To‘g‘ri, ularning aksariyati psixologiya va sotsiologiya fanlarida ko‘llaniladigan usullarga yaqin, lekin fanning predmetidagi o‘ziga xosligini hisobga olgan holda ularni ishlatish yo‘llari va ma’lumotlarni ilmiy jihatdan tahlil qilishda farqlar mavjud.

Masalan, umumiy psixologiyada bo‘lgani kabi boshqaruv psixologiyasida ham kuzatish metodi qo‘llaniladi, lekin kuzatuv obekgi konkret shaxsdagi psixik faoliyat emas, balki shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimida bevosita kuzatish mumkin bo‘lgan ijtimoiy xulqidir. Ya’ni, kuzatuvchi aniq oldindan belgilangan reja asosida o‘zi o‘rganayotgan guruhning faoliyatini, verbal yoki noverbal hatti-harakatlarini malum vaqt birligida muttasil kuzatib, olingan malumotlarni qayd etib boradi, bunda zamonaviy audio- va videotexnikadan foydalanish, u yoki bu harakatlarni qayta-qayta qurish orqali kerakli xulosalarni chikarish mumkin. Boshqaruv psixologiyasida qo‘llaniladigan kuzatish metodining asosan uch shakli mavjud:

a) “qo‘shilib kuzatish” - bunda tadqiqotchi kuzatiluvchilar faoliyatiga bevosiga aralashib, zarur holatlarda birgalikda faoliyat yuritadi. Bu usulda eng muhim xususiyat uning tabiiyligi bo‘ulib, kuzatish ob’ektlari o‘zlarining kuzatilayotganliklarini sezmaydilar va kuzatuvchi guruhning azosi sifatida qabul qiladilar. Ushbu shartning buzilishi eksperimentning samarasiz bo‘lishiga olib kelishi mumkin;

6) “tashqi kuzatish” - kuzatiluvchilar faoliyatiga aralashmagan holda ular tashqi xulk-atvorini qayd qilishdir. Bu usul muayyan vaqt va sabr-toqat talab qilishi bilan boshqa metodlardan farq qiladi, bazida qisqa muddat ichida tadqiqotchi o‘zini qiziqtirayotgan predmeg xususida hech narsa, qayd qila olmasligi yoki tasodifan qo‘lga kiritilgan ma’lumot asosida xulosa chiqarishga majbur bulishi mumkin. Shuning uchun ham bu usul boshqa usullarga qo‘shimcha vosita sifatida ishlatiladi;

v) “muhim voqealarni qayd etish” usulida kuzatishning mohiyati shundaki, alohida shaxs yoki guruh kutilmagan, tasodifiy vaziyatga solinadi va ularning vaziyatga munosabati, o‘zini tutishi, ziddiyatli va qiyin holatlardan chiqish yo‘llari kuzatiladi. Masalan, guruhni ataylab oldindan tuzilgan ssenariy yordamida munozarali vaziyatga solish va unda har bir guruh azosini o‘zini qanday tutishi va bayon etgan fikrlarini zikr etish bunga yorqin misoldir.

*Hujjatlarni taqdim qilish* usuli sotsiologiyadan kirib kelgandir. Bu ijtimoiy faoliyatning mahsulini o‘rganishga karatilgan bo‘lib, to‘plangan ma’lumotlarning ishonchliligi, matematika va statistika uslublari yordamida qayta ishlash imkoniyatining mavjudligi sababli ma’lum afzalliklarga ega. Bu usulning yana bir nomi *kontent-tahlil* bo‘lib, tahlil qilinadigan hujjatlar toifasiga asosan og‘zaki (so‘zlangan nutq matnlari, suhbatlarning yozib olingan qismlari, bevosita muloqot jarayonida qayd etilgan manbalar) yoki yozma (rasmiy ) plakatlar, gazeta-jurnallardagi maqolalar, xatlar, manaviy-ma’rifiy adabiyotlar matnlari va shunga o‘xshash) holda tavsiya etilgan ma’lumotlar kiradi.

Kontent-tahlilni qo‘llashda tadqiqotchi oldida turgan asosiy muammo - bu tekshiruv fikrlarni bo‘lishi, kategoriyalarni aniqlashdir. Ko‘plab tadqiqotchilar fikrlarini umumlashgiran holda tahlil qilish uchun uning birliklari quyidagilar bo‘lishi mumkin, deb hisoblanadi:

a) alohida iboralar yoki so‘zlarda bildirilgan tushunchalar (masalan, demokratiya, faollik, tashabbus, hamkorlik va hokazo);

b) yaxlit aʼbzaʼlar, matnlar, maqolalar va shunga o‘xshashlarda ko‘tarilgan mavzular (masalan, millatlararo munosabatlar mavzusi, insonlardagi milliy qadriyatlar, yoshlar ma’naviyati mavzusi va hokazo);

v) tarixiy allomalar, siyosatshunoslar, taniqli shaxslarning nomlari;

g) ijtimoiy hodisa, rasm yoki hujjat, biror aniq fakt, asar (masalan, oilaviy mojarolar, O‘zbekiston Konstitutsiyasining muhokamasi, yangi yozilgan asarga o‘quvchilarning munosabati va shunga o‘xshash),

Yaxshi o‘tkazilgan kontent tahlil - aslida ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda juda muhim ahamiyatga ega. To‘plangan miqdoriy ma’lumotlar matematik statistika

metodlari yordamida qayta ishlovdan o'tkazilmog'i lozim. Kontent - tahlil tadqiqotchidan kattagina o'quvni talab qiladi.

*So'rov metodlari.* So'rov metodlari ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi, ayniqsa, anketa so'rovi va intervyu shular jumlasidandir, Bu metodlarni qo'llashda qator metodologik qiyinchiliklar vujudga keladi, birinchidan, doim shaxslararo munosabatlar, o'zaro ta'sir shakllari mavjud, ikkinchidan, tadqiqotchining sub'ektiv munosabatlarini ham inkor qilib bo'lmaydi, Tadqiqot mobaynida shaxslararo idrok qilish va sub'ektiv bir-birini tushunishga karatilgan barcha qonuniyatlar yashaydi. Shunga qaramay, juda ko'p ijtimoiy psixologik malumotlarni to'plashda surov metodlari eng qo'llanadigan usullar sifatida ishlatib kelinmoqda.

*Intervyu o'tkazish* uchun odam maxsus ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak, chunki u tadqiqotchidan qator muhim shaxs sifatlarining bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada "rolli uyinlar" metodi yordamida psixolog yoki sotsiolog maxsus tayyorgarlik kursidan o'tadi.

*Anketa* metodi hammaga tanish bo'lgan usullardan biri. Lekin ko'pincha anketani o'tkazgan odam uning tuzilishi qanchalik qiyinligini yoki olingan ma'lumotlarni qayta ishlash, ularni to'g'ri sharhlash naqadar qiyin ekan-ligini tasavvur qilmaydi. Anketaga kiritilgan savollar malumotiga ko'ra anketa ochiq va yopiq turlarga bo'linadi. Ochiq anketa respondentdan o'z fikrini erkin bayon etishni talab qiladi, yopiq shakldagi anketa savollari esa javoblari oldindan berilgan bo'lib, tekshiriluvchi o'ziga ma'qul bo'lgan, o'zining qarashlari, fikrlari bilan mos kelgan javobni belgilab beradi. Ochiq savollarning kamchiligi - respondentlarning har doim ham, qo'yilgan vazifaga etarli darajada mas'uliyat bilan qaramasliklari hamda berilgan javoblarni statistik jihatdan ishlov berishdagi qiyinchiliklar bo'lsa, yopiq anketada respondentga tekshiruvchi tomonidan o'z fikriga ergashishga o'xshash holatning mavjudligi yoki har doim ham hamma savolning barcha javob variantlarini topib bilmaslikdadir. Shunday holatlarda respondent yo umuman javob bermasligi yoki "tavakkal" qilib bir variantni belgilab berishi mumkin. Shuning uchun ham keyingi paytlarda yarim yopiq

savollardan iborat anketalar tuzilmoqdaki, ularda javob variantlaridan tashqari qo‘shimcha tarzda fikr bildirish uchun qo‘shimcha qatorlar beriladi<sup>5</sup>.

*Testlar* psixologiyaning maxsus usulidir. Ular qisqa sinov usuli bo‘lib, u yoki bu ijtimoiy psixologik hodisani muddat ichida biror testni qo‘llash orqali tekshiriladi. Testlar asrimizning boshida kashf qilingan bo‘lib, ular 20-30-yillarda hayotga, amaliyotga shunchalik shiddat bilan kirib keldiki, iatijada maxsus soha - psixometrika yuzaga keldi. Testlarni qo‘llashning qulaylik tomoni shundaki, bir test yordamida ma’lum bir ob’ektning-bir ob’ektning u yoki bu xususiyatini bir necha marta, takror-takror sinab ko‘rish mumkin. Lekin ularni universal deb bo‘lmaydi, chunki u yoki bu testni faqat qanday turdagi ob’ektda sinalgan bo‘lsa, shunga o‘xshash ob’ektlardagina qo‘llash mumkin, kolaversa, bunda olingan ma’lumotlar nisbiy harakterga ega bo‘ladi. Biroq shunday bo‘lishiga qaramay, testlar, ayniqsa hozirgi kunlarda hayotimizga keng kirib keldi. Shaxs xususiyatlarini tekshiruvchi testlardan tashqari, shaxsning muloqot tizimidagi o‘rnini, undagi muloqot malakalarining bor-yuqligini sinovchi, shaxs aqliy sifatlarini tekshiruvchi testlar keng qo‘llanilmoqda. E’tirof etish kerakki, testni tuzish, uni ob’ektlarda sinovdan o‘tkazish, hattoki, tayyor testni moslashtirish yuksak bilimlarni, malakani, olimlik odobini talab kiladigan ishdir. Masalan, ingliz olimi Kettell shaxs sifatlarini sinovchi testini ishlab chiqish uchun odamdagi 4,5 mingga yaqin sifatlarini o‘rganishdan boshlagan edi. Ana shulardan ekspertlar yordamida 171 juft dixotomik sifatlarini ajratdi (masalan, kamtar—maqtanchoq, bosiq—tez va shunga o‘xshash). Nihoyat, ular ichidan eng ishonchlilari tanlab olindiki, oxir-oqibat 21 xil shaxs xususiyatlaridan iborat sifatlar kompleksi tanlandi va shular asosida mashhur Kettell testi paydo bo‘ldi. Uning yordamida asosan shaxsdagi introversiya, ekstroversiya, faollik, reallilik, ziyraklik darajasi va boshqalar sinaladigan bo‘ldi.

Testlar xususida yana shuni aytish mumkinki, har bir testning o‘z “kaliti” bo‘ladi va bu kalitning egasida maxsus litsenziyalar, ya’ni kelishuvga ko‘ra ishonchli shaxslar-gagina sotish, berish xuquqi bo‘ladi. “Kalitsiz” esa maxsus testlarni hech kim ishlata olmaydi.

---

<sup>5</sup> David G. Myers «Social Psychology», 7th ed., 2002

## *Boshqaruv psixologiyasida Ijtimoiy psixologik eksperiment.*

Ijtimoiy psixologik eksperiment-bu ijtimoiy hodisalarni o'rganish maqsadida tekshiruvchi bilan tekshiriluvchi o'rtasidagi maqsadga qaratilgan muloqotdir. Barcha muloqotning bo'lishi uchun eksperimentator, ya'ni tekshiruvchi maxsus sharoit yaratadi va ana shu sharoitda aniq reja asosida faktlar tuplaydi. Umumiy psixologiyada bo'lgani kabi, ijtimoiy psixologiyada ham tabiiy va laboratoriya eksperimenti turlari farqlanadi. Tabiiy eksperimentga misol qilib, rus pedagogi A. Makarenkoning jamoaning shakllanishi va uni uyushtirish borasida olib borgan tadqiqotlarini olish mumkin. Amerikalik psixolog M. Sherif esa guruhlararo munosabatlarga taalluqli fenomenlarni tabiiy sharoitlarda maxsus reja asosida tekshirib o'rgangan. Uning asosiy maqsadi vaqtinchalik tuzilgan jamoa - yozgi ta'til lagerlarida turli ziddiyatlarning paydo bo'lishidagi psixologik sabablarni o'rganishdan iborat edi.

Laboratoriya eksperimenti odatda maxsus sharoitlarda, maxsus xonalarda, kerakli asbob-uskunalar yordamida o'tkaziladi. Birinchi marta laboratoriya sharoitida ijtimoiy psixologik tadqiqotni rus olimi Bexterev o'tkazgan edi. U maxsus asboblar yordamida idrokning aniqligini, xotiraning sifatini, kuzatuvchanlik xususiyatlarini yakka holda va guruh sharoitida solishtirib o'rgandi hamda guruhning borligi har bir guruh a'zosi psixik jarayonlariga bevosita ta'sir etishini isbot qildi.

Laboratoriya eksperimenti keyinchalik B.G. Ananov, Ye.S. Kuzmin, V.S. Merlin, V.N. Myasishev, L.I. Umanskiy va boshqalar tomonidan yanada takomillashtirildi va ijtimoiy psixologiyada apparatura uslubi keng qo'llanila boshladi. Masalan, F.D. Gorbov va M.A. Novikovlar tomonidan gomeostat, L.I. Umanskiy tomonidan yaratilgan guruh uchun integratorlar paydo bo'ldi va amaliyotda bir guruh hodisalarni tekshirishda keng ishlatila boshladi. Masalan, guruh gomeostat guruhi tashkil etuvchilar o'rtasida harakatlardagi moslikning bor-yo'qligini tekshiradi. Bu moslamaning mohiyati shuki, guruh a'zolari yumaloq stol atrofida o'tiradilar, har bir qatnashuvchi ro'parasida tablo o'zi xohlagan tomonga burishi mumkin bo'lgan strelka bo'lib, tekshiruvchi har birining harakatini kuzatib turadi. Lekin ularga topshiriq quyidagicha beriladi: "Siz strelkani shunday buringki, sizning harakatingiz boshqalarnikiga mos bo'lsin, aks holda, sizning beparvoligingiz tufayli butun guruh

jazo oladi”. Agar guruhda hamjihatlik bir-birini tushunish bo‘lsa, ular tezda o‘zaro kelishib olib, xatolarni minimal qiladigan bo‘lib qoladilar, shu jihatdan turli guruhlar turlicha xulq-atvor namoyon qilishi, bunda guruhning muloqot tajribasi, guruh peshqadamining qobiliyatlari etakchi rol o‘ynashi eksperimental tarzda isbotlanadi.

Bundan tashqari, maxsus asbob-uskunalar yordamida guruh a‘zolaridagi ishonuvchanlik—konformizm hodisalarini ham eksperimental tarzda o‘rganish mumkin. Guruhdagi umumiy ishonuvchanlikni, guruh tazyiqini o‘rganish uchun esa auokinetik effekt beruvchi moslamalardan foydalaniladi. Bunda yonib turgan nuqta qorong‘ida avval alohida tarzda guruh a‘zolariga ko‘rsatiladi, keyin esa guruh sharoitida, maxsus tayyorlab qo‘yilgan odamlar orqali kishilar fikrining qanchalik o‘zgarishi tekshiriladi.

*Proektiv metodlar.* Bu usullar test usullarining bir ko‘rinishi bo‘lib, unda tekshiriluvchiga aniq tizim yoki ko‘rinishga ega bo‘lmagan, noaniq narsalar tavsiya etiladi va ularni sharhlash topshirig‘i beriladi. Ya‘ni, tekshiriluvchiga turlicha talqin qilish mumkin bo‘lgan rasmlar, tugatilmagan hikoyalar, biror aniq ko‘rinishga ega bo‘lmagan buyumlar, yog‘ochlar berilishi mumkin, ularga qarab tekshiriluvchi o‘zining hissiy dunyosi, qiziqishlari, dunyoqarashi nuqtai nazaridan baho berishi mumkin.

Proektiv usullarga mashhur “Rorshaxning siyoh dog‘lari” testini kiritish mumkin (1921 i.). Bu dog‘lar ikki tomonlama simmetrik shaklda berilgan 10 xil dog‘lardan iborat bo‘lib, har bir dog‘ har xil bo‘yoqli fonda ko‘rsatiladi. Tekshiriluvchidan har bir “dog” ning n i m a n i eslatayotganligini aytish so‘raladi. Uning og‘zidan chiqqan so‘z-lar, assotsiatsiyalarga qarab (ularni kontent-analiz qilib) shaxs xususiyatlari haqida xulosa qilinadi.

Yana bir proektiv usul—bu S. Rozensveygning rasmlari assotsiatsiyalar usulidir. Bunda hayotda tez-tez uchrab turadigan ziddiyatli vaziyatlarni aks ettirgan rasmlar tekshiriluvchiga tavsiya qilinadi. Bu rasmlarda bir tomonda turgan personajlar nimalarnidir gapirayotgan holda gavgdalantiriladi, unga qarshi tomondagi shaxs esa hali javob qaytarib ulgurmagan, tekshiruvchi tekshiriluvchidan tez, qisqa muddat ichida bo‘sh kataklarga berilishi mumkin bo‘lgan javobni yozishni so‘raydi. Berilgan javoblarga qarab shaxsning yo‘nalishi, uning ziddiyatlarga munosabati, agressiya-

jaholat hissining xususiyatlari, bu hisning kimlarga qaratilganligi va shunga o'xshash muhim faktlar to'planadi.

“Tugatilmagan hikoyalar” ham guruhdagi va yakka shaxslarning qarashlari, ulardagi psixologik yo'nalishlarni o'rganishda ancha qo'l keladigan usuldir. Ularda shaxsning o'ziga, atrofdagilarga, jamoaga munosabatlari aniqlanadi. “Mening hayotiy intilishlarim...”, “Mening kayfiyatimni buzilishiga sabab, odatda...” va shunga o'xshash iboralarning davomi yozilib, tugatilishi taklif etiladi.

Shunday qilib, ijtimoiy psixologiya hozirgi kunda juda ko'p metodlarga ega, biz tanishib chiqqan metodlar ularning asosiylari, bir qismi, xolos. Har bir tadqiqotchi o'z tadqiqot ob'ektining xususiyatlari, tadqiqot maqsadi va mavzuiga qarab kerakli uslubni tanlaydi. Bunda metodlar to'plami bilan to'laligicha tanishish uchun maxsus adabiyotlar bilan ham tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir

Boshqaruv **usullari** bu belgilangan maqsadlarga erishish uchun boshqariladigan ob'ektga ta'sir qilishning usullari va yo'llari to'plamidir. Quyidagi asosiy boshqaruv usullari mavjud: tashkiliy-ma'muriy usullar; iqtisodiy usullar; ijtimoiy-psixologik usullar; evristik usullar.

Boshqaruvning *tashkiliy-ma'muriy usullari* jamoa ishining aniq, intizomli va tartibli bo'lishini ta'minlaydi. Rahbar bu usullarni ma'mur sifatida, hokimiyat sub'ekti sifatida mehnat va xo'jalik qonunchiligining huquqiy hujjatlariga asoslangan holda qo'llaydi. Ushbu usullardan foydalanishning asosiy maqsadlari: mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solish, qonuniylikni mustahkamlash, korxon va uning xodimlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.

Ko'plab olimlar, jumladan, rossiyalik ijtimoiy psixologlar oxirgi yillarda rus psixologi A.N.Leontevning faoliyat konsepsiyasiga tayangan holda, liderlikni faoliyat mahsuli, guruhning ushbu faoliyatga munosabati va guruhda qabul qilingan normalar va ijtimoiy kutuvlarga kim ko'proq javob berishiga qarab liderni aniqlash mumkin, deb hisoblashmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy kutuvlar nazariyasi hozirda ko'pchilik tomonidan ma'qul yondoshishlardan biri deb qabul qilinmoqda.

XXI asrda ko'plab qadriyatlarga munosabat o'zgargani sir emas. Shular qatorida insoniy munosabatlar, odamlar faoliyatini demokratik o'zgarishlar sharoitida boshqarish masalalariga nisbatan ham qarashlar birmuncha o'zgardi. Ijtimoiy psixologiya, boshqaruv asoslari, menejment sohasida chop etilayotgan yangi davr adabiyotida rahbarlik san'ati va mahoratiga biznes manfaatlar nuqtai nazaridan

yonlashish an'anaga aylangan. Ma'lumki, xorijiy mamlakatlarda boshqaruv ishlariga mas'ul bo'lgan kishilarni yuqorida ta'kidlaganimizday «lider» deb atashadi. Aynan shu atama odamlar orasida yurib, obro' topgan, gapi, fikrlashi, ish tutishi va o'zgalarga ta'sir ko'rsata olishi bilan ajralib chiqqan shaxs uchun ham qo'llaniladi. Shu ma'noda Amerika Prezidenti ham lider, atrofiga bir norasmiy guruh to'plagan xali hech qanday rasmiy maqomi yo'q kimsa ham o'sha unga ergashuvchilar uchun lider hisoblanadi. Lekin amerikalik olim Linda Juellning «Industrialno-organizatsionnaya psixologiya» nomli kitobida boshqa bir olimlar Mans va Simslar tomonidan ishlatilgan yana bir tushunchada liderlik fenomeni yuqoriroq bosqichda o'rganilgan. Bu – «superlider» tushunchasidir.

Superlider kim va qachon oddiy lider superga aylanadi? Mans va Simslarning fikricha, eng yaxshi lider – bu «superliderdir». Bu shunday shaxski, u o'z xodimlarining aksariyatini liderlarga, birinchi navbatda o'zlari uchun liderlarga aylantira oladi. Bunday asosiy g'oya shundan iboratki, agar odam eng **avvalo o'zi uchun lider bo'la** olsagina, o'zidagi bu malaka yoki mahoratni boshqalarga etkaza olsagina, bu odam vaqti-saoti kelib o'zi boshqarayotgan jamoani o'zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepasida turib boshqarib turadigan insonga muhtoj bo'lmaydigan mexanizmga aylantiradi. Bu jarayonning sub'ekti - superliderdir.

Olimlar oddiy rahbar yoki liderning superliderga aylanishini bir necha bosqichlarda kechashini ta'kidlaydilar:

I – bosqich: dastlab inson, ya'ni, bu o'rinda lider-rahbar o'zi uchun lider bo'lishi, ya'ni shaxsiy maqsad va maslaklar, o'zini o'zi kuzatish, o'zini o'zi rag'batlantirish, hayoliy mashqlar va kognitiv tahlillar orqali o'zining mustaqil inson, shaxs ekanligini, o'zida boshqalarga o'rnak bo'luvchi sifatlar borligini anglashi va kamchiliklarini bartaraf eishga qodir bo'la boradi;

II – bosqich: lider yuqorida qayd etilgan o'zidagi fazilatlarning afzalliklarini o'zgalarga namoyish etib, aynan shunday sifatlar sohibi bo'lishning afzallik tomonlariga xodimlarni ishontiradi;

III – bosqich: xodimlariga o'zlarida tashabbus va o'ziga ishonchni namoyon etish uchun sharoit yaratadi, tashabbuslar ko'rsatilishini tinimsiz rag'batlantiradi;



IV – bosqich: mustaqil qobiliyat egasi bo‘lgan xodimlarni rag‘batlantirish, kerak bo‘lganda, faqat konstruktiv tanbehlar berish yo‘liga o‘tib oladi;

V – bosqich: o‘z-o‘zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va ishlarga xadeb aralashaverishdan o‘zini tiyish yo‘lining afzalliklariga o‘zini ishontiradi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, samarali boshqaruv – aslida ijtimoiy ta’sirni amalga oshirishning eng namoyishkorona ko‘rinishidir. Shu ma’noda, liderlik – avval shaxsning o‘ziga, so‘ngra o‘zgalarga bera oladigan ta’sirida ko‘rinadigan fazilatlar majmuidir, deb ta’riflanadi.

Demak, superliderlik g‘oyasining asosida yotgan muhim fazilat – bu rahbarning o‘zgalarga tashabbuslarni namoyish etishlariga imkoniyat yaratishdir. Tashabbuslar ko‘rsata olish va unga yaratilgan imkoniyatlar haqida ham ilmiy adabiyotlarda ko‘p yozilgan. Masalan, amerikalik mashhur psixolog Deyl Karnegining ta’kidlashicha, asr boshida amerika dollarida hisoblaganda yiliga bir milliondan ortiq daromadli boshqaruvchilar ikki kishi bo‘lgan. Ulardan biri Uolter Kraysler va ikkinchisi – Charlz Shveblardir. Amerika cho‘yan quyish industriyasining etakchilaridan bo‘lgan Erdryu Karnegi Shvebga odamlarni yaxshi ishlatib, korxonada daromadini keskin oshirib yuborganligi uchun kuniga uch ming dollar, yiliga bir million dollar to‘lar ekan. Lekin ana shu millionerning o‘z esdaliklarida qoldirgan so‘zlari e’tiborga loyiqdir: «Men cho‘yan quyish borasida eng oddiy ishchidan ham no‘noq edim, asosiy yutug‘im – men o‘zgalarni boshqarishni bilganman. Mendagi eng noyob sifat – **odamlarda tashabbusni uyg‘otish** qobiliyati edi. Chunki insondagi eng noyob, qimmatli narsani tan olish – uning tashabbusini qo‘zg‘atishdir». Erdryu Karnegi esa umrining oxirida o‘zining qabr toshiga «Bu erda bir umr o‘zidan aqlliroq bo‘lganlarni o‘ziga bo‘ysundira olgan inson yotibdi» deb yozib qo‘yinglar deb vasiyat etgan. Demak, Shvebning rahbari ham o‘z yo‘lida xodimlar psixologiyasini yaxshi bilgan va ularga o‘z vaqtida tashabbus ko‘rsatish imkonini bera olgan kamtar shaxs bo‘lgan.

Demak, bozor iqtisodiyoti sharoitida odamlar nima hisobiga samaraga erishish mumkinligi-yu, o‘zidan nima talab qilinishini aniq bilsa, ular uchun mustaqil ishlash, ishga ijodiy yondashish imkoniyati ko‘proq bo‘ladi va yangi asr odami o‘zi uchun erkin faoliyat qonunlanishini kafolatlanishini ma’qul ko‘radi.

Shu o‘rinda barcha liderlarga xos bo‘lgan yana bir xislatni ta’kidlash joiz. Bu ham bo‘lsa, liderning obro‘si yoki ba’zan tarjimasiz ishlatiladigan ibora bor – avtoriteti. Liderning avtoriteti – bu kerak bo‘lsa, qobiliyat. Chunki avtoritet unga ma’lum amalda o‘tirgani, ma’lum sanksiyalar, imtiyozlar, imkoniyatlarga ega bo‘lgani uchun rasman berilgan bo‘lishi mumkin. Shunisi borki, rahbar avtoriteti hamisha bir shaxsning ikkinchi shaxsga nisbatan hissiy-irodaviy ta’sirini nazarda tutadi. Eng yomoni agar odamdagi tashabbus bo‘g‘ilsa, u o‘z oldiga maqsadlar qo‘ymaslikka o‘rganib qolsa, u nafaqat xalq uchun qayg‘urmaydigan, balki o‘zining oilasi, yaqinlari, farzandlari uchun ham qayg‘urmaydigan, ular tashvishlarini o‘ylamaydigan bo‘lib qoladi. Bugungi yangilanishlar sharoitida milliy-madaniy an’analarimizni hisobga olganda ham boshqaruvda gumanistik tamoyillarga keng yo‘l ochish orqali fuqarolarda mustaqil fikr, fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlikning bo‘lishi qanchalik ahamiyatli ekanligini yaxshi bilamiz. Shuning uchun ham yangi avlod rahbarlariga, boshqaruvchilariga qo‘yiladigan talablar, ular xulqidan kutiladigan sifatlar jamiyatda sog‘lom insoniy munosabatlarning barqarorlashuvi, sog‘lom raqobat va o‘zaro bag‘rikenglik, lekin ishda o‘ziga va hamkasblariga nisbatan talabchanlikni taqozo etadi.

«Kollektiv» so‘zi inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib butunlik, jamoa degan ma’noni bildiradi. Ishlab chiqarish jamoasi deganda esa korxonalaridagi rahbarlardan tortib oddiy ishchilargacha tushuniladi.

Ishlab chiqarish jamoasi korxonada faoliyatini samarali olib borishga bevosita ta’sir etadi. Korxonada rahbari jamoa boshlig‘i hisoblanib ish faoliyatini boshqaradi, hamda uni qay darajada olib borayotganini nazorat qiladi.

Jamoa orasida to‘g‘ri va teskari aloqa mavjud bo‘lib, rahbar xodim jamoa orasida har bir xodim bilan bo‘lgan aloqasi to‘g‘ri aloqa deyiladi, ya’ni ularning ish vaqtidagi, oila sharoitidagi holatlaridan xabardor bo‘lgan holatda muloqotda bo‘ladi.

Jamoa doimo bir-birlari bilan oqil, birdamlik, o‘zaro yordam prinsiplariga asoslangan holda aloqada bo‘ladi.

Mehnat jamoasining tarkibiga maqsadlarning birligi, o‘rtoqlarcha hamkorlik, o‘zaro yordam munosabatlari bilan birlashgan jamiyat o‘z ixtiyoriga berib qo‘ygan zahiralardan jamiyat barcha a’zolarining farovonligini oshirish va har tomonlama

kamol topish manfaatlari yoʻlida birgalashib foydalanish yoʻllari bilan zimmlariga yuklangan vazifalarni hal qilish uchun oʻzlarining kuch gʻayratlarini ongli ravishda yoʻnaltiruvchi xodimlar kiradi.

Jamoda xodimlar ishlab chiqarish jarayonini bevosita amalga oshiradilar. Ishlab chiqarish jamoasi moddiy boyliklarni vujudga keltirish bilan bevosita mashgʻul boʻlgan kishilarni birlashtiradi.

Ishlab chiqarish jamoalarini rivojlantirishni kompleks rejalashtirish jamoaning sotsial strukturasi progressiv oʻzgarishlar qilishga, mehnat sharoitini takomillashtirishga, xodimlarning maʼlumoti va malakasini oshirishga, ularning sotsial-madaniy va uy-joy maishiy sharoitlarini yaxshilashga, ularga oliy darajada xizmat koʻrsatish, ishchilarni huquqiy muxofaza qilishga rahbar javobgar hisoblanadi

Mehnat jamoasi ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida qatnashar ekan, eng kam sarf harajat qilgan holda sifatli maxsulot ishlab chiqarishga, muayyan ish xajmini bajarishga intilmogʻi zarur.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish korxonalarining mehnat faoliyatini faollashtirishga hamda boshlangʻich ishlab chiqarish boʻgʻinlari-uchastkalar va sexlarni boshqarishni takomillashtirishga koʻp jihatdan bogʻliq boʻlib, ustalar bu vazifani hal qilishda muhim rol oʻynaydilar.

### ***Guruhda axborot almashinuv jarayoni tahlili***

Axborot almashinuvini tashkil etishda tashkilotda rasmiy va norasmiy aloqa kanallari ajratib turadi. Rasmiy aloqa kanallari maʼmuriy ravishda rasmiy tashkiliy tuzilishga muvofiq oʻrnatiladi va odamlarni vertikal va gorizontalar ravishda ishchilar jamoasiga bogʻlaydi. Albatta rasmiy oqimlar hech qachon mehnat jarayoni ishtirokchilarining ehtiyojlarini qondirmasligi aniq, chunki ijtimoiy aloqalar sof rasmiy doirada cheklanmaydi. Norasmiy aloqa kanallari - bu tashkilot doirasidan tashqariga chiqadigan va rasmiy ravishda oʻrnatilgan kanallarga mos kelmaydigan kanallardir.

Koʻpincha norasmiy maʼlumotlar rasmiy maʼlumotlardan oldinda, baʼzida uyqu aralash mish-mishlar darajasida, yaʼni etarlicha ishonchlilik mavjud emas. Biroq, normal faoliyat koʻrsatadigan jamoalarda har doim rasmiy yoki norasmiy maʼlumot

oqimlarining ma'lum bir muvozanati mavjud bo'lib, u yoki boshqasining ustunligi kuzatiladi.

Aloqalarning yana bir taqsimoti ko'rinishi - pastga va yuqoriga qarab. Yuqoridan pastga yo'naltirilgan ma'lumot - bu "yuqoridan pastga", ya'ni boshqaruvdan bo'ysunuvchilarga, boshqaruvning yuqori eshelonlaridan pastki eshelonlariga yo'naltirilgan ma'lumot. Ko'tarilish pastdan yuqoriga, mehnat jarayonining bevosita ishtirokchilaridan menejerlarga, o'rta va katta menejerlarga yo'naltirilgan ma'lumotlardir.

*Ma'lumotlarning etishmasligi*- bu bizning tashkilotlarining an'anaviy kasalligi. Ko'pincha, menejment to'liq ma'lumot bermaydi, uni maxfiylashtiradi, garchi bunga hech qanday ehtiyoj bo'lmasada. Psixologik tomondan, yuqoridan etarli ma'lumot ololmaydigan ishchilar o'zlarini xavfli va hatto xo'rangan his qiladilar.

Davlat tashkilotlarida bu-hokimiyat muammosidir, yangi tijorat tashkilotlarida bu - hali tartibga solinmagan munosabatlarning qismi, garchi axloqsiz maqsadlar uchun biror narsani yashirish maqsadga muvofiq emas. Amaliyotda har ikkala oqimning pastga va yuqoriga qarab muvozanatini saqlashga harakat qilish kerak, shunda ular munosabatlardagi keskinlikni keltirib chiqarmaydi, balki umumiy muammolarni hal qilishda o'z hissalarini qo'shadilar.

Bundan tashqari, ichki kommunikatsion tarmoqlar markazlashtirilgan va markazlashtirilmaganga bo'linadi. Markazlashtirilgan boshqaruv tashkilotlarida barcha aloqalar guruh rahbari yoki lideri bilan yopiq, markazlashtirilmagan boshqaruv tashkilotlarida u ko'proq yoki kamroq tashkilotning barcha a'zolari o'rtasida teng taqsimlangan. Markazlashtirilgan tarmoqlar, markazlashtirilmagan tarmoqlarga qaraganda, nisbatan oddiy muammolarni yaxshiroq hal qilishga yordam beradi, ammo murakkab muammolarni hal etish samaradorligiga xalaqit beradi, shuningdek garchi ular liderlikni rivojlantirishga hissa qo'shsa ham guruh a'zolari orasida ishdan qoniqishni va guruhlar jipsligini kamaytiradi.

Kommunikatsion modellarning boshqa ko'plab variantlari mavjud. Haqiqiy hayotda aloqa tarmoqlari va modellarining yanada ko'proq turlari mavjud. Amerikalik mutaxassislar tadqiqotlariga asoslanib, tashkilot ichidagi to'rtta "kommunikator" turlarini aniqladilar:

1. "Qo'riqchi" - boshqa xodimlarga ma'lumot oqimini boshqaradigan xodim. Odatda, bu rolni kotiblar, dispetcherlar, telefon almashinuvi operatorlari va boshqalar o'ynaydi.

2. "Fikrlar rahbari" - ba'zi odamlarning ustanovka va hulq-atvoriga ta'sir qiluvchi shaxs. Ko'pincha norasmiy lider bo'lib, uning fikrlari rasmiy fikrga zid keladi.

3. "Bog'langan" - ikki yoki undan ortiq guruhlar o'rtasida bog'liqlik vazifasini bajaradigan kishi. Haqiqiy xabarchi ma'lumotni ob'ektiv ravishda etkazish uchun o'zini har bir guruhdan uzoqlashtirishga intiladi.

4. "Chegara qo'riqchisi" - tashkiliy muhit bilan yuqori darajada aloqada bo'lgan shaxs. Kommunikativ tuzilmani optimallashtirish jamoa ichidagi aloqalarni faollashtirish va ularni boshqarishda muhim element hisoblanadi.

Kommunikativ tuzilishga qo'shimcha ravishda, har bir jamoa ta'sir, kutish va simpatiya tuzilmalarini ham ajratib turadi.

Ta'sir tuzilishi xuddi shu guruhga mansub ikki toifadagi kishilarning - o'z istaklarini e'lon qilganlarning va ushbu istaklarni amalga oshiruvchilarning o'zaro munosabatlari asosida shakllanadi. Jamoada deyarli har doim boshqalarga o'zlarining irodasini yuklaydigan odamlar va shuningdek, har doim itoat etadigan insonlar toifalari mavjud. Buni guruh mustaqil topshiriqni bajarayotganda yoki ular aytganidek mos ssenariyni o'ynayotganida kuzatish mumkin.

*Kutish tarkibi* ma'lum bir vaziyatda guruhning ayrim a'zolaridan qanday xulq-atvorni kutish kerakligi to'g'risida guruhning bitta (bir oz yoki undan katta) qismining konsensusi tufayli yuzaga keladi. Bu kutish, ayniqsa guruh a'zolarining xatti-harakatlariga ma'qullashda, salbiy yoki neytral reaksiyalarda seziladi. Ba'zan hatto laqablar ham bu yoki bu a'zoning guruhda qanday rol o'ynashini va guruh undan nimani kutayotganligini aniqlashga imkon beradi.

*Simpatiyaning tuzilishi* shundan iboratki, guruh a'zolari bir-birlariga turli darajadagi xayrixohlik, antipatiya yoki befarqlik bilan munosabatda bo'lishadi. "*Sotsiometrik testlar*" yordamida guruh ichidagi yoqtirish va yoqtirmaslik holatlarini aniqlash usullari juda yaxshi ishlab chiqilgan. Bu "*yulduzlar*" va "*autsayderlar* (chetda qolganlar)" nisbatan bo'lgan simpatiya va antipatiya, diqqatni jalb qilish va rad etishning "*o'lchovlari*"ga, ya'ni guruh a'zolari tomonidan ko'pchilik tomonidan

tanlangan va umuman tanlanmagan shaxslarga rad etishni aniq ifodalab beradi. Ko‘pincha har bir guruhda nisbiy mustaqillikni saqlaydigan kichik guruhlar aniqlanadi, ammo ular umumiy tuyg‘u va "Biz" bilan bog‘lanadi.

Shunday qilib, tashkilotning ijtimoiy-psixologik tuzilishi murakkab tizimdir. Guruhning muhim xususiyati uning kattaligiga, tarkibiga, tuzilishiga bog‘liq bo‘lgan uning a‘zolarining aloqadorligidir. Tashkilotda norasmiy guruhlarining mavjudligi rahbariyat o‘zaro munosabatda bo‘lib, ulardan tashkilot maqsadlariga erishish uchun foydalanishi lozim. Jamoaning kelishilgan holda ishlashi, barcha vazifalarni raqobat muhitida muvaffaqiyatli hal etish uchun har bir a‘zoning ijtimoiy-psixologik muhitga va jamoa farovonligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan kommunikativ tuzilmani doimiy sifatli tuzatish bilan bog‘liqdir.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Guruh, tashkilot, jamoa tushunchalarini tahlil qilib bering?
2. Tashkiliy boshqaruv muammolarini ishlab chiqishda amerikalik muhandis F. Teylor, fransuz sanoatchisi Anri Fayollar, amerikalik ijtimoiy psixolog Elton Meyo konsepsiyalarini tushuntirib bering.
3. Guruhning samarali faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi omillarni sanab bering.
4. Boshqaruv nuqtai nazaridan kichik ijtimoiy guruhning eng keng tarqalgan xususiyatlarini ta‘riflang..
5. Ingliz menejment mutaxassilari M. Vudkok va D. Frensislarning jamoalarning samarali faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qiluvchi eng tipik omillarni deb qaysi omillarni izohlagan?
6. Mehnat jamoasining tarkibiy qismlarga ko‘rsatib bering
7. Amerikalik mutaxassislar tadqiqotlariga asoslanib, tashkilot ichidagi to‘rtta "kommunikator" turlarini aytib bering
8. Kommunikativ tuzilishga qo‘shimcha ravishda, har bir jamoadagi ta‘sir, kutish va simpatiya tuzilmalari trakibi izohlang?

## **VIII- BOB. PERSONALNI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.**

### **Tashkilotlar faoliyatini va personalni boshqarishning ijtimoiy psixologik jihatlari**

Yaqin paytlargacha bizning boshdaruv amaliyotimizda «personalni boshqaruv» tushunchasi bulmagan. Tugri, har bir tashkilotning boshkaruv tizimi kadrlarni boshqaruv va jamoani ijtimoiy rivojlantirish funksional duyi tizimiga ega bulsa-da, biroq bu ishlarning katta dismini bulinma radbarlari amalga oshirardi. Tashkilotda kadrlarni boshqaruv buyicha asosiy tarkibiy bulinma xodimlar bulimi xisoblanadi, uning zimmasiga xodimlarni ishga olish, ishdan bushatish, shuningdek, xodimlar udishini tashkil dilish, malaka oshirish va dayta tayyorlash buyicha vazifalar yuklatilgan. Zamonaviy tadqiqotlarning kursatishicha, xodimlar bulimlari kadrlar bilan ishlashning na uslubiy, na axborot va na muvofidlashtiruvchi markazi xisoblanadi. Ular ish haqi va mehnatni tashkil qilish, mednat mudofazasi va texnika xavfsizligi, yuridik bulim va kadrlarni boshkarish funksiyalarini bajaruvchi boshda bulinmalar bilan tuzilmaviy jidatdan ajratilgan. Tashkilotlarda ijtimoiy muammolarni dal etish uchun ijtimoiy taddidot va xizmat kursatish bulimlari tashkil etiladi. Personalii boshqaruv xizmatlari qoidaga kura quyirod tashkiliy maqomga ega bulib, professional jihatdan ham zaifroq sanaladi. Shu sababli, ular personalni boshqaruv va ularning ishlashi uchun normal sharoitlar ta'minlash buyicha bir qator vazifalarni bajarmaydi. Kuyida ularning eng muximlari kursatilgan:

- (a) ijtimoiy-psixologik diagnostika;
- (b) xodimning gurux va ma'muriyat urtasidagi munosabatini taxdil dilish va tartibga solish;
- (v) ishlab chidarish va ijtimoiy mojarolarni boshqaruv;
- (g) xodimlarni boshqaruv tizimining axborot ta'minoti;
- (d) bandlikni boshqaruv;
- (e) bush lavozimlarga nomzodlar tanlash va baxolash;
- (j) salodiyatli xodimlarga bulgan extiyojni taxdil dilish;
- (z) ishbilarmonlik karerasini rejalashtirish va nazorat dilish;

(i) xodimlarning professional va ijtimoiy-psixologik moslashuvini urganish; (y) mednat motivatsiyasini boshqaruv;

(k) mednat munosabatlarining dududiy masalalari taxdil etish.

Agar ma'muriy-buyrudbozlik tizimi davrida bu vazifalar ikkinchi darajali masala sifatida kurib chidilgan bolsa, bozor munosabatlariga utishda esa, ular birinchi uringa chidib oldi. Tashkilotni rivojlantirish strategiyasiga kura bugungi kunda dar bir tashkilot bu vazifalarni dal dilishdan manfaatdor.

### **Personalni boshqarishga tasir kursatuvchi omillar**

Mamlakatimiz iqtisodiy va siyosiy tizimlardagi islohotlar bir vaqtning uzida dar bir shaxe uchun katta imkoniyatlar eshigini ochishi barobarida, ularning barqarorligaga ma'lum darajadagi xavf-xatarni dam tugdirmodda. Bunday vaziyatlarda personalii boshqaruv alodida adamiyat kasb etib, tashkilotda kishilarga ta'sir kursatuvchi uchta asosiy omilga alodida diddat-e'tiborni daratish madsadga muvofid sanaladi. Birinchi omil - tashkilotning ierarxik tuzilmasi, ya'ni undagi asosiy ta'sir vositasi bu - hukumat munosabati - bo'ysunish, yuqoridan bosim ko'rsatish orqali faoliyatga majburlash, moddiy ne'matlar taqsimotini nazorat qilish. Ikkinchi omil - madaniyat, ya'ni jamiyat, tashkilot, kishilar guruhi tomonidan ishlab chiqiluvchi hamda shaxsning xfrakatlarini tartibga solib, tashki muhit ta'sirisiz o'zini munosib tarzda tutishga undovchi qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar xanda xulq-atvor ko'rsatmalaridir. Uchinchi omil - bozor - mahsulot va xizmatlar oldi-sotdisi, mulkchilik munosabatlari, sotuvchi va xaridor manfaatlari muvozanatiga asoslangan teng xukudli munosabatlar tarmogi. Ushbu ta'sir ko'rsatish omillari juda murakkab tushunchalar bo'lib, amaliyotda kamdan-kam xollarda bir-biridan alohida ravishda qullanadi. Ulardan birontasi qanchalik ustuvor bo'lsa, tashkilotdagi iqtisodiy vaziyat qiyofasi ham shunday bo'ladi. Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishda sekin-astalik bilan ierarxik boshqaruv, ma'muriy ta'sir ko'rsatishning qatiy tizimi va amalda cheklanmagan ijroiya hukumatidan iqtisodiy usullarga asoslangan bozor va mulkchilik munosabatlariga utish ruy beradi. Shu sababli mutaxassislar dadriyatlar ustuvorligini ta'minlovchi tamomila yangi yondashuvlarni ishlab chidish zarur. Tashkilot ichida asosiysi ishchilar



hisoblansa, tashqarida esa, mahsulot iste'molchilari sanaladi. Xodimning ongini raxbarga emas, iste'molchiga Xodimning ongini raxbar urniga bevosita iste'molchiga, ishni tavakkal bajarishga emas, balki tashabbuskorlikka yunaltirish zarur. Shu bois, tashkilot boshqaruvi sog'lom iktisodiy fikrga asoslangan ijtimoiy me'yorlar asosida tashkil etilishi lozim. Ierarxiya ikkinchi o'ringa tushib, o'z urnini bozor madaniyatga bushatib beradi. Personalni boshqarish yangi xizmatlari koidaga ko'ra an'anaviy xizmatlar - xodimlar bulimi, ish xaki va mexnatni tashkil kilish bulimi, mexnat muxofazasi va texnik xavfsizlik bulimi va boshkalar asosida tashkil kilinadi. Yangi xizmatlarning vazifalari kadrlar siyosatini amalga oshirish va tashkilotda mexnat resurslarini boshkarish buyicha faoliyatni muvofiqlashtirishdan iborat. Shu sababli ular o'z funksiyalari doirasini kengaytirib, faqat kadrlarga alokador masalalardan tashkari mexnat faoliyatini rag'batlantirish tizimini ishlab chikish, professional xarakatlanishni boshqarish, ziddiyatlarning oldini olish, mexnat resurslarini urganish kabi vazifaparni xam bajarishga utadi. Personalii boshkarish xizmati tuzilmasi kup jixatdan tashkilotning xajmi va xarakteri, chikarilayotgan maxsulot xususiyatlariga boglik bulishi shubxasiz, albatta. Kichik va urta tashkilotlarda personalii boshkarish buyicha kuplab vazifalarni asosan chizikdi menejerlar amalga oshiradi, yirik tashkilotlarda esa bu funksiyalarni bajarish yuzasidan mustakil bulinmalar tashkil etiladi. Bir kator tashkilotlarda personalni boshkarish buyicha direktor muovini raxbarligi ostida kadrlar bilan ishlashga alokador barcha bulinmalarni birlashtiruvchi personalni boshkarish tuzilmalari yaratiladi. Tashkilot xdjmgiga karab bulinmalar tarkibi uzgarishi mumkin: kichik tashkilotlarda bitta bulinma bir nechta kuyi tizimlar vazifaparni bajarishi mumkin, yirik tashkilotlarda esa, xar bir kuyi tizim funksiyasini koidaga kura aloxdda bulinma bajaradi

### **Personalni boshqaruv mexanizmi**

Maxalliy va xorijiy tashkilotlar tajribalarini umumlashtirish personalii boshkarish kuyi tizimining bosh maksadini ifodalashga imkon beradi. Bu maksadlarga muvofik tashkilotda personalii boshkarish tizimi shakllantiriladi. Tizimni yaratish asosi sifatida tamoyillardan, ya'ni fanda ishlab chidilgan va amaliyotda sinab kurilgan qoida va usullardan foydalaniladi.

Boshdaruv jarayonlari inson dayoti davomida dosil bulgan murakkab nerv tizimi boglanishlari disobiga vujudga keladi. Bu boshdaruv mexanizmi inson axlodida chidamlilik va tashkilotchiligini ta'minlaydi. Boshdaruv mexanizmiga ta'rif berish uchun muallif ikkita sinf chizmasini taklif diladi: (1) operatsion (kunikmalar tizimi, bilish, bilim) va (2) dinamik (shaxsiy kUrinishlar) (21.2-rasmgaarang). Shaxe - Reykovskiy ta'rificha asosiy tizim disoblanib, u ordali insonni axlodida ma'lum bir madsadga turgunlik, uziga xoslik va muljalga ega buladi. Shaxeni tashxis kilishdan madsad - nafadat patologik dolatni anidlash, balki samarali funksional dolatni dam anidlashdir. Boshdaruv mexanizmi genezini diagnostikasida Reykovskiy «didaktik jarayonlar tarixi»ni Urganishga mudim adamiyat bergan. Bu esa ortirgan bilim va kunikmalarini tatlil dilishda adamiyatga egadir. Bundan tashdari u «tarbiyaviy jarayonlar tarixi»ni urganishni dam tavsiya diladi, bu ordali kutish, zarurlik va munosabat tizimlari shakllanadi. «Didaktik jarayonlar tarixi»ni tatlil dilganda bilimlar xronologiyasiga tayaniladi, tarbiyaviy jarayonlar tarixini ketma-ket dolda tartibga keltirish uchun odsiy anamnestik intervyu ordali amalga oshiriladi. Tibbiyotdagi diagnoz bilan psixologik diagnoz birbiriga munosabati yanada dizidish uygotadi va yanada chudurrod dolda uziga xosligi tushuniladi. Tibbiyotdagi diagnostika - patofiziologik mexanizmga boglid doldagi sindromlardan tashkil topgan kasallikni tasnifi buyicha anidlashdan iboratdir. Tibbiyotda diagnoz duyilganidan keyin nega aynan bu buzilishlar tufayli kelib chiddi, boshda buzilishlarchi degan savol tugilmaydi, chunki kasallikni etiologik tavsifida tayyor javob buladi

Zamonaviy rahbar jamoa ishlab chiqarishida boshqaruvchi, diplomat, etakchi, murabbiy, innovator bo'lishi lozim. Bu esa rahbarning sifat strukturasiga kiradi:

1) boshqaruvchi – rahbarning bu funksiyasi an'anaviy hisoblanib, boshqaruvchi vazifasini bildiradi. Boshqaruvchi rahbar halol, o'z so'zidan chiqadigan: yuksak kasb mahoratiga ega bo'lib, ish yuzasidan muomala qilish ko'nikmalarini o'zlashtirgan notiq, maslaxatchi, pedagog va o'z navbatida ruhiyatchi mahoratiga erishgan bo'lishi lozim.

2) diplomat – rahbar so'nggi o'n yillar davomida, ayniqsa keng yoyilgan boshqaruv malakalari va ko'nikmalari orasida bularning avvalo muzokaralar olib borish bilan bog'liq xillarni tilga olib o'tish lozim. O'rta va oliy bo'g'in funksional

rahbarlari hozirgi kunda o'zlarining ish vaqtlarini asosan odamlar bilan aloqa bog'lash va bu aloqalarni kengaytirishga, ish sohasidagi aloqalarni chuqurlashtirish, shartnomalar, bitimlar tuzish, baxslarni hal qilish, hukumat bilan o'rnatilgan munosabatlarni yo'lga qo'yishga sarflaydilar. Hozirgi sharoitda har xil vositachilar ishlarida rahbarlarning ishtirok etishi tobora ko'proq zarur bo'lib qoldi. Mana shularning hammasi kishida alohida, ya'ni diplomatlarga xos qobiliyatlar shakllangan bo'lishini talab etmoqda.

3) etakchi – rahbar. Zamonaviy rahbar rahbarlik ishlaridan tashqari etakchilik ishlari bilan ham shug'ullanadi. Rahbar va menejment xususidagi Amerika nazariyotchilari har bir rahbar etakchi bo'lishi kerak degan shiorni ilgari suradilar. Rahbarlik vazifasi bilan etakchilik vazifasi bir ma'noni anglatmaydi. Bizda rahbarlik vazifasi deyilar ekan, ko'pincha biznesning moddiy kenja tizimi faoliyatini ishlab chiqarish zahiralari, muomalalar, texnologik jarayonlarni quvvatlab borish uchun zarur bo'lgan jami professional harakatlar tushuniladi. Bu vazifani yaxshi uddalash uchun rahbar insonlarni o'ziga ergashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi, ya'ni etakchi vazifasini bajarishi lozim.

4) murabbiy rahbar - ishlab chiqarish jarayonlari murakkablashib borgani sari xodimlarga qo'yiladigan talablarni oshiradi. Bir tomondan xodimlarning texnologik bilimlarini oshirish ehtiyoji paydo bo'lsa, ikkinchi tomondan ularda hayot faoliyatining ma'naviy tomonlarini kamolotga etkazish zaruriyati tug'iladi. Murakkablashib borayotgan texnika – texnologiya mutaxassislariga uzluksiz kasb – ta'lim berib borish zaruriyatini tug'dirish hech kimda shubha uyg'otmaydi. Buning uchun bu ishga talaygina mablag'larni sarflashga to'g'ri keladi. Lekin xodimlarni ma'naviy tomondan kamolotga etkazish borasida sustkashlik qilindi va shuning uchun ishlab chiqarishda ham zarar ko'rilmoqda. Vaholanki, xodimlarning yaxshi tarbiya ko'rganligi, yuksak ma'naviy ahloqqa ega ekanligi iqtisodiyotning ijtimoiy mintaqasidan o'tib borishi uchun hal qiluvchi shart bo'lib hisoblanadi.

Muvaffaqiyat qozonish uchun rahbar xodimlarni odob – ahloq, his – hayajon tomonidan tarbiyalab borishi barcha rahbarlik ishlarining muhim tomonidir.

Innovator – rahbar fan–texnika taraqqiyotining informatsion yuksalish sharoitlarida (birinchi yuksalish qishloq ekinlarini joriy etish bilan, ikkinchisi sanoatni

tubdan o'zgarishi bilan bog'langan) rahbarlik ishining eng muhim tomonlaridan biri innovatsiyalar bo'yicha faoliyat olib borishdir. Shiddat bilan davom etayotgan fan-texnika inqilobi sharoitlarida innovatsiyalar xususida kimki sustkashlik qiladigan bo'lsa, u tez orada orqada qoladi.

Innovatsiyalarning zarurligini tushuntirish juda oson. Eskirib qolgan asbob-uskunalarni tiklash, yangilarini joriy etishdan, mablag' tejab qolishdan ko'ra ko'proq yangi texnika va texnologiya bazasidan mehnat unumdorligi va maxsulot sifatini ko'tarish ancha oson va tezroq bo'ladi deb hisoblanadi.

Bosh rahbar, ya'ni rahbar avvalo insondir. Shuning uchun ham insonga xos bo'lgan xususiyatlarning hech biri unga begona emas. Bosh rahbar tarbiya natijasida etishtirilgan ijtimoiy sifatlarning murakkab sifatlarining murakkab bir tizimi, ya'ni shaxsiyatli kishidir. Har bir rahbarning o'z xulq-atvori bilan belgilanadigan o'z tabiati bor. Lekin inson tabiatining har qaysi tomoni ham rahbarlik vazifalarini ado etishga yordam bermaydi. Yapon «Masusita denki» firmasining rahbarlari ishchilar mehnatini samarasini oshirish va ularni maxsulot sifatini yaxshilash va tinmay takomillashtirib borishga undash uchun mana bunday ma'naviy qoidaga amal qilib borishadi.

Jamiyatni rivojlantirish va uni faravonligini oshirish, o'z mas'uliyatlarini anglab etish, jahon madaniyatini yanada taraqqiy ettirishga o'z ulushlarini qo'shib borishni har bir ishchi buni doimo yodda tutishi kerak. Har ishda firmaga sadoqatli bo'lish muvaffaqiyat kalitidir.

Ma'naviy qadriyatlar:

- a) ishlab chiqarishni takomillashtirish yo'li bilan millatga xizmat qilish;
- b) halollik, poklik;
- v) uyg'unlik va hamkorlik;
- g) sifat uchun kurash;
- d) o'z qadrini bilish va bo'ysunish;
- ye) firma bilan payvasta bo'lib ishlash;
- j) firmaga minnatdorchilik.

Boshqaruv tizimida rahbarning faoliyati muhim o'rin egallaydi. Bu esa o'z harakteri bo'yicha siyosiy va klassik faoliyatdir. Rahbar tashkilotchi deganda biz korxonada faoliyatini yaxshi yo'lga qo'yishi, yaxshi raqobatbardosh kadrlar bilan

ta'minlashi, maxsulot sifatini jahon standartiga javob bera oladigan qilib ishlab chiqarishni ta'minlashi, ishchi xodimlarning ish sharoitlarini yaxshilashi lozim.

Rahbarning o'z qo'li ostidagi xodimlarga bo'lgan iliq munosabati xodimlarning o'z ishlarini ko'tarinki ruhda bajarishlarini ta'minlaydi. Rahbarlarning ish jarayonida xodimlarning har qanday holatlarini va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olishi, ularning qalbiga yo'l topa bilishi uning bilim darajasiga, muomala madaniyatiga bog'liqdir.

Shaxs intizomi deganda biz o'z vaqtida ishga kelishi, berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi, maxsulotlarni sifatli ishlab chiqarish, insonlar bilan axil va o'zaro yordam sifatida mehnat qilishi, xushmuomala bo'lish, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lish, odobli va madaniyatli bo'lishini tushunamiz.

Intizom jamoaning o'z oldiga qo'yilgan vazifani uddalashida muayyan tartib bo'lishini ta'minlaydi, umumiy maqsadga erishishga to'sqinlik qiluvchi tamoyillarni barham toptirishga yordam beradi.

Intizom shaxsni mazkur jamoada qabul qilingan muayyan xulq-atvor andozasiga olib kiradi, me'yorida ish yuritish uchun sharoit yaratadi.

Shu bilan birga jamoaning, guruhning shaxsga o'tkazadigan ta'siri etarli darajada katta ekanligini ham aytish lozim. G'arb adabiyotlarida allaqachon komformizm tushunchasi, ya'ni guruhning tazyiqiga yon berish tushunchasi ishlab chiqilgan va keng suratda yoritib kelinadi.

Jamoadagi barcha a'zolar maqsadlarining birligi, ya'ni bular qadriyatli yo'nalishlar bo'lib, jamoadagi shaxslarni birlashtiradi. Agar biz korxon va tashkilotning ishlab chiqarish jamoasi haqida gapiradigan bo'lsak, u holda maqsadlar tashqaridan beriladi. Bunda boshqaruv topshiriqlaridan biri maqsadni to'g'ri shakllantirishdan iboratdir. Bordiyu rasmiy tuzilma haqida gap boradigan bo'lsa, unda maqsad aynan shu jamoani hosil qiluvchi asos bo'ladi, bunga dam olishni birgalikda o'tkazish, qandaydir ishlarni, topshiriqlarni bajarish kiradi.

Rahbarsiz jamoa bo'lmaydi, kimdir rahbarlik vazifasini o'z zimmasiga olishi, odamlarni jipslatirishi, ular o'rtasida topshiriqlarni taqsimlashi lozim bo'ladi, aks holda har qanday birgalikdagi faoliyatni oqilona tashkil etish mumkin emas.

Intizom, ya'ni mazkur jamoa uchun qabul qilingan xulq-atvor me'yoralarini bajarish lozim. Odatda, bu yozib qo'yilmagan ahloqiy normalar faqat mazkur guruhning, jamoaning o'ziga taalluqli bo'ladi.

Shaxsning tavsifi uning harakteri, ya'ni insonning xulq-atvorini, uning ishga, narsalarga, boshqa kishilar va o'ziga munosabatini belgilab beradigan barqaror psixologik xususiyatlar yig'indisidir.

Shuningdek harakterga xos xususiyatlarning qarama-qarshiligini: prinsipiiallik - prinsipsizlik, tejamkorlik - isrofgarchilik, mehnatsevarlik-ishyoqmaslik, puxtalik-palartishlik va hoka'zolari ham aytib o'tish kerak.

Harakter xususiyatlari muayyan shart-sharoitlardan, hayotning ijtimoiy muhitidan va shaxsning ishlari xususiyatidan kelib chiqadi va ko'p jixatdan tabiiy belgilar, temperament bilan belgilanadi.

Shaxsning ikkinchi omili yoki tarkibiy qismi uning ehtiyojlari, sabablari, qiziqishlari tizimidir, ya'ni shaxsning xulq-atvori sabablarini nimalar belgilasa, qabul qilinadigan qarorlarni tushuntirishga o'shalar yordam beradi.

Insonning xulq-atvorini tushuntiradigan ko'pgina nazariyalar yaratilgan. Jumladan, faylasuflar qadim zamonlardan buyon shaxsning faolligi manbalari va qo'zg'atuvchi manbalarni belgilashga urinib kelganlar. Ulardan ayrimlarining fikricha, inson xulq-atvorining asosiy sababi uning qanoatlanishga intilishi (gedonizm ta'limoti). XX asr Amerika psixologiyasidagi yo'nalish bo'lgan bixevorizm keng mashhur bo'lib ketdi, uning tadqiqot majmui shaxs xulq-atvorining turli shakllari bo'lib, ular tashqi muhitning rag'batlantiruvchi omillariga organizmning reaksiyasi majmui sifatida tushuniladi.

Insonning ehtiyojlaridan kelib chiqib, uning xulq-atvorini tushuntirib beradigan nazariyalar ko'proq rivoj topdi. Bunday nazariyalarning eng mashhur mualliflari A.Maslov, E.Kat, D.Mak Klelland, F.Gersburg va boshqa bir qator olimlardir.

Muayyan tashkilotni boshqarish faoliyati ko'p qirrali bo'lib, uning turli sohalaridagi samarali rahbarlik faoliyati turlicha yondoshuv va malakali mutaxassislar ishtirokini talab qiladi. Tashkilot miqyosidagi boylidlarni ikki asosiy guruhga bo'lgan holda – moddiy va nomoddiy ko'rinishlarni qayd etishimiz mumkin.

Nomoddiy boyliklarga shu tashkilot miqyosidagi nafaqat aqliy salohiyat, balki inson omili bilan bogʻliq boʻlgan hamma yutuqlar kiradi. Muayyan tashkilotda faoliyat yurituvchi barcha shaxslar - «personal» atamasi bilan nomlanadi. Psixolog olim T.Yu. Bazarov taʼrifi boʻyicha «Tashkilotdagi barcha inson resurslari yigʻindisi - personaldir. Bunga tashkilot xodimlari, biron loyihani joriy etishda qatnashuvchi hamkorlar, tadqiqot oʻtkazish uchun, strategiya ishlab chiqish, biron tadbirni amalga oshirishda qatnashishga taklif etilgan ekspertlar ham kiradi».<sup>1</sup>

Tashkilotdagi inson resursi - boshqaruvga oid fanlarning diqqat markazida turuvchi mavzu boʻlib, tashkilotning asosiy maqsadiga qay tarzda erishish aynan personalni malakali boshqarish bilan bogʻliqdir. Birorta tashkilotning texnologik jarayonini boshqarish masalasi - personal boshqaruvidan ajralgan holda tahlil qilina olmaydi. Shu oʻrinda, mashhur tadbirkor Endryu Karnegining quyidagi soʻzlarini eslab oʻtish oʻrinlidir:

«Menga fabrikalarimni qoldirib, xizmatchilarimni olib keting va yaqin orada zavodlarim hududida oʻtlar oʻsib ketadi. Fabrikalarimni olib qoʻyib, odamlarimni qoldiring va yaqin orada avvalgilaridan yaxshiroq, yangi zavodlarni quramiz».

Odatda biror korxonada personalni boshqarishning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik jihatlarini farqlash mumkin. Quyida shu jihatlar haqida qisqacha maʼlumot berib oʻtamiz.

### **Personalni boshqarishning huquqiy jihatlarini.**

Mehnat jarayonida oʻzaro munosabatga kirishuvchi odamlar maʼlum qoida, meʼyor doirasida harakat qilishadi. Jamiyat uchun ahamiyatli boʻlgan mehnat munosabati, odatda qonun orqali mustahkamlanadi. oʻzaro munosabatlarning turli meʼyoriy jihatlarini ushbu tarmoq, xudud, tashkilot, korxon boʻlimi, alohida xodim darajasida oʻz xususiyatini topadi. Personal boshqaruvi rahbariga shunday meʼyoriy hujjatlarni bilish, ularni amalga qoʻllay olish, ular asosida mustaqil chizgilar ishlab chiqish, ularni ommaviylashtirish, tashkilot xodimlariga, ularning mazmunini tushuntira olish majburiyati

yuklanadi.

Har bir tashkilot miqyosida amal qiluvchi me'yoriy hujjatlarga - kasbga oid tavsifnomalar, ushbu tashkilot hayotiga oid ichki tartib- qoidalar, personal haqida holatlar, tashkilot bo'limlari haqida Nizom, Mansab yo'riqnomalari, «Shartnoma» kabilar kiradi.

Ushbu me'yoriy hujjatlar personal bilan ishlovchi menejerlarning nazorat va baholash faoliyatini ancha engillashtiradi hamda xodimlar va guruhlar o'z-o'zini boshqaruvi imkoniyatini yanada oshiradi.

**Personalni boshqarishning ijtimoiy-psixologik jihatlari. Kadrlarni joylashtirish sohasida.** Bu sohada personal boshqarish xizmatiga mavjud vakant o'rinlarga nomzodlarni tanlash, kadrlarni ish joyiga to'g'ri qo'yish, ish joyi va kasbga aloqador masalalarda xodimning shaxsiy va kasbiy xususiyatini chuqur o'rganish vazifasi qo'yiladi.

**Xodimlar adaptatsiyasi/moslashuvini boshqarish.** Xodimning o'zgaruvchan sharoitlarga yoki yangi ish joyiga moslashishini va tez orada jamoa hayotiga qo'shilib ketishni nazarda tutadi.

**Xodimlarni tashkilot maqsadi sari etaklash,** tashkilot maqsadlariga xodimlar faolligi va ishtiroki orqali erishish.

**Xodimlarni motivatsiyalash,** ya'ni ularda tashkilot maqsadi yo'lida mehnat qilish uchun ishtiyoq uyg'otish. Motivatsiyaning asosiy mazmun-mohiyati tashkilot maqsadi va xodim manfaatlarini uyg'unlashtirishdan iborat bo'lib, aynan shu mas'uliyatli vazifa, odatda rahbar zimmasiga yuklanadi.

**Personalni o'qitish** – uning kasbiy mahoratini oshirish yo'lidagi asosiy tadbir bo'lib, ushbu omil nafaqat kasbga oid mutaxassisliklar, balki rahbarlik mahoratini oshirishga ham tegishlidir. Misol uchun, «General Electric» kompaniyasi inson resurslarini rivojlantirish uchun sarflangan har bir dollar ustiga ustama 3 dollar foyda olar ekan. Ushbu rivojlantirish dasturidagi asosiy e'tibor, yangi texnologiyani o'zlashtirish va maqsadga intilish yo'lida samarali faoliyat yuritish uslubini o'rganishga qaratiladi.

Tashkilot miqyosida e'tiborni bevosita va beg'araz ravishda xodimlar manfaatiga yo'naltirish, ma'muriyatga nafaqat obro', balki moddiy yutuqlar ham



olib keladi. Masalan, «Philips Petroleum» o‘z ishchilariga yordam dasturini qo‘llash orqali ishga kelmaslik va kasal bo‘lishlar qisqarishi hisobiga har yili 8 mln. dollar tejashga erishdi.<sup>2</sup>

Albatta, sanab o‘tilgan jihatlar tashkilotdagi ijtimoiy- psixologik hodisalarga oid tadbirlarning bir qismi bo‘lib, bu sohaga tegishli asosiy mavzular qo‘llanma doirasida bayon etiladi.

Bizga ma’lumki, inson psixologiyasini o‘rganish juda murakkab masaladir. Rahbar jamoa a’zolarini o‘ziga qarata olishi, ular bilan til topisha olishi bu katta san’atdir. Shuning uchun rahbar kuchli psixolog bo‘lishi lozim. Shu sababli rahbarning asosiy maqsadi va vazifalari jamoalarda ijtimoiy-ruhiy iqlimni yaxshilashi lozim. Jamoa a’zolari orasidagi nizolarning ko‘pchiligi ishlab chiqarishning qoniqarsiz tashkil qilinganligi, rahbarlarning ish sharoitida o‘ziga bo‘ysinuvchi jamoa a’zolarining ruhiy holatlarini hisobga olmaganligi, zarur ish sharoitining yaratilmaganligi va boshqa sabablar natijasida vujudga keladi.

Ijtimoiy - ruhiy vaziyat - bu korxonada va tashkilot xodimlariga ta’sir qiluvchi ko‘pgina omillarning ta’siridan keladigan jamlama samaradir. U mehnat qilish jarayonida, xodimlarning muomalasida, ularning shaxslararo va guruhli aloqalarida o‘z ifodasini topadi. Bu munosabatlarning normal vaziyati har bir xodimga o‘zini jamoaning bir zarrasi deb his qilish imkonini beradi, uning ishga bo‘lgan qiziqishini va zarur ruhiy kayfiyatini ta’minlaydi, yutuqlar va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarga adolatli baho berishga undaydi.

Jamoaning ijtimoiy-ruhiy vaziyati uchta asosiy tarkibiy qismdan iboratdir: xodimlarning ruhan mos kelishi, ularning ijtimoiy intilishlari, ahloqiy tarbiyalanganligidir. Bu tarkibiy qismlar insoniy muomalaning eng nozik torlariga, aql-idrok, iroda va his-tuyg‘ularga taalluqli bo‘ladi, ko‘p jixatdan shaxsning foydali ishiga, ijodiy faoliyatiga, boshqalar bilan hamkorlik qilishi va jipsligiga yordam beradi. Ijtimoiy-ruhiy vaziyat xodimlarning birgalikda mehnat qilishi va bir-birlariga munosabatini ifodalab, birinchi o‘ringa shunday sabablarni, chunonchi, moddiy rag‘batlantirish va iqtisodiy foyda kabi omillarni qo‘yadi, va natijada, xodimni rag‘batlantiradi, unda kuch-quvvatning ortishini yoki pasayishini, mehnatga g‘ayratini yoki unga qiziqmaslikni, ishdan manfaatdorligini yoki befarqligini ifodalaydi.

Demokratlashtirish, oshkoraliq hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha eski uslublarga chek qo'yildi. Hozirgi sharoitda rahbar faqat o'z sohasini yaxshi bilibgina qolmay, balki yaxshi tashkilotchi, psixolog, tarbiyachi va ijtimoiy etakchi bo'lmog'i lozim. Buning uchun har bir rahbar xodim: sotsiologiya, psixologiya, pedagogika fanlarini mustaqil egallashi lozim. Buni hayotimizdagi jiddiy o'zgarishlar, inson omilining faollashuvi, jamoalarning o'z-o'zini boshqarish sharoitida ular bilan ishlashni taqozo etadi. Jamoaga a'zo bo'lgan har bir shaxsning qalbiga yo'l topa bilishi rahbarning ish faoliyatida muhim ahamiyatga egadir.

Rahbar, ayrim harakteri og'ir, ishchilar bilan alohida ishlashi va ularga boshqacha yondoshishi, ya'ni ish natijasini yomon baholashga shoshmasligi va shu asosda ularga xayfsan e'lon qilishi yoki ja'zolashi noto'g'ridir. Yaponiya ilmiy maktabida shunday deyiladiki, samarali mehnatni amalga oshirish uchun ishchilarni koyish o'rniga ularni 2,5 barovar maqtashi lozim. Insonlarni shaxsiy qiziqishini hisobga olishi rahbar va tashkilotchining samarali faoliyat olib borishining sharti hisoblanadi. Buning uchun ular ishchilarning temperament xususiyatlarini nimaga ko'proq qiziqishlari, korxonada yoki ishlab chiqarishda ularga nima yoqadi yoki nima ularning qiziqishini so'ndiradi va asablariga tegadi. Bu xususiyatlarni bilish juda qiyin va murakkab ish bo'lib, ishchilar bilan muloqotda amalga oshiriladi.

Zamonaviy ishlab chiqarishda rahbarning murakkab vazifasi, ya'ni davlat, jamoa va shaxsning qiziqishlarini birlashtirishni bilishi lozim. Bundan tashqari u ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni to'g'ri yo'lga qo'yishi lozim.

Avtokorxonalar rahbarlari, xaydovchilar, ishchilarning qiziqishlarini tushunib etishishlari, ularda bo'lib turadigan muammolarni o'rtoqlarcha hal qilishlari, qilgan xatolarini yo'li bilan tushuntirishlari, hamda ularning ish natijalariga to'g'ri baho berishlari, uy sharoitlaridagi kamchiliklariga yordam berishlari, ularni ruhan ko'tarinlikka olib keladi va rahbarga nisbatan hurmatini oshiradi. Albatta, shundan so'ng har bir ishchi o'z ishiga mehr qo'yadi va berilgan vazifalarni sifatli qilib bajarishga harakat qiladi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Ananaviy menejerlar va ularning asosiy motivlari.
2. Tavakkalchilikka menejning munosabati, omad va salbiy holatlarni idrok etish munosabatlari.
3. Korporativ menejerlar ularning asosiy motivlari, tavakkalchilik darajalari, omad va inqirozga munosabatlari , boshqalar bilan ish olib uslublari haqida.
4. Erkin tadbirkorlarda motivlarning turlari, ishga boshqalarga omadsizlik va yutuqga nisbatan munosabat shakllari.

### **III-MODUL. MENEJER SHAXSI TIPOLOGIYASI.**

#### **IX-BOB. MENEJER SHAXSIGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

##### **Boshqaruv kompetensiyasi va kompetentligi tushunchalari**

Zamonaviy fanda xodimlarni boshqaruv nazariyasi va amaliyotini taxlil qilishda kompetensiya tushunchasiga mudim adamiyat berilmogda. Kompetensiya - xodimning kompaniya kutayotgan darajada va belgilangan tarkibda ishlab chidinish xulidini muntazam ravishda namoyish qilishga tayyorlik do biliyati. Kompetensiyalar tizimini yaratishda tashkilot xodimlarning faoliyatiga taalludli mudim mezonlar majmuasini standart talablarga asosan tuzadi. Shuningdek, kompetensiya xodimlarning tashkilotda dam professional, dam ijtimoiy jihatdan tengligi xususida guvoxdik beradi. XX asrning 90-yillarida mutaxassislarga malakaviy talablarni duyuvchi Xaldaro mednat tashkiloti malaka oshirish damda boshqaruv xodimlarni kasbiy dayta tayyorlashda «tayanch kompetensiya»lar degan tushunchani fanga kiritdi. Tayanch kompetensiyalar turli xil kasbiy birlashmalarda mutaxassislarning ijtimoiy-professional jihatdan ta'minlanipxi damda faoliyatga moslashishida xodimlarning xizmat vazifalaridan kelib chidib uziga xos xarakter kasb etadi. Tayanch kompetensiyalar datorida fanda madaniy kompetensiya tushunchasi dam mavjud. Bu kompetensiya menejering tanlash imkoniyati mavjud bulmagan xollarda, dar xil madaniy uzilishlarda muvaffadiyatli ishlash imkonini beradi. Madaniy kompetensiya tashkilot menejering boshqaruv madaniyati malakalarini uzlashtirish darajasini anidlaydi. Kompetensiyalarning anislanishi Kompetensiyalar - (1) tashkilot midyosida dabil dilingan standart xuldatvor; (2) menejering tashkilot midyosida dabil dilingan standartlarga muvofid ish kura olish do biliyati. Kompetentlik (bilimdonlik) - (1) u yoki bu savolning javobidan xabardorlik; (2) ishda kerakli natijalarni dulga kiritish yuzasidan zarur darorlarni dabil dila olish do biliyati. Kompetensiya shaxsning yurish-turishini badolashga oid 109 bilimlar majmui bulib, u ordali biz tashkilotni samarali rivojlanishi yulida xodimning uz faoliyatini amalga oshirishida danday darajadagi muvaffadiyatlarga

erishayotganligini anidlashimiz mumkin. Kompetensiyalarning mavjudligi odatda, shaxe xuld-atvorini ulchovchi (indikatorlar yordamida) muayyan xolatlar ordali dayd dilinadi (yaxshi shakllangan xuldiy malakalar). Kupincha kundalik mulodotda biz «kompetensiya» yoki «bilimdonlik» tushunchalarini tez-tez ishlatamiz. Aynidsa, «professional kompetensiya» tushunchasi kuprod diddatni tortadi. Lekin, ba'zan insonlar bilan ishlash borasida «kommunikativ kompetensiya» tushunchasi dam ishlatiladi. Bu aslida uzgalar bilan til topisha bilish, uz nutdini ravon va bir tekisda tuzish ordali fikrlarini boshdalarga etkaza olish kabi mudim xususiyatlar bilan boglanadi. Psixologiya fanida, xususan, uning «Boshqaruv psixologiyasi» sodasida oxirgi paytlarda «ijtimoiy-psixologik kompetensiya» fenomeni ajratilmoddiki, modiyatan u - kommunikativ kompetensiyadan kengrod va kupdamrovlirokdir. Boshsaruvchining tayanch kompetensiyalari G.Miroljubova uzining «Menejerlar madaniy kompetensiyalarining rivojlanishi» (2005)<sup>81</sup> deb nomlangan uduv-uslubiy dullanmasida boshqaruvchining tayanch kompetensiyalari xususida zamonaviy, ilmiy jidatdan asoslangan dator fikrmulodazalarini ta'kidlab ugadi. Shu bois dam, da'vogarning lavozimga loyislik mezonlari xususida ran ketganda, mutaxassislar oldida boshqaruvchi shaxeiga xos duyidagi tayanch kompetensiyalarni anidlash yoki fganish masalasi kundalang turadi:

1. Professional kompetensiya — bu uzi boshdarayotgan soda faoliyatini mukammal darajada yulga duyish uchun tashkilot missiyasini anidlashtirishga xizmat diluvchi mavjud ma'lumot, bilim damda malakalarga ega bulishlikdir.
2. Uslubiy kompetensiya - bu radbarning bilgan narsalari, shaxsiy malaka va kunikmalari, turli loyixalar xususidagi malumotlar xamda topshiridlarni tez, tugri va tushunarli (operativ) tarzda xodimlarga etkaza olish dobiliyati.
3. Ijtimoiypsixologik kompetensiya - bu shaxening ijtimoiy-psixologik dodisalar xamda muomala donuniyatlari, uzgalarni bilish, to'gri idrok dilish, dilidagini anglash va shu asosda uzaro xamkorlikni tashkil dilish borasidagi savodxonligidir. «Amaliy ijtimoiy psixologiya» (1998)<sup>82</sup> kitobining mualliflari ijtimoiy-psixologik kompetensiyaning 3 ta asosiy tarkibiy dismlarini ajratib kursatishadi:

a) kommunikativ kompetensiya;

b) persektiv kompetensiya;

v) interaktiv kompetensiya.

Agar diddat bilan bu tizimga daralsa, u G.Andreevaning uch tizimli muloqot tugrisidagi nazariy darashlaridan kelib chiddanligiga guvox bulishimiz mumkin (kommunikativ, persektiv va interaktiv). Xar kalay, bunday yondashuv psixologiya fanidagi mashxur kupqirrali muloqot jarayonining asosiy sodalarini damrab olganligi bilan xarakterlanadi. Shaxsning, birinchi navbatda, raxbarning ijtimoiypsixologik bilimdonligini aniklash uchun turli metodlar ishlatiladi. Bular usha biz bilgan kuplab shaxsning mulodotga kirishuvchanlik sifatlarini aniklash metodlaridir. Lekin ularning kupchiligi nazariy nukta nazardan diagnostik ishlarni amalga oshirish uchun madsadga muvofid emas. Barcha metodik usullar ichida, aynan, shaxsning uzgalar bilan tez va anidlik bilan ishchanlik damda shaxsiy mulodotni urnata olish ordali boshdalarga ta'sir kursata olish malakasini anidlovchi KOS-1 metoda taddidotchilarda borgan sari kuprod ishonch uygotmokda. Metodning dulayligi shundaki, u kup vadtni olmagan dolda (10-15 dadida) respondentdan 40 ta savolga «da» yoki «yud» deb javob berishni tadozo etadi. Ijtimoiy-psixologik kompetensiya nafadat radbar tomonidan uzini-uzi anglashi (bilishi), balki autopsixologik kompetensiya bilan dam boglid. [4] Autopsixologik kompetensiya — bu radbardagi shunday mal akal ar majmuiki, ular boshdaruvchini uz kasbiy damda shaxsiy sifatlarini diagnostikalash, ya'ni uzini-uzi diagnostika dilish, uzini-uzi tuzata olish (korreksiyalash), uzini-uzi takomillashtira olish, uzigauzi motivatsiya bera olish, dar danday ma'lumotdan samarali foydalana olish, psixolingvistik kompetensiyalar bilan boglid dobiliyatdir. [5] Ijtimoiy-informatsion kompetensiya - bu radbardagi axborot texnologiyalari bilan ishlay bilish damda ijtimoiy informatsiyalarga nisbatan tandidiy munosatda bula olishga egaligi. [6] Kommunikativ kompetensiya - bu boshdaruvchining turli tildagi ogzaki va yozma muomala texnologiyalarini uzlashtirganligi damda kompyuterda dasturlash va Internet ordali munosabatga kirisha olish dobiliyati. Ayrim mutaxassislar tomonidan ijtimoiy-psixologik kompetensiya tushunchasi kupincha OAVda «kommunikativ kompetensiya» tushunchasi bilan sinonim sifatida dam ishlatiladi. Bevosita kommunikativ kompetensiyani anidlash uchun «Mulodotga kirishuvchanlik darajasi»,

«Fikrni bayon eta olish» kabi dator metodikalar damda uzini danchalik nazorat dila olishini bilishda M.Snaydershshg maxsus testi dUllaniladi. [7] Kognitiv kompetensiya — bu radbarning ma'lumot darajasini oshirishga tayyorligi, uzining shaxsiy imkoniyatlarini faollashtirishga 112 extiyojmandligi, yangi malaka va bilimlarni mustadil ravishda yaratish xamda uzini-uzi rivojlantirish do biliyati demakdir. [8] Maxsus kompetensiya - bu boshdaruvchining professional xatgi-darakatlarni mustadil tarzda bajarishga tayyorlanish va uz mednati natijalarini baxolay olish do biliyati. [9] Madaniy kompetensiya - bu menejerning tashkilot normalari va dadriyatleri orkali xuld-atvorini boshqaruvga tayyorlik kobiliyatiga egapigi. Shuningdek, munosib bulmagan vaziyatlardagi xattixarakatlarda madsadga erishish uchun standart vaziyatlarni saqlab qolish va zarur bulganda ularni yangilari bilan almashtira olish savodxonligi.

G.Miroljubova uzining «Menejerlar madaniy kompetensiyalarining rivojlanishi» (2005) deb nomlangan udov-uslubiy dullanmasida boshdaruvchining tayanch kompetensiyalari xususida zamonaviy, ilmiy jidatdan asoslangan dator fikrmulodazalarini ta'kidlab ugadi. Shu bois dam, da'vogarning lavozimga loyislik mezonlari xususida ran ketganda, mutaxassislar oldida boshdaruvchi shaxeiga xos quyidagi tayanch kompetensiyalarni aniqlash yoki urganish masalasi kundalang turadi: Professional kompetensiya — bu uzi boshqarayotgan soda faoliyatini mukammal darajada yulga duyish uchun tashkilot missiyasini anidlashtirishga xizmat diluvchi mavjud ma'lumot, bilim damda malakalarga ega bulishlikdir. Uslubiy kompetensiya - bu rahbarning bilgan narsalari, shaxsiy malaka va kunikmalari, turli loyixalar xususidagi malumotlar xamda topshiridlarni tez, tugri va tushunarli (operativ) tarzda xodimlarga etkaza olish do biliyati. Ijtimoiy-psixologik kompetensiya - bu shaxening ijtimoiy-psixologik dodisalar xamda muomala donuniyatlari, uzgalarni bilish, to'gri idrok dilish, dilidagini anglash va shu asosda uzaro xamkorlikni tashkil dilish borasidagi savodxonligidir. «Amaliy ijtimoiy psixologiya» (1998) kitobining mualliflari ijtimoiy-psixologik kompetensiyaning 3 ta asosiy tarkibiy dismlarini ajratib kursatishadi:

a) kommunikativ kompetensiya;

b) perseptiv kompetensiya;

v) interaktiv kompetensiya. Agar diddat bilan bu tizimga daralsa, u G.Andreevagzning uch tizimli mulodot tugrisidagi nazariy darashlaridan kelib chiddanligiga guvox bulishimiz mumkin (kommunikativ, perseptiv va interaktiv). Bunday yondashuv psixologiya fanidagi mashxur kupdirrali mulodot jarayonining asosiy sodalarini damrab olganligi bilan xarakterlanadi.

Shaxsning, birinchi navbatda, raxbarning ijtimoiypsixologik bilimdonligini aniklash uchun turli metodlar ishlatiladi. Bular usha biz bilgan kuplab shaxsning mulodotga kirishuvchanlik sifatlarini aniklash metodlaridir. Lekin ularning kupchiligi nazariy nukta nazardan diagnostik ishlarni amalga oshirish uchun madsadga muvofid emas. Barcha metodik usullar ichida, aynan, shaxsning uzgalar bilan tez va anidlik bilan ishchanlik damda shaxsiy mulodotni urnata olish ordali boshdalarga ta'sir kursata olish malakasini anidlovchi KOS-1 metoda taddidotchilarda borgan sari kuprod ishonch uygotmokda. Metodning dulayligi shundaki, u kup vadtni olmagan dolda (10-15 dadida) respondentdan 40 ta savolga «da» yoki «yud» deb javob berishni tadozo etadi. Ijtimoiy-psixologik kompetensiya nafadat radbar tomonidan uzini-uzi anglashi (bilishi), balki autopsixologik kompetensiya bilan dam boglid. Autopsixologik kompetensiya — bu radbardagi shunday mal akal ar majmuiki, ular boshdaruvchini uz kasbiy damda shaxsiy sifatlarini diagnostikalash, ya'ni uzini-uzi diagnostika dilish, uzini-uzi tuzata olish (korreksiyalash), uzini-uzi takomillashtira olish, uzigauzi motivatsiya bera olish, dar danday ma'lumotdan samarali foydalana olish, psixolingvistik kompetensiyalar bilan boglid dobiliyatdir. Ijtimoiy-informatsion kompetensiya - bu radbardagi axborot texnologiyalari bilan ishlay bilish damda ijtimoiy informatsiyalarga nisbatan tandidiy munosatda bula olishga egaligi. Kommunikativ kompetensiya - bu boshdaruvchining turli tildagi ogzaki va yozma muomala texnologiyalarini uzlashtirganligi damda kompyuterda dasturlash va Internet ordali munosabatga kirisha olish dobiliyati. Ayrim mutaxassislar tomonidan ijtimoiy-psixologik kompetensiya tushunchasi kupincha OAVda «kommunikativ kompetensiya» tushunchasi bilan sinonim sifatida xam ishlatiladi. Bevosita kommunikativ kompetensiyani anidlash uchun «Mulodotga kirishuvchanlik darajasi»,



«Fikrni bayon eta olish» kabi dator metodikalar damda uzini danchalik nazorat dila olishini bilishda M.Snaydershshg maxsus testi dUllaniladi. Kognitiv kompetensiya — bu radbarning ma'lumot darajasini oshirishga tayyorligi, uzining shaxsiy imkoniyatlarini faollashtirishga extiyojmandligi, yangi malaka va bilimlarni mustadil ravishda yaratish xamda uzini-uzi rivojlantirish dobiliyati demakdir. [8] Maxsus kompetensiya - bu boshdaruvchining professional xatgi-darakatlarni mustadil tarzda bajarishga tayyorlanish va uz mednati natijalarini baxolay olish dobiliyati. [9] Madaniy kompetensiya - bu menejerning tashkilot normalari va dadriyatleri orkali xuld-atvorini boshdarishga tayyorlik kobiliyatiga egapigi. Shuningdek, munosib bulmagan vaziyatlardagi xattixarakatlarda madsadga erishish uchun standart vaziyatlarni sadlab dolish va zarur bulganda ularni yangilari bilan almashtira olish savodxonligi.

### **Raxbarlik sifatlari.**

Yuqorida keltirilgan ta'riflar rahbarlik faoliyatining bir tomonini tashkil qiladi. Ikkinchi tomoni rahbarlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishining shaxsi yuksak insoniy fazilatlar bilan bog'liqdir.

Rahbar mustaqil bo'lishi, ijtimoiy faoliyatning qonuniy taqiqlanmagan hamma sohasi bilan shug'ullana olishi mumkin. Shu bilan birga, u o'zi boshqarayotgan jamoa orasida obro'-e'tiborga ega bo'lishi, o'zin kamtar tutishi zarur. Rahbarning mustaqil fikrlilik, topqirlik, mustaqillik shaxs qiyofasini belgilovchi muhim psixologik xususiyatdir.

Rahbarda mustaqillik bo'lsa, unda o'ziga ishonch ham bo'ladi, bu esa o'z navbatida rahbardagi sub'ektiv talablar darajasining yuqori bo'lishiga olib keladi. Ko'pincha, rahbarning boshqalarga talabchanligi haqida gapiriladi, lekin yaxshi rahbar avvalo o'ziga-o'zi nisbatan talabchan bo'lishi talab etiladi. O'z-o'zini baholash va shu asosda boshqalarga nisbatan munosabatlar tizimini ishlab chiqishi muhim bir omildir.

Har qanday rahbarda intellekt — aql-zakovatning ma'lum normasi bo'lishi kerak. Bu norma yaxshi rahbar uchun o'rtadan yuqori bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir, chunki o'ta yuqori darajasidagi intellektga ega bo'lgan rahbar bilan ishlash xodimlar uchun qator noqulayliklarni keltirib chiqarishini, bunday aql-zakovat qolganlarning ijobiy rivojlanishiga psixologik tusiq vazifasini o'tash mumkin. Rahbardagi o'rtadan

yuqori intellektni qoplab ketadigan yana boshqa muhim sifatlar borki, ular boshqarish ishining samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi

Bugungi kunda rahbarlik faoliyati uchun umuminsoniy ma'naviy fazilatlarining roli ham juda katta. Bunday fazilatlar o'zaro ishonch, halollik, haqqoniylik, adolatlikdan iborat bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, rahbar psixologiyasini ma'naviy jihatdan shakllantirish uchun quyidagi maxsus fazilatlar ham zarur:

- tashabbuskorlik, doimo yangi imkoniyatlarni izlab topish;
- vaqtdan, shuningdek vaziyatdan hmda unumli foydalan olish;
- hayotda har doim boshqalardan bir qadam oldinda yurish;
- bo'ladigan o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish;
- qat'iyatli, tirishqoq, sabr-bardoshli bo'lish;
- qiyinchilik va to'liqlarga tayyor turish, ularni irodaviy qat'iyatlilik bilan engish;
- maqsadni aniq belgilab, unga erishishga harakat qilish;
- faoliyat sohasida etarli darajada ilmiy-amaliy axborotga ega bo'lish;
- ish yuritishda mustaqil bo'lish;
- ayrim vaqtlarda tavakkalchilikka yo'l qo'yish va uning natijasini tasavvur qila olish, shu tariqa yuksak samaradorlikka erishish.

Rahbarlik odobi yuksak ma'naviy axloqiy me'yor, talab va tamoyillar bo'lgan erkinlikka asoslanadi. Rahbar nafaqat o'zi erkin bo'lishi, balki sheringining, o'zi ishlayotgan jamoa a'zolarining ham erkinliklarini hurmat qilishi lozim.

Rahbarlik odobi ko'pincha o'zro tenglik va odillikka asoslandi. Bu narsa tomonlarning o'z faoliyatini ob'ektiv baholashga yordam beradi.

Zamonaviy rahbarning o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun quyidagilarga qat'iy rioya qilishi zarur:

- Sheriklariga, hamkorlariga, jamoa a'zolariga bergan va'dasini doim o'z vaqtida bajarishi kerak;
- Mag'rurlanib ketmaslik, jamoa o'rtasida kamtar, o'ziga ortiqcha baho bermasligi zarur;

- Faqat o‘zining nuqtai nazarini, fikrini o‘tkazish emas, o‘zgalarning ham fikri bilan hisoblashishi zarur;
- Hamkorlarning bilim va malakalarini, topqirlik qobiliyatini ham qadrlash lozim;
- O‘zining ishtiroki zarur bo‘lgan masalalarnigina hal qilishda qatnashishi shart
- Sheriklari va qo‘l ostidagi xodimlarni maqtash, kerak bo‘lsa rag‘batlantirish, ularning fikrini agar o‘rinli bo‘lsa ma’qullash, bu kabi tadbirlarni jamoatchilik oldida amalga oshirish kerak;
- Sheriklarining takliflarini e‘tibor bilan tinglashi, to‘g‘ri bo‘lsa, ish faoliyatida foydalanish, noto‘g‘ri bo‘lsa, xushmuomalalik biln ulardan voz kechishi lozim;
- Har qanday sharoitda jamoa oldida o‘zini yo‘qotib qo‘ymasliklari zarur;

### **Individual tipologik xususiyatlar**

Insonning ruhiy olami beto‘xtov harakatlar majmuasidan iborat bo‘lib, biri ikkinchisini bevosita taqozo etadi va ular uzluksiz zanjir tizimiga o‘xshash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to‘g‘risidagi taassurotlar, o‘tmish xotiralari, kelajak yuzasidan ijodiy xayollar, ezgu niyatlar, xohish-istaklar, maqsad va tilaklar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzluksiz tarzda o‘zaro o‘rin almashtirib turish evaziga ontogenetik dunyoga mustahkam negiz hozirlanadi. Ruhiy olam kechishi, uning sur‘ati, mazmuni, shakli, ko‘lami, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, insonlar tabiat hodisalariga, ijtimoiy turmush voqeliklariga, omillariga, ta’sir kuchlariga tez yoki sekin, engil yoki mushkulot bilan javob qaytarishga moyillik ko‘rsatadilar.

Psixologiyada temperamentga taalluqli individual dinamik xususiyatlar o‘rtasida muayyan darajada tafovut mavjudligi alohida ta’kidlanadi, ular orasidagi farqlarni ajratib ko‘rsatish maqsadida quyidagicha belgilar kiritiladi va o‘ziga xos tarzda tavsiflab beriladi, ularning ayrimlarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

Favqulodda temperamentning bir xil xususiyatlari motiv, psixik holat va hodisalardan farqli o‘laroq, aynan shu shaxsning o‘zida, uning turli faoliyatlarida, muomalasida ifodalanadi.

Temperament xususiyatlari tabiiy shartlanganlik omiliga taalluqli bo'lganligi tufayli inson hayoti va faoliyati (umri) davomida yoki uning muayyan bir bo'lagida (ta'sirga beriluvchanligi sababligidan qat'i nazar) barqaror, o'zgarmas va mustahkamdir.

Yakkahol shaxsga dahldor temperamentning turli xususiyatlari o'zaro bir-biri bilan g'ayriqonuniy ravishda birlashgan bo'lmasdan, balki ular o'zaro bir-biri muayyan qonuniyat asosida mujassamlashib, xuddi shu xususiyatlar uning tiplarini tavsiflovchi o'ziga xos tuzilmani vujudga keltiradi.

Temperamentning fiziologik asoslari: qadimgi yunon olimi Gippokrat ta'limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o'zaro bir-biridan tafovutlanishi, ularning tana a'zolaridagi suyuqliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda joylashuviga bog'liq ekanligi tasavvur qilinadi. Gippokrat ta'biricha, inson tanasida to'rt xil suyuqlik (xilt) mavjud bo'lib, ular o't yoki safro (yunoncha «chole»), qon (lotincha sanguis yoki sanguinis), qora o't (yunoncha melas «qora», chole «o't»), balg'am (yunoncha «phlegma») kabilardan iboratdir. Uning mulohazasicha:

– o'tning xususiyati – quruqlikdir, uning vazifasi tana a'zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir;

– qonning xususiyati issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir;

– qora o'tning xususiyati namlikdir, uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir;

– balg'amning (shilimshiq moddaning) xususiyati sovuqlikdir, uning vazifasi badanni sovitib turishdan iboratdir.

Gippokrat ta'limotiga muvofiq har bir insonda shu to'rt xil suyuqlik mavjud bo'lib, uning bittasi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur aralashma (lotincha temperamentum)lardan qaysi biri salmoqliroq bo'lsa, shunga qarab insonlar temperament jihatdan farqlanadilar, chunonchi xolerikda sariq o't, sangvinikda qon, flegmatikda balg'am, melanxolikda qora o't ustun bo'lishi ta'kidlanadi.

Yirik rus psixologlaridan biri B.M. Teplov (1896–1965) va uning shogirdlari, maslakdoshlari I.P. Pavlovning tadqiqotlarini davom ettirib, inson nerv jarayonlari xususiyatlarining o'ziga xos tomonlarini ochishga muvaffaq bo'ldilar. Ular nerv-

fiziologik jarayonlarning nozik qirralarini o'rganishga maxsus moslamalar yordami bilan o'zgarishlarni qayd qilish hamda olingan natijalarni (omillarni) matematik statistika metodlari orqali hisoblashni tatbiq etdilar.

Shuningdek, B.M. Teplov ilmiy maktabining namoyandalari tomonidan ijobiy va tormozlovchi shartli reflekslarning hosil bo'lish tezligini tavsiflovchi individual xususiyatlar turkumi ham ta'riflab berilgandir. Ushbu individual xususiyatlar mohiyatida ifodalanuvchi nerv sistemasining notanish xususiyati dinamiklik deb nomlangan ham tavsiflangan. Bundan tashqari, ular shartli reflektor faoliyatining bir guruh individual xususiyatlari qo'zg'alish jarayoni to'xtalishining tezligi mahsuli sifatida taxmin qilingan xususiyatni (yangi xislatni) labillik deb atay boshlaganlar. Shuning bilan birga nerv sistemasining boshqa xususiyatlari mavjudligi to'g'risida ilmiy taxminlar ilgari surilgan, chunonchi, senzitivlik, reaktivlik va hokazo.

### **Temperament tiplarining tavsifnomasi.**

Turli temperament tipiga mansub insonlarda har xil xarakter xususiyatlari, shaxs sifatleri, holatlari ro'y beradi.

Sangvinik yuksak reaktivlik. Bo'lar-bo'lmas narsalarga qattiq xoxolab kulaveradi. Muhim bo'lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo'r qo'zg'alish bilan javob beradi. Imo-ishoralari va harakatlari yaqqol ko'rinib turadi. Uning aft-basharasiga qarab kayfiyatining qandayligini, narsalarga yoki odamga bo'lgan munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to'playdi.

Sust senzitivlikka ega. Sezgirlik chegarasi yuksak. Juda kuchsiz tovushlarni va yoruqlik qo'zg'ovchilarni payqamaydi. Aktivligi yuksak, juda g'ayratli va ishchan, darslarda tez-tez qo'l ko'tarib turadi, toliqmasdan uzoq vaqt ishlashi mumkin, yangi ishlarga g'ayrat bilan kirishadi. Faolligi va reaktivligi muvozanatli. Uni intizomga chaqirish oson. U o'z hissiyotlarining namoyon bo'lishini va o'zining ixtiyorsiz harakatlarini tez ushlab qola oladi. Harakatlari shiddatli, nutqi tez, yangi ishga tezlik bilan kirishadi, diqqatini tez to'playdi. Aqli tez ishlaydi, topqir. Harakatlari nihoyat

darajada silliqlik xususiyatiga ega. Hissiyotlari, kayfiyatlari, qiziqishlari va intilishlari juda o'zgaruvchan. U yangi kishilar bilan tez kirishib ketadi. Yangi talablar, yangi sharoitga osonlik bilan o'rganadi. Bir ishdan ikkinchi ishga tez ko'cha oladi. Malakalarni tez o'zlashtiradi va tez qayta o'zgartiradi. Aqli ixcham. Ekstrovertlik xususiyatiga ega. O'tgan va kelajak hayot haqida tasavvurlariga qaraganda quyiroq tashqi taassurotlarga javob beradi.

Xolerik xuddi sangvinik kabi sust senzitivlik, yuksak reaktivlik hamda faollik bilan ajralib turadi, lekin faollikdan reaktivlik ustunlik qiladi. Shuning uchun u tinimsiz o'zini ushlay olmaydigan, betoqat, serzarda. Sangvinikka qaraganda ozroq silliq va ko'proq qotib qolgan. Shuning uchun intilishlari va qiziqishlarida katta barqarorlik, zo'r qat'iylik bor, diqqatini ko'chirishda qiyinchilikka uchraydi. Psixik tempi tez. Bir ishni boshlasa oxiriga etkazadi, ammo unga qiziqsa.

Flegmatik – senzitivligi sust, hissiy qo'zg'aluvchanligi oz, kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ammo bir narsa yuzasidan qattiq kulganda u vazminligicha qolaveradi. Katta ko'ngilsiz hodisa yuz berganda ham osoyishtaligini buzmaydi. Imo-ishoralari oz, harakatlari ifodasiz. G'ayrati ishchanligi bilan ajralib turadi. Yuksak faolligi oz, reaktivligidan ancha ustunlik qiladi. Chidamliligi, matonati, o'zini tuta bilish bilan ajralib turadi. Harakatlarining tempi va nutqining tempi sust, ifodasiz. Diqqatini sekinlik bilan to'playdi. Rigid (qotib qolgan), diqqatini qiyinchilik bilan ko'chiradi. Yangi sharoitga qiyinchilik bilan moslashadi. Introvert. Yangi odamlarga qiyinchilik bilan qo'shiladi. Tashqi taassurotlarga qiyinchilik bilan javob qaytaradi.

Melanxolik – yuksak senzitivlik xususiyatiga ega. Sezgirligi yuksak (sezgi chegaralari yuqori). Arzimagan sababga ko'ra, ko'zlaridan yosh oqib ketaveradi. Nihoyatda arazchan, sekin yig'laydi. Samimiy, juda oz kuladi, faolligi sust. O'ziga ishonmaydi, tortinchoq, ozgina qiyinchilik tug'iladigan bo'lsa, qo'lini yuvib qo'ltig'iga urib qo'ya qoladi. G'ayratsiz, qat'iy emas. Diqqati tez chalg'iydi, barqaror emas. Psixik tempi sust. Rigid (qotib qolgan). Introvertlik xususiyatiga ega.

*Iroda* kishining oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni engib o'tishga qaratilgan faoliyati, xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini

boshqarishidir. Iroda shaxs faolligining alohida shakli, uning xulq-atvorini tashkil etishning u tomonidan qo'yilgan maqsad bilan belgilana- digan alohida turidir. Shu ma'noda iroda to'siqlarni engib o'tishga qaratilgan aqliy, maqsadga yo'naltirilgan psixik faollik bo'lib, maqsadga intilishda sodir bo'ladi va instinktlar manbaida shakllanadi.

Irodaviy faoliyatda shaxs o'zini o'zi boshqaradi, o'zini qo'lga oladi, o'zi nazorat qiladi.

Iroda tabiat qonunlarini egallab oladigan va shu tariqa uni o'z ehtiyojlariga ko'ra o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladigan kishining mehnat faoliyatida paydo bo'ladi.

Iroda o'zaro bog'liq ikki vazifaning bajarilishini ta'min- laydi. Birinchisi – undovchi, ikkinchisi – taqiqlovchi vazifalar.

Undovchi vazifasi kishining faolligi bilan ta'minlanadi. Taqiqlovchi vazifasi faollikning yoqimsiz ko'rinishlarini jilov- lashda namoyon bo'ladi.

Kishining harakatga undovchi mayllari ma'lum bir yo'lga solingan tizimni – oziq- ovqatga, kiyim-kechakka, issiq va sovuqdan himoyalani- sh ehtiyojidan tortib, to ma'naviy, estetik va intellektual his-tuyg'ularni boshidan kechirish bilan bog'liq, yuksak niyatlarga borib taqaladigan motivlar ierarxiasini tashkil etadi. Irodaning undovchi va taqiqlovchi funktsiyalari bir butun holdagina shaxsning maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishini ta'minlaydi.

Odamlar qilgan ishlari uchun mas'uliyatni kimga yuklashga moyil bo'lishiga qarab sezilarli ravishda farqlanadilar. Kishining o'z faoliyati natijalari uchun mas'uliyatni tashqi kuchlar va sharoitlarga yuklashi yoki aksincha, ularni shaxsiy kuch- g'ayratlari va qobiliyatlariga bog'lashini belgilaydigan sifatlar *nazoratni lokallashtirish* deyiladi (psixologik adabiyotlarda «nazorat lokusi» degan atama qo'llaniladi, lotinchada «lokus» – «o'rnashgan joy» va frantsuzchada «controle» – «tekshirish» degan ma'nolarni anglatadi). O'z xulq-atvori va ishlari sabablarini tashqi omillar (taqdir, holatlar, tasodiflar va boshqalar)dan deb bilishga moyil bo'ladigan odamlar bor. Shunaqa paytda nazoratning tashqi (eksternal) lokallashtirilishi to'g'risida fikr yuritiladi.

*Muxandis kadrlarida irodaviy fazilatlarni shakllantirish faoliyat samaradorligini*

ta'minlovchi psixologik omillardan sanaladi. Muxandis kadrlari o'z kasbiy vazifalarini benuqson bajarishlarini qiyinlashtiradigan, ba'zan xizmat faoliyatlarida maqsadga erishish uchun to'sqinlik qiladigan turli to'siqlarga duchor bo'ladilar. Bunday vaziyatlarda ular ushbu qiyinchiliklar va to'siqlarni engishga undovchi iro- daviy fazilatlarini namoyon qilishlari muhimdir. Irodaviy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun mashg'ulotlar jarayoniga qo'yilgan vazifani bajarishga to'sqinlik qiluvchi muayyan elementlar, to'siqlarni kiritish katta yordam beradi.

Irodani mustaqil tarbiyalash usullari quyidagi shartlarni o'z ichiga oladi:

- 1) irodani tarbiyalashni nisbatan arziyas qiyinchiliklarni bartaraf etishdan boshlash;
- 2) qiyinchiliklarni va to'siqlarni bartaraf etish ma'lum maqsadga erishish uchun amalga oshirilishini tushunish;
- 3) qabul qilingan qaror bajarilishi kerakligi;
- 4) maqsadga erishish bosqichlarini ko'ra olish juda muhimdir.

Irodani tarbiyalashni arziyas qiyinchiliklarni bartaraf etishni odat qilishdan boshlash kerak. Dastlab unchalik katta bo'lmagan qiyinchilikni, vaqt o'tishi bilan kattaroq qiyinchilik- larni muntazam ravishda eng borib, kishi o'zining irodasini mashq qildiradi va chiniqtiradi.

Muxandiskadrlarining kasbiy faoliyatida hissiy-irodaviy holatlarning o'rni beqiyosdir. Chunki kadrning murakkab vaziyatlarda qulay ruhiy holatni saqlash qobiliyati faoliyat samaradorligini ta'minlovchi omillardan biri sanaladi.

Kadrning hissiy-irodaviy turg'unligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ekstremal vaziyatlarda harakat samaradorligini pasaytiruvchi, adashishlar tug'diruvchi psixologik reaksiyalarning yo'qligi;
- psixologik jihatdan murakkab sharoitlarda kasbiy vazifalarni bexato bajarish;
- kasbiy ziyraklikni saqlash, tavakkal, xavf-xatar, kutilmagan vaziyatlarga nisbatan oqilona ehtiyotkorlik bilan yondashish.

Shu nuqtai nazardan kadr faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan o'z xatti-harakatlarini boshqara olishi, o'z his-tuyg'ularini nazorat qila olishiga bog'liq.



Shuningdek, muxandiskadrlarining o'zlarini irodaviy boshqara olishi, murakkab vaziyatlarda tezkor, oqilona qarorlar qabul qilishi kasbiy qobiliyati bilan belgilanadi. Ya'ni kadr o'zini irodaviy boshqarish orqali salbiy hissiyotlarni yo'q qilishi, o'zida ishonch hissini uyg'otishi, diqqatini bir joyga jamlashi va butun kuchini qo'yilgan vazifani bajarishga safarbar etishi uning asosiy sifatlaridan sanaladi.

Kadr o'zining psixologik holati va xatti-harakatlarini boshqara olmasligi uning irodasi sustligi, ijtimoiy-psixologik sharoitlarga moslashish qobiliyatining pastligidan dalolat beradi va bu aksariyat hollarda salbiy oqibatlariga olib kelishi barchaga ma'lum.

Shu bois kadrlarning hissiy-irodaviy o'zini o'zi boshqarish yo'llari va usullarini egallashlari bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir. Xizmat faoliyatida kuchli irodaga ega bo'lgan, o'z hissiyotlarini boshqara oladigan, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishda o'zining jismoniy va aqliy imkoniyatlaridan oqilona foydalana oladigan kadr ko'proq muvaffaqiyatga erishadi.

Shu ma'noda hissiy-irodaviy boshqarishning asosiy maqsadi ham kadrning o'z ichki imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanishiga, ijodiy salohiyatining ochilishiga, kasbiy xislatlari va qobiliyatlari namoyon bo'lishiga yordam beradigan alohida psixologik xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Psixologiya fanning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davomida shaxsning o'ziga xos sifatleri, ya'ni temperament, xarakter va qobiliyatga nisbatan bildirilgan mulohazalar, uning moddiy asosi to'g'risidagi talqinlar xilma-xil bo'lib, shaxsning psixologik xususiyatlarini o'ziga xos tarzda tushuntirish uchun xizmat qilib kelgan.

*Temperament* lotincha «*temperamentum*» so'zidan olingan bo'lib, «aralashma» degan ma'noni anglatadi. Temperament to'g'risidagi dastlabki ta'limotni yunon olimi Gippokrat (eramizdan oldingi 460–356-yillarda yashagan) yaratgan bo'lib, uning tipologiyasi hozirgi davrgacha qo'llanilib kelinmoqda

*Psixikaning individual jihatdan o'ziga xos, tabiiy shartlashgan dinamik ko'rinishlari majmui kishining temperamenti deyiladi.*

Gippokratning to'rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya'ni «*temperament*» tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, holerik, flegmatik, melanxolik) ramziy ma'noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo'llanilib kelinmoqda. Organizmda

suyuqliklarning aralashuvi (u qonning ko'pligi bilan xarakterlanadi) *sangvinik* temperament (lotin tilidagi «sanguis» – «qon» so'zidan olingan); limfa ko'p bo'lganda *flegmatik* temperament (grekcha

«flegma» – shilimshiq parda degani); sariq o'tning ko'payganligini *holerik* temperament (grek tilidagi «hola» – «o't» so'zidan olingan); qora o't ko'p bo'lganda *melanxolik* temperament (grekcha «melayna hole» – «qora o't») deb ataladi.

Kishining temperamenti qanaqaligi haqida tasavvur odatda shu shaxsga xos bo'lgan ayrim psixologik xususiyatlar asosida vujudga keladi.

Psixik faollikka ega bo'lgan, atrofda bo'layotgan hodisalarga tez munosabat bildiruvchi, taassurotlarini tez-tez o'zgartirishga intiluvchi, ko'ngilsizliklarni nisbatan engil o'tkazib yuboruvchi, jonli, harakatchan bo'lgan kishi *sangvinik* deyiladi.

Yuragi keng, barqaror intilish va kayfiyatga, doimiy va chuqur his-tuyg'uga ega, harakatlari va nutqi bir maromida bo'lgan, ruhiy holatini tashqi tomonda ifoda etadigan kishi *flegmatik* deb ataladi.

Juda g'ayratli, ishga ehtiros bilan berilish qobiliyatiga ega bo'lgan, tez, qizg'in emotsional «portlash» va kayfiyatning keskin o'zgarishlariga moyil, ildam harakatlar qiladigan kishi *holerik* deb ataladi.

Ta'sirchan, chuqur kechinmali, gap ko'tara olmaydigan, atrofdagi voqealarga unchalik e'tibor bermaydigan, o'zini nazorat qila oladigan va sekin ovoz chiqaradigan kishilar *melanxoliklar* deb ataladi.

Temperament turlarining tasnifi (I.P. Pavlov ta'limotiga ko'ra):

- 1) kuchli, ehtirosli, behalovat – holerik;
- 2) kuchli, bosiq, epchil – sangvinik;
- 3) kuchli, bosiq, sust – flegmatik;
- 4) kuchsiz – melanxolik

## Temperament turlarining tizimli tavsifi<sup>7</sup>

<b>Ichki xususiyat</b>	<b>Holerik</b>	<b>Sangvinik</b>	<b>Flegmatik</b>	<b>Melanxolik</b>
<i>xulqi</i>	beqaror	barqaror	o`ta barqaror	juda beqaror
<i>hissiyoti</i>	kuchli, qisqa muddatli	yuzaki, qisqa muddatli	kuchsiz	chuqur va uzoq muddatli
<i>kayfiyati</i>	turg`un emas, yaxshi	turg`un, ko`tarinki ruhda	turg`un, doimo xursand va qayg`usiz	turg`un emas, pessimistik ruhda
<i>nutqi</i>	baland, keskin, bir xil emas	baland, jonli, bir xil sur`atda	ohista, bir ohangda	juda sekin
<i>sabri</i>	sust	boshqariladi	juda kuchli	besabr
<i>moslashish qobiliyati</i>	oson	juda oson	sekinlik bilan	juda qiyin
<i>muomalasi</i>	yuqori	o`rtacha	past	juda past
<i>o`zini tutishi</i>	tajovuzkor	do`stona	bosiq	qiyinchilikdan qochadi
<i>tanqidga munosabati</i>	asabiy	bosiq	befarq	qabul qilmaydi
<i>faoliyatga munosabati</i>	qiziqqon, berilib ishlaydi	jonli, ko`p gapirib ishlaydi	betinim ishlaydi	vaziyatga qarab turlicha, reaktiv
<i>yangilikka munosabati</i>	ijobiy	befarq	salbiy	manfaatli
<i>xavfga munosabati</i>	jangovar, tavakkaliga	yaxshi tayyorgarlikdan so`ng tavakkalsiz	sovuqqon, o`zidan chiqishi qiyin	xavotirli, o`zini yo`qotib qo`yadi
<b>maqsadga ixtisosa</b> <i>Xarakter shaxsning barqaror, ijtimoiy-individual xususiyati sifatida ntilish</i>	kuchli, bor imkoniyatini ishga soladi	tez etishish, to`siqlarni aylanib o`tish	qat`iyat bilan, shoshmasdan	to`siqlardan qochish orqali tez yoki sust
<i>imkoniyatni baholashi</i>	juda ortiqcha	bir muncha	real baho	hisoblay olmaydi
<i>ta`sirga berilish</i>	past	biroz mavjud	kuchsiz	juda kuchli

<sup>7</sup> Щекин Г. В. Визуальная психодиагностика и её методы. – К., 1991.

## ***Xarakter – shaxsning barqaror, ijtimoiy- individual xususiyati sifatida***

*Xarakter* – shaxsning faoliyat va muomalada tarkib topadigan va namoyon bo'ladigan barqaror individual xususiyati bo'lib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi.

Shaxs ba'zida o'z xarakteridan afsuslanadi, lekin boshqacha harakatni amalga oshirishni uddasidan chiqq olmaydi. Xorijiy psixologlarning tasdiqlashicha, ayrim insonlar faoliyatida muvaffaqiyatsizlikka uchrashidan xavfsirab, o'z yutuqlarini qadrlaydilar va yuqori baholaydilar. Boshqa toifadagi odamlar muvaffaqiyat- sizlikdan cho'chiydilar, o'ta ehtiyotkor bo'ladilar, qiyinchilikdan qo'rqib, engil ishga qo'l urishni lozim topadilar. Fanda shaxsning munosabatlarini aks ettiruvchi xarakterni quyidagi to'rt tizimga ajratish qabul qilingan:

1. Jamoaga (guruhga) va ba'zi bir insonlarga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik va boshqalar.

2. Mehnatga nisbatan munosabatni mujassamlashtiruvchi xususiyatlar: mehnatsevarlik, dangasalik, vijdonlilik, mas'uliyatlilik, mas'uliyatsizlik kabilar.

3. Narsalarga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi xususiyat- lar: ozodalik, ifloslik, ayash, ayamasklik va hokazo.

4. Shaxsning o'ziga nisbatan munosabatini ifodalovchi xislat- lar: izzat- nafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, takabburlik, dimog'dorlik, kamtarinlik, samimiylik va boshqalar.

*Xarakter va kishining tashqi ko'rinishi.* Psixologiya tarixida inson bosh suyagining shakliga, yuz tuzilishiga, qaddi-qomatiga (tana tuzilishi va hokazolarga) ya'ni ayrim tashqi alomatlariga qarab kishi xarakterini belgilash nazariyalari mavjud bo'lgan. *Arastu* va *Aflotun* ham kishi xarakterini tashqi ko'rinishiga qarab aniqlashni taklif qilganlar qatoriga kiradi. Ularning xarakterni o'rganish nazariyasi asosi qanchalik sodda bo'lsa, shunchalik g'aroyib faraz yotdi. Masalan, kishining tashqi ko'rinishida qandaydir hayvon bilan o'xshashlik belgisini topish tavsiya qilingan, so'ngra esa uning xakteri ana shu hayvonning xakteri bilan aynan bir xil deb

qaralgan. Arastuning fikricha, buqaniki singari yo'g'on burun ish yoqmaslikni bildiradi<sup>8</sup>.

Qobiliyat shaxs faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblab, zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash- ning o'sishida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatdir.

*Qobiliyat individual-psixologik xususiyat bo'lib, bir odamning boshqa bir odamdan farq qiladigan belgilari sifatida ta'riflanadi.*

Qobiliyat umumiy va maxsus turga bo'linadi.

Shaxsning umumiy qobiliyati yoki umumiy fazilati muayyan psixologik ko'rinishlarga ega bo'lib, ularni tadqiq qilishga psixologlar allaqachon kirishgan. Shaxsning aniq faoliyat sharoitida qobiliyat sifatida namoyon bo'ladigan umumiy fazilatlari jumlasiga odamlarning uch tipdan bittasiga mansubligini ko'rsatadigan individual-psixologik fazilat kiradi.

*Iste'dod, uning tuzilishi va paydo bo'lishi.* Qobiliyat taraqqiyotining yuksak bosqichi iste'dod deb ataladi. Psixologik adabiyotlarda unga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, uning asosiy belgilar ta'kidlab o'tiladi. Chunonchi, shaxsga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasi *iste'dod* deyiladi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Menejerni psixologik qarashlarining keng qamrovli bo'lishi va global yondashuvni amalga oshira olishi.
2. Maqsadni aniq ko'ra olish, ko'lamini aniq tassavvur etish, juratli, qattiyatli, mard bo'lish, tirishqoqlik bilan ishlash va uzluksiz o'qish.
3. O'zgalar fikrini tinglashga tayyor turish, xolislik, beg'arazlik, to'g'rilik, o'z imkoniyatlari to'liq ishga solish, jamoani shakllantira olish, shaxsiy tarovati va sog'lom bo'lishi.

---

<sup>8</sup> Umumiy psixologiya G' A.V. Petrovskiy tahriri ostida. – T., 1992. – B. 467.

## X - BOB. RAHBAR SHAXSI PSIXOLOGIYASI.

### Boshqaruv jarayoni psixologik tahlilida shaxs masalasi

Shaxs tushunchasi psixologiya fanida markaziy o‘rinni egallaydi va asosiy psixologik talqinlar shaxs mavzusi atrofida amalga oshadi.

Shaxsning turli ta’riflari mavjud, lekin bu tushunchani to‘laroq aks ettiradigan quyidagisi o‘rinli: «Shaxs bu - o‘zining bilimi, hissiyoti va munosabatlari orqali tashqi olamni o‘zgartira oluvchi sub’ekt, insondir»<sup>1</sup>. E’tibor berilsa, ushbu ta’rifda shaxsga xos uch jihat sanab o‘tiladi: 1. Bilish; 2. Hissiyot; 3. Munosabat. Shu uch guruhga kiruvchi xislatlar yagona maqsadga, ya’ni tashqi olamni insonning o‘z ehtiyojiga binoan o‘zgartirishga qaratilgan.

Ishlab chiqarish sharoitida inson xulqini tushunish va uni boshqarish uchun shaxs tabiati haqida ma’lum bir ma’lumotga ega bo‘lish kerak. Tashkilotda shaxs o‘zgalar bilan munosabatga kirishar ekan, demak, u turli ijtimoiy guruhlar faoliyatida qatnashadi. Shu munosabat bilan shaxs a’zo bo‘lgan guruh va jamoalarga xos psixologik qonunlarni ham tahlil etish zarurati tug‘iladi. Ushbu bo‘limda esa aynan rahbar shaxsi, uning muvaffaqiyatli boshqaruv faoliyati uchun xos va zurur xislatlar haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Boshqaruv jarayonini psixologik tahlil etish masalasi, avvalambor, rahbarning faoliyatini takomillashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun rahbarga qo‘yiladigan talablar, ularni bajarishga moyillik va boshqaruv faoliyatini to‘laqonli amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi shaxs xususiyatlarini o‘rganish zarurati tug‘iladi.

**Rahbar shaxs xislatlari.** Rahbar shaxsi tushunchasini tahlil etar ekanmiz, unga xos xususiyatlarni uch guruhga bo‘lib o‘rganish taklif qilinadi:

1. Biografik tavsif
2. Qobiliyat

Shaxs xislatlari Rahbar shaxsining biografik jihatlariga uning yoshi, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy mavqei va ma’lumoti kiradi. **Rahbar yoshi.** Boshqaruv

faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning rahbar yoshiga bogʻliqligi rivojlangan mamlakatlar tadqiqotlariga asoslanadi. Aniqlanishicha, Yaponiya qayta ishlab chiqarish yirik kompaniyalari rahbarlarining oʻrtacha yoshi 63,5 boʻlsa, shu toifa amerikalik rahbarlarning yoshi 59 da ekan<sup>3</sup>. Yaponiya yirik kompaniya rahbarlarini oʻrganishda uchraydigan va taajjublanarli jihatlardan biri, ularning yoshi ulugʻligidir. Baʼzi bir tashkilotlarda (masalan, «Soni korporeyshn») kompaniya prezidentining yoshi 65 deb cheklangan boʻlsa-da, lekin koʻpgina avtomobil sohasidagi firma rahbarlarining yoshi 75 va undan yuqoriligi ajablanarli hol emas. Umuman olganda, Yaponiyada xodimning korxonaga bir umr yollanish tajribasi qoʻllanadi. Maʼlum boʻlishicha, yuqori boʻgʻin rahbarlarining koʻpchiligi oʻz tashkilotida 30 yildan ortiq ishlaydi. Bu sohada oʻtkazilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, katta yoshli rahbarlar, agar ularning sogʻligi koʻngildagiday boʻlsa, ushbu tashkilot uchun katta tajriba manbaidir. Rahbarning ulugʻ yoshi haqida gapirar ekanmiz, nafaqat uning biologik jihati, balki, ijtimoiy tomoni, hayotiy tajribasini ham nazarda tutishimiz darkor. Zero, «Qari bilganni pari bilmas», deb xalqimiz bejiz aytishmagan. Biroq, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyaning kirib kelishi, ularni oʻzlashtirishda maʼlum mahoratni talab qiladi. Baxtga qarshi, hozirgacha kompyuterda ishlashni oʻrganolmayotgan katta yoshli rahbarlarni uchratish qiyin emas. Shu jihatdan olganda, yosh rahbar koʻpincha tashkilotga ilgʻor texnologiya va tezkorlik olib kiruvchi omil sifatida qabul qilinadi.

Yosh rahbar boshqaradigan tashkilotdagi xodimlarning oʻrtacha yosh koʻrsatkichi koʻpincha past boʻladi. Yoshlik (30-35 yosh atrofida) bu yangilik va kashfiyotlarga moyillik, ijodiylik, qoʻrqmaslik va oʻzguruvchan muhitga moslashuvchanlik bilan ifodalanadi. Afsuski, bunday tashkilotda katta yoshdagi (40-45 dan yuqori) xodimlarga, hatto, shubha bilan qarashadi. Lekin, aniqlanishicha, inson 35-55 yoshlarida oʻz kasbining mohir ustasiga aylanadi, oʻz sohasidagi bilimni yaxshi egallaydi va ixtirolarni joriy etishga oʻzida ishtiyoq sezadi. Shu bilan birga, unda vaziyatni sovuqqonlik bilan tahlil etish, vazminlik

kayfiyati shakllanadi.

Albatta, hamma yosh rahbar ilgʻor texnologiya tarafdori va shunga moyil deb aytish qiyin, lekin yoshlarga zamonaviylik xos. Bu esa oʻz navbatida, yosh rahbarning zamonaviy va ilgʻor ishlab chiqarish uslublariga murojaat etish ehtimolini kuchaytiradi. Xalqimizda, yoshi katta boʻlsa ham koʻngli yosh degan ibora bor. Demak, zamonaviy rahbar yoshidan qatʻi nazar ilgʻor texnologiyalar tarafdori, tashkilot miqyosida zamonaviy ishlab chiqarishni joriy etishga qobiliyatli boʻlishi lozim. Bu esa oʻtish davri talabidir.

### ***Rahbar jinsining boshqarudagi oʻrni.***

Inson jinsi, uning ayni bir rolga amal qilishini taqozo etadi. Ayniqsa, bu holat sharq mamlakatlari, hududimiz sharoitida yaqqol namoyon boʻladi. Bu hududda erkak va ayolga xos jinsiy ijtimoiy normalar aniq belgilangan. Modomiki shunday ekan, inson amalga oshirayotgan koʻpgina xatti-harakat aynan shu jinsiy rol mezoni taʼsirida idrok etiladi. Hozir, insonning jinsiy mansubligiga qaramay, kasb yoki lavozim pogʻonasida katta imkoniyatlar paydo boʻlayotganini koʻramiz. Mamlakatimizda tadbirkorlik va davlat boshqaruvi sohasida ayollarga katta yoʻl ochilgan. Ammo, shunga qaramay, rahbar soʻzi koʻpincha erkak jinsi bilan ifodalanadi va negadir, ayol rahbar idora etadigan sohalar, jumladan, maorif, sogʻliqni saqlash, aholiga xizmat koʻrsatishdan nariga oʻtilmaydi.

Haqiqatdan ham ayolning u yoki bu sohada boshqaruv lavozimini egallashi, koʻp jihatdan, bu soha ayollarga mosmi yoki erkaklargami degan savolga bogʻliq boʻlib qolgan. Bir qator tadqiqotlar orqali aniqlanishicha, erkak va ayol aralash ishlaydigan guruhda koʻpincha erkaklar tashabbusni oʻz qoʻllariga olar emish. Tadqiqotchi Ye. Xollander tajribasiga koʻra, guruh doirasida hal etiladigan vazifani echishda erkaklar koʻproq maqbul yoʻl topa olishadi, ayol va erkaklardan iborat aralash guruhda esa ustunlikka intilishadi. Olimning tushuntirishicha, erkaklarga xos bunday xatti-harakat, koʻp jihatdan, jamiyatda oʻrnatilgan normalar va erkaklar xulqiga oid ustanovka, yaʼni kutuvlardan kelib



chiqadi. Bunday ustanovkalar asosidagi standartlar atrofdagilarning bo'layotgan voqea-hodisalarni idrok etishiga ham katta ta'sir etadi. Masalan, psixolog R. Rays o'tkazgan tajribada quyidagi manzara kuzatiladi: tajriba davomida, harbiy o'quv yurti kursantlarida ayollarga nisbatan ma'lum (unchalik ijobiy bo'lmagan) ustanovka shakllantirilgan. Shundan so'ng, kursantlarni uchtdan qilib ikki guruhga bo'lishgan va laboratoriya sharoitidagi tajribada qatnashishga taklif etishgan. Ikki guruh kursantga ikki rahbar – biri erkak, ikkinchisi ayol boshchilik qilgan. Guruhlar ma'lum bir murakkab vazifalarni hal etishgan va echim davomida rahbar faol o'rinni egallagan. Aniqlanishicha, ayol rahbarlik qilgan kursantlar guruh muvaffaqiyatini tasodifga yo'yishgan, erkak rahbar bo'lgan guruhdagi kursantlar esa muvaffaqiyatda aynan rahbarning qobiliyatini etakchi deb ko'rsatishgan. Mazkur tajriba shundan dalolat beradiki, atrofdagi voqealarni baholashimiz ko'p jihatdan ayni jamiyatda qabul qilingan norma va me'yorlarga bog'liq.

Boshqaruv amaliyotida va shuningdek, ba'zi bir adabiyotlarda, erkak rahbar faoliyati ayol rahbarlikiga nisbatan anchagina samarali degan tasavvur mavjud. Odatda, bunday fikrga quyidagi dalillar keltiriladi: erkak yorqin ifodalangan mantiqiy fikrlash xususiyatiga ega emish, ayol esa ko'pincha hissiyotga; erkak o'z ishiga fidoyi desak, ayol qimmatli vaqtini oilaga sarflaydi. Chunonchi, erkak turli salbiy ta'sirlarga, stresslarga chidamli bo'lsa, ayol murakkab vaziyatda hatto aqlini «yo'qotib» qo'yishi mumkin ekan.

Ammo, hayot buning aksini ko'rsatib turibdiki, ayni payt ishlab chiqarishni samarali boshqarayotgan ayollarni ko'plab uchratish mumkin. Jinsiy tafovutlarni tahlil etishda samaradan ko'ra boshqaruv uslubi haqida gapirsa, o'rinliroq bo'ladi. Erkak rahbar asosiy diqqat-e'tiborini ishlab chiqarish muammolariga taalluqli vazifalarga qaratsa, ayol rahbar ko'proq jamoaning ijtimoiy–psixologik jihatlariga, psixologik muhitni sog'lomlashtirishga qaratadi, degan xulosalar ham kam emas. Albatta, bu fikr bir qancha bahs va munozaraga sabab bo'lsa-da, endilikda qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazishni ham taqozo etayapti.

Xo'sh, aslida erkak va ayol rahbarlar muvaffaqiyatga erishishlarida

ma'lum farq, tafovut mavjudmi, degan savolga quyidagi javobni olamiz. Taniqli olim F. Denmark, katta hajmdagi tadqiqotlari asosida shunday xulosaga keldiki, boshqaruv sohasida muvaffaqiyatga erishishda sezilarli jinsiy tafovutlar kuzatilmagan ekan. Ayol va erkak menejrlarning boshqaruv faoliyatidagi farq shundan iborat ekanki, ayollar jamoadagi insoniy munosabatlarga ko'proq e'tibor beradilar. Erkak va ayol menejrlarga xos jinsiy psixologik farqning bo'lishi tabiiy, lekin jamoa oldida turgan vazifani bajarish, ko'zlangan maqsadga erishish borasida jinsiy tafovut kuzatilmaydi. Nazarimizda, bu muvaffaqiyatlar sababi jinsga xos bo'lmagan omillar bilan belgilanadi. Masalan, shaxsning ko'pgina ishchanlik fazilatlari jinsiy moyilliklar bilan emas, balki ijtimoiy qadriyatlar, xarakterdagi xususiyatlarga asoslanadi. Xususan, insoniy munosabatlarga e'tibor, ko'ngilchanlik, boshqaruvda demokratik tamoyillarga suyanish, ayollarda ko'proq uchraydi va bu ko'rsatkichlar ma'lum ma'noda jamoa faolligiga ijobiy ta'sir etuvchi omillardir.

Bir qator tajriba va kuzatish natijalari yana bir boshqa ma'lumotlarni ham beradi. Rahbarlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, erkak va ayol rahbar o'z uslublarida shunchalik qarama-qarshi jins xususiyatlarini namoyish etadilar. Erkak rahbar erkakka xos xislatdan tashqari ayolga xos ayrim fazilatlarni ham boshqaruv amaliyotida qo'llashini ko'ramiz: ko'ngilchanlik, nozik didlik, intuitsiya... O'z navbatida ayollar ham erkaklarga xos sifatlarni o'z faoliyatlarida qo'llaydilar: mustahkam iroda, qat'iylik, faollik, tirishqoqlik... Demak, boshqaruv samarasini jinsiy mansublik bilan bog'lash noto'g'ridir. Bu o'rinda boshqa omillar ahamiyatliroq hisoblanadi. Misol uchun intellekt, qadriyatlar, shaxs xususiyatlari, ma'lumot darajasi, boshqaruv sohasidagi tajriba kabi ko'rsatkichlarni keltirish mumkin.

**Biografik jihatlar** qatoriga *shaxsning ijtimoiy-iktisodiy mavqei* va uning *ma'lumoti darajasini* kiritish mumkin. Boshqaruv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda mavqe va ma'lumot ham muhim omil sanaladi. Biznes boshqaruvi sohasidagi olim R. Stogdill muallifligidagi «Boshqaruv qo'llanmasida» ta'kidlanishicha, muvaffaqiyatli boshqaruv va shaxsning

ijtimoiy-iqtisodiy mavqei o'rtasidagi bog'liqlik 94% ga teng hamda ma'lumoti o'rtasidagi bog'liqlik esa, 88% ga tengdir. Yaponiyalik tadqiqotchi T. Kono ma'lumotiga ko'ra, oddiy yapon menejeri, albatta, muxandislik mutaxassisligi yoki ijtimoiy fanlar bo'yicha universitet diplomiga ega bo'lishi shart. Ko'p hollarda menejerlar ikki mutaxassislik diplomiga ega bo'lsa, bir qator etakchi biznesmenlar va yirik rahbarlarning biografik tahlili ularning yuqori ma'lumotga ega ekanliklaridan dalolat beradi.

Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei rahbarlik faoliyatini bajarishida kuchli omil hisoblanadi. Buning ahamiyati ayniqsa, sharq madaniyati misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Hududimizdagi oddiy fuqaro rahbar shaxsida nufuzli, o'ziga to'q va to'la-to'kis insonni ko'rishni xohlaydi. Rahbar mayda iqtisodiy muammolarni bema'lol hal qila olishi, katta ijtimoiy aloqalarga molik ekanligi bilan hamda o'z aqliy qobiliyati, tajribasi bo'yicha boshqa xodimlardan ustun turishi lozim.

Rahbarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei dastlabki paytlarda etakchi rolini o'ynaydi. Keyinchalik esa u haqdagi bo'lgan jamoa tasavvuri rahbarning vazifalarni ado etish qobiliyatiga borib taqaladi. Ammo, shaxs shakllangan muhitning rahbarlikka, shuningdek, oilaviy an'analarning boshqaruv qobiliyati rivojlanishiga ta'sirini o'rganish ham o'ta ahamiyatlidir. Haqiqatan, rahbar oilasida tug'ilish, ulg'ayish davomida ota tajribasini o'zlashtirish dominantlikka, ya'ni ustunlikka moyillikning shakllanishiga asos bo'lishi mumkin. Biznes boshqaruvi sohasidagi olim F.Fidler ta'rifi bo'yicha «kompaniya prezidenti bo'lishning eng ishonchli omili – kompaniyaga egalik qiladigan oilada tug'ilishdir». Lekin, Li Yakokka kabi buyuk menejerning biografiyasi tamoman yuqoridagi ta'rifni inkor etadi<sup>4</sup>. Binobarin, bu shaxs rahbarlikning past qatlamlaridan, uning eng yuqori cho'qqilariga ko'tarildi.

Bir qator mashhur tadbirkorlar o'tmishini tahlil etish natijasida aniqlandiki, ularning ko'pchiligi oilada to'ng'ich farzand bo'lib o'sishgan. Darhaqiqat, oilada to'ng'ichlik o'z mavqeiga ko'ra ma'lum mas'uliyat ham demakdir. O'zbek oilalaridagi ko'pbolalik sharoiti to'ng'ich farzandga ota- onaga madadkor

bo'lish, kichiklarga rahnamolik qilish va nazoratni o'z bo'yniga olishini taqozo etadi. Bu esa shakllanayotgan shaxsning tashkilotchilik va nazoratga bo'lgan imkoniyatini yanada oshiradi, kelgusi faoliyatida o'z-o'zini idora eta olish qobiliyatini shakllantiradi.

**Hayot tajribasi.** Inson tajribasi va uning boshqaruv faoliyatida namoyon bo'lishi ikki asosiy masala orqali tahlil qilinadi. Birinchidan, yuqori bo'g'in rahbari uchun boshqaruv tajribasi zarur, shuningdek, ulardan hayotiy tajribaga ega bo'lish ham talab qilinadi. Ikkinchidan, o'rta bo'g'in rahbarida esa o'z sohasi bo'yicha kamida uch yillik tajriba bo'lishi lozim. Bu toifa rahbar tajribasini tahlil etar ekanmiz, asosiy e'tibor kasb sohasiga qaratiladi.

**Qobiliyat.** Odatda psixologiya fanida qobiliyatning umumiy va maxsus turlari ko'rsatiladi. Umumiy qobiliyatlar shaxsning har qanday faoliyatga kirishishida muvaffaqiyat uchun imkoniyat yaratasa, maxsus qobiliyat faqat ayrim yo'nalishdagi faoliyat turida muvaffaqiyatga erishish uchun asos bo'ladi. Mana shunday umumiy qobiliyat turkumiga inson aqlini, ya'ni intellektni kiritish mumkin. Rahbar intellekti qanchalik yuqori bo'lishi kerak, degan savol, albatta, bahsdan xoli emas. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'ta yuqori intellekt yuksak rahbarlik malakalarini amalga oshirishga xalaqit berar ekan. Shunday deyishning asoslaridan biri

- qaror qabul qilishda haddan tashqari aql ishlatish bu jarayonni yanada cho'zib yuborishi mumkin. Shuning uchun boshqa bir qator tadqiqotchilar, rahbarda nazariy aqldan ko'ra, amaliy aql rivojlangan bo'lishi kerak, degan to'xtamga kelishadi. Yaponiyalik olimlarning kuzatishlaricha, maktab va universitetda yuqori baholarda o'qigan talabalar keyinchalik xizmat davomida unchalik katta lavozimlarga erisholmaganlar.
- fikricha bunga sabab, a'lochi talabalarning Yaponiya kompaniyalariga xos bo'lgan guruh tabiatni o'zlashtira ololmaganliklaridadir. Aynan tashkilotchilik xislati ko'pchilik menejerlarning lavozimda o'sishlari uchun asosiy omil bo'lgan. Intellektning muvaffaqiyatli boshqaruvga ta'sir etishida ko'pgina oraliq omillar mavjuddir. Ulardan eng asosiylari - boshqaruvga bo'lgan

ishtiyoqning mavjudligi, rahbarlik sohasidagi boy tajriba, shuningdek, yuqori bo'g'in rahbarlari va xodimlar o'rtasidagi ijobiy munosabat nazarda tutiladi.

- Yuqori bo'g'inga mansub rahbar o'z boshqaruv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun anchagina yuksak aqliy ko'rsatkichga ega bo'lishi kerak. Bunday salohiyat kutilmagan vaziyatni tahlil etishda, muammoni hal qilish jarayonida bir necha vazifani parallel ravishda boshqarish zaruratidan kelib chiqadi. Masalan, tashkilotchilik, masalaga oid echimni taklif etish, tashkilot va guruh manfaatlari haqida g'amxo'rlik va h.k.
- Lavozim talablari turli bo'g'in rahbarlari uchun turlicha aqliy salohiyat zarurligini ta'kidlaydi. Yuqori bo'g'in rahbarlari aniq ifodalangan ijtimoiy intellektga ega bo'lishlari shart. Ular tashabbuskor, muloqotga boy, yuksak siyosiy va ijtimoiy mavqega ega, ishga aloqadar tanish-bilishlari ko'p, intuitsiyasi rivojlangan va tashkilot faoliyatining qaerga yo'nalishini tezda payqab olishlari kerak.
- Har qanday tashkilotdagi asosiy og'irlikni o'ziga oluvchi o'rta bo'g'in rahbarlarida esa maxsus qobiliyat ko'proq rivojlangan bo'lishi lozim. Ular ishga diqqat-e'tiborli, mas'uliyatli, katta hajmdagi miqdoriy va sifat ma'lumotlarini tahlil etish qobiliyatiga ega shaxslardir.

**Shaxsiy xislatlar.** Yuqorida aytib o'tilgan umumiy qobiliyatlar, muvaffaqiyatli boshqaruvni ta'minlovchi zarur shaxs xislatlarini aniqlash, va ularni rahbarlikda rivojlantirish masalasini dolzarb qilib qo'yadi. Natijada nafaqat mazkur xislatlarni aniqlash, balki bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni tashkil etish bo'yicha bir qator vazifalarni hal etishni talab qiladi. Bu borada amaliy faoliyat olib boruvchi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, rahbarlarni baholash kadrlar bilan ishlash masalasining eng nozik qismiga aylangan. Ma'lumki, fikricha bunga sabab, a'lochi talabalarning Yaponiya kompaniyalariga xos bo'lgan guruh tabiatni o'zlashtira ololmaganliklaridadir. Aynan tashkilotchilik xislati ko'pchilik menejerlarning lavozimda o'sishlari uchun asosiy omil bo'lgan. Intellektning muvaffaqiyatli boshqaruvga ta'sir etishida ko'pgina oraliq omillar mavjuddir. Ulardan eng asosiylari - boshqaruvga bo'lgan ishtiyoqning mavjudligi, rahbarlik

sohasidagi boy tajriba, shuningdek, yuqori bo'g'in rahbarlari va xodimlar o'rtasidagi ijobiy munosabat nazarda tutiladi.

Yuqori bo'g'inga mansub rahbar o'z boshqaruv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun anchagina yuksak aqliy ko'rsatkichga ega bo'lishi kerak. Bunday salohiyat kutilmagan vaziyatni tahlil etishda, muammoni hal qilish jarayonida bir necha vazifani parallel ravishda boshqarish zaruratidan kelib chiqadi. Masalan, tashkilotchilik, masalaga oid echimni taklif etish, tashkilot va guruh manfaatlari haqida g'amxo'rlik va h.k.

Lavozim talablari turli bo'g'in rahbarlari uchun turlicha aqliy salohiyat zarurligini ta'kidlaydi. Yuqori bo'g'in rahbarlari aniq ifodalangan ijtimoiy intellektga ega bo'lishlari shart. Ular tashabbuskor, muloqotga boy, yuksak siyosiy va ijtimoiy mavqega ega, ishga aloqadar tanish-bilishlari ko'p, intuitsiyasi rivojlangan va tashkilot faoliyatining qaerga yo'nalishini tezda payqab olishlari kerak.

Har qanday tashkilotdagi asosiy og'irlikni o'ziga oluvchi o'rta bo'g'in rahbarlarida esa maxsus qobiliyat ko'proq rivojlangan bo'lishi lozim. Ular ishga diqqat-e'tiborli, mas'uliyatli, katta hajmdagi miqdoriy va sifat ma'lumotlarini tahlil etish qobiliyatiga ega shaxslardir.

- **Shaxsiy xislatlar.** Yuqorida aytib o'tilgan umumiy qobiliyatlar, muvaffaqiyatli boshqaruvni ta'minlovchi zarur shaxs xislatlarini aniqlash, va ularni rahbarlikda rivojlantirish masalasini dolzarb qilib qo'yadi. Natijada nafaqat mazkur xislatlarni aniqlash, balki bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni tashkil etish bo'yicha bir qator vazifalarni hal etishni talab qiladi. Bu borada amaliy faoliyat olib boruvchi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, rahbarlarni baholash kadrlar bilan ishlash masalasining eng nozik qismiga aylangan.

fikricha bunga sabab, a'lochi talabalarning Yaponiya kompaniyalariga xos bo'lgan guruh tabiatni o'zlashtira ololmaganliklaridadir. Aynan tashkilotchilik xislati ko'pchilik menejerlarning lavozimda o'sishlari uchun asosiy omil bo'lgan. Intellektning muvaffaqiyatli boshqaruvga ta'sir etishida ko'pgina oraliq omillar mavjuddir. Ulardan eng asosiylari - boshqaruvga bo'lgan ishtiyoqning

mavjudligi, rahbarlik sohasidagi boy tajriba, shuningdek, yuqori bo'g'in rahbarlari va xodimlar o'rtasidagi ijobiy munosabat nazarda tutiladi.

Yuqori bo'g'inga mansub rahbar o'z boshqaruv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun anchagina yuksak aqliy ko'rsatkichga ega bo'lishi kerak. Bunday salohiyat kutilmagan vaziyatni tahlil etishda, muammoni hal qilish jarayonida bir necha vazifani parallel ravishda boshqarish zaruratidan kelib chiqadi. Masalan, tashkilotchilik, masalaga oid echimni taklif etish, tashkilot va guruh manfaatlari haqida g'amxo'rlik va h.k.

Lavozim talablari turli bo'g'in rahbarlari uchun turlicha aqliy salohiyat zarurligini ta'kidlaydi. Yuqori bo'g'in rahbarlari aniq ifodalangan ijtimoiy intellektga ega bo'lishlari shart. Ular tashabbuskor, muloqotga boy, yuksak siyosiy va ijtimoiy mavqega ega, ishga aloqadar tanish-bilishlari ko'p, intuitsiyasi rivojlangan va tashkilot faoliyatining qaerga yo'nalishini tezda payqab olishlari kerak.

Har qanday tashkilotdagi asosiy og'irlikni o'ziga oluvchi o'rta bo'g'in rahbarlarida esa maxsus qobiliyat ko'proq rivojlangan bo'lishi lozim. Ular ishga diqqat-e'tiborli, mas'uliyatli, katta hajmdagi miqdoriy va sifat ma'lumotlarini tahlil etish qobiliyatiga ega shaxslardir.

**Shaxsiy xislatlar.** Yuqorida aytib o'tilgan umumiy qobiliyatlar, muvaffaqiyatli boshqaruvni ta'minlovchi zarur shaxs xislatlarini aniqlash, va ularni rahbarlikda rivojlantirish masalasini dolzarb qilib qo'yadi. Natijada nafaqat mazkur xislatlarni aniqlash, balki bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni tashkil etish bo'yicha bir qator vazifalarni hal etishni talab qiladi. Bu borada amaliy faoliyat olib boruvchi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, rahbarlarni baholash kadrlar bilan ishlash masalasining eng nozik qismiga aylangan. Ma'lumki, rahbarlikka oid shaxs xislatlarini aniqlovchi bir qancha psixologik metodlar mavjud bo'lib, ularni muvaffaqiyatli qo'llay olish bir tomondan tadqiqotchi malakasiga kelib taqalsa, ikkinchi tomondan ushbu metodikalarning ishchanligi va olingan ma'lumotlarning haqqoniyligi masalasi turadi. Masalan, g'arbda ishlab chiqilgan test va so'rovnomalarni mahalliy hududimizga, mentalitetimizga

moslashtirish shu vaqtgacha dolzarb bo'lib kelganiga guvohmiz.

Muvaffaqiyatli rahbarlikka oid shaxs xislatlarini talqin etarkanmiz, shu mavzu yuzasidan chet el olimlari tomonidan o'tkazilgan ba'zi bir tadqiqot natijalariga murojaat etamiz. Amerika va Yaponiyalik 1500 menejerlarni o'rganish asosida samarali rahbarlikka oid quyidagi xislatlar ajratib ko'rsatiladi:<sup>5</sup>

- strategik rejalashtirishga moyillikning kuchliligi;
  - ishchilarni, mehnat resurslarini taqsimlash bo'yicha maqbul va o'z vaqtida qaror qabul qilish;
  - faoliyat doirasini kengaytirish yoki yuksak tartibda mehnat qilish evaziga o'z mas'uliyatini oshirishga intilish;
  - xavfli sharoitda ijodiy va ratsional qaror qabul qila olish;
  - o'z kuchiga cheksiz ishonch;
  - o'z huquqlarini anglash va mas'uliyatni his qilish;
  - kezi kelganda qurbon berishga ham tayyor turish;
  - muloqot malakalarini mukammallashtirishga intilish;
  - murakkab va inqirozli vaziyatdagi jarayonlarni tahlil etish va intuitiv tarzda bashorat qila olish;
  - mehnatga yuksak qadriyat sifatida qarash va unga butun kuch- g'ayratni safarbar etish;
  - aybdorni izlash emas, balki muammoni hal etishga intilish, tavakkaldan qo'rqmaydigan va mustaqil fikrdagi xodimlar bilan ishlash xohishi;
- amalgacha oshirilayotgan g'oya va natijalarni ishlab chiqarishga fikricha bunga sabab, a'lochi talabalarning Yaponiya kompaniyalariga xos bo'lgan guruh tabiatni o'zlashtira ololmaganliklaridadir. Aynan tashkilotchilik xislati ko'pchilik menejerlarning lavozimda o'sishlari uchun asosiy omil bo'lgan. Intellectning muvaffaqiyatli boshqaruvga ta'sir etishida ko'pgina oraliq omillar mavjuddir. Ulardan eng asosiylari - boshqaruvga bo'lgan ishtiyoqning mavjudligi, rahbarlik sohasidagi boy tajriba,



shuningdek, yuqori bo'g'in rahbarlari va xodimlar o'rtasidagi ijobiy munosabat nazarda tutiladi.

Yuqori bo'g'inga mansub rahbar o'z boshqaruv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun anchagina yuksak aqliy ko'rsatkichga ega bo'lishi kerak. Bunday salohiyat kutilmagan vaziyatni tahlil etishda, muammoni hal qilish jarayonida bir necha vazifani parallel ravishda boshqarish zaruratidan kelib chiqadi. Masalan, tashkilotchilik, masalaga oid echimni taklif etish, tashkilot va guruh manfaatlari haqida g'amxo'rlik va h.k.

Lavozim talablari turli bo'g'in rahbarlari uchun turlicha aqliy salohiyat zarurligini ta'kidlaydi. Yuqori bo'g'in rahbarlari aniq ifodalangan ijtimoiy intellektga ega bo'lishlari shart. Ular tashabbuskor, muloqotga boy, yuksak siyosiy va ijtimoiy mavqega ega, ishga aloqadar tanish-bilishlari ko'p, intuitsiyasi rivojlangan va tashkilot faoliyatining qaerga yo'nalishini tezda payqab olishlari kerak.

Har qanday tashkilotdagi asosiy og'irlikni o'ziga oluvchi o'rta bo'g'in rahbarlarida esa maxsus qobiliyat ko'proq rivojlangan bo'lishi lozim. Ular ishga diqqat-e'tiborli, mas'uliyatli, katta hajmdagi miqdoriy va sifat ma'lumotlarini tahlil etish qobiliyatiga ega shaxslardir.

**Shaxsiy xislatlar.** Yuqorida aytib o'tilgan umumiy qobiliyatlar, muvaffaqiyatli boshqaruvni ta'minlovchi zarur shaxs xislatlarini aniqlash, va ularni rahbarlikda rivojlantirish masalasini dolzarb qilib qo'yadi. Natijada nafaqat mazkur xislatlarni aniqlash, balki bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni tashkil etish bo'yicha bir qator vazifalarni hal etishni talab qiladi. Bu borada amaliy faoliyat olib boruvchi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, rahbarlarni baholash kadrlar bilan ishlash masalasining eng nozik qismiga aylangan. Ma'lumki, rahbarlikka oid shaxs xislatlarini aniqlovchi bir qancha psixologik metodlar mavjud bo'lib, ularni muvaffaqiyatli qo'llay olish bir tomondan tadqiqotchi malakasiga kelib taqalsa, ikkinchi tomondan ushbu metodikalarning ishchanligi va olingan ma'lumotlarning haqqoniyligi masalasi turadi. Masalan, g'arbda ishlab chiqilgan test va so'rovnomalarni mahalliy hududimizga, mentalitetimizga

moslashtirish shu vaqtgacha dolzarb bo‘lib kelganiga guvohmiz.

Muvaffaqiyatli rahbarlikka oid shaxs xislatlarini talqin etarkanmiz, shu mavzu yuzasidan chet el olimlari tomonidan o‘tkazilgan ba’zi bir tadqiqot natijalariga murojaat etamiz. Amerika va Yaponiyalik 1500 menejrlarni o‘rganish asosida samarali rahbarlikka oid quyidagi xislatlar ajratib ko‘rsatiladi:<sup>5</sup>

- strategik rejalashtirishga moyillikning kuchliligi;
- ishchilarni, mehnat resurslarini taqsimlash bo‘yicha maqbul va o‘z vaqtida qaror qabul qilish;
- faoliyat doirasini kengaytirish yoki yuksak tartibda mehnat qilish evaziga o‘z mas’uliyatini oshirishga intilish;
- xavfli sharoitda ijodiy va ratsional qaror qabul qila olish;
- o‘z kuchiga cheksiz ishonch;
- o‘z huquqlarini anglash va mas’uliyatni his qilish;
- kezi kelganda qurbon berishga ham tayyor turish;
- muloqot malakalarini mukammallashtirishga intilish;
- murakkab va inqirozli vaziyatdagi jarayonlarni tahlil etish va intuitiv tarzda bashorat qila olish;
- mehnatga yuksak qadriyat sifatida qarash va unga butun kuch- g‘ayratni safarbar etish;
- aybdorni izlash emas, balki muammoni hal etishga intilish, tavakkaldan qo‘rqmaydigan va mustaqil fikrdagi xodimlar bilan ishlash xohishi;
- amalga oshirilayotgan g‘oya va natijalarni ishlab chiqarishga, joriy etishga xuddi shaxsiy mulkdek qarash.

Yaponiyalik va Amerikalik menejrlarni qiyosiy o‘rganish natijasida olingan xulosalar shundan iborat bo‘ldiki, yapon menejrlari o‘z boshqaruv faoliyatida ijtimoiy psixologik jihatlarga ko‘proq e’tibor berishar ekan va jamoa faoliyatini tashkil etish qobiliyati etakchi o‘rinda turar ekan. Amerikalik menejrlar esa xodimlarda yakka tartibdagi tashabbusni ko‘proq

ragʻbatlantirishar ekan.

Maʼlumki, boshqaruvning koʻp sohalarida muvaffaqiyatli rahbarlik faoliyatini taʼminlovchi shaxs xislatlarini aniqlashga doir koʻplab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, oʻtgan asrning 50 yillarida, har qanday sohada uddaburro rahbar boʻla olishlikka tegishli xislatlar mavzuida yuzdan ortiq tadqiqotlar oʻtkazildi. Natijada, boshqaruvni mukammal ijro etuvchi hamma rahbarlarga xos fazilatlar umumlashtirilganda, atigi 5% xislat koʻzga tashlandi. Bular quyidagicha:

- aql-idrok, murakkab va mavhum muammolarni echish qobiliyati oʻrtadan baland, ammo juda yuqori boʻlmasligi shart;
- tashabbus, harakatga ehtiyojni anglash va shunga taalluqli salohiyatga egalik;
- oʻziga ishonch, oʻz mahoratini va intilishlarini yuksak baholash.

Lekin koʻp tadqiqotchilar diqqat-eʼtiborlaridagi asosiy xususiyatlardan biri - rahbar shaxsiga xos dominantlik (ustunlik)ka intilishdir. Aynan shu sifat rahbarning tashabbusni oʻz qoʻliga, guruhga etakchilik qilishiga va murakkab vaziyatda masʼuliyatni oʻz boʻyniga olishiga zamin yaratadi. Shu munosabat bilan tadqiqotchi R. Stogdill qalamiga mansub «Rahbar qoʻllanmasi»da dominantlik boshqaruvga zarur sifatlar roʻyxatida birinchi oʻringa qoʻyiladi. Dominantlik soʻzi bir necha maʼnoni anglatadi. Rahbarlik mavzusidan kelib chiqilsa, *oʻzgalarga taʼsir etish* degan bir jumla mazmunan hamma gapga asos boʻladi. Yuqorida taʼkidlangan maʼnodagi «taʼsir etish» iborasi hissiyot tufayli oʻzgalarni oʻziga jalb eta bilish, oʻzaro munosabat natijasida oʻziga nisbatan xayrixohlik hissini yaratishni anglatadi. Chunki tashkilotning ilgʻor faoliyati uchun rahbar oʻz zimmasidagi rasmiy majburiyat va vakolatlar oʻzi etarli emas. Boshqaruv sohasidagi mutaxassislar G. Kuns va S.OʻDonnelning fikricha «agar xodimlar rahbariyat tomonidan oʻrnatilgan tartib va qoidalargagina rioya etib mehnat qilganlarida, ular oʻzlarining 60-65% imkoniyatlarini ishlata olar va oʻz majburiyatlarini bajarib, shunchaki ishdan boʻshamasliklariga bahona topar edilar, xolos. Xodimlarning qobiliyatlaridan toʻla foydalanish niyatidagi rahbar

ularda shunga loyiq his tuygʻuni uygʻota olishi lozim»<sup>6</sup>. Bu erda gap rahbarning oʻz liderlik qobiliyatini namoyish eta olishi, xodimlar orasidagi obroʻ-eʻtibori haqida borayapti. Tashkilot doirasidagi norasmiy munosabatlar tizimida peshqadam oʻrinni egallagan rahbargina oʻz xodimlari qobiliyatini 100% jamoa ishiga jalb eta olishi mumkin.

Yuqorida zikr etilgan qoʻllanmada eʻtirof qilingan sifatlardan yana biri, rahbarning oʻziga ishonch hissidir. Sir emas, har birimiz rahbar oʻziga ishongan va ishonmagan hollarda nafaqat qanday ish tutishini, hatto oʻzini qanday tutishini ham koʻrganmiz. Baxtga qarshi, oʻziga ishonchi boʻlmagan rahbar vaziyat oʻzgarishi bilan, oʻz qarorini oʻzgartirib turadi. Bunday rahbar qoʻl ostida ishlaydigan xodimlar oʻz rahbari timsolida suyanchiq koʻrmaydilar, tashkilotda oʻtkazayotgan kunlari vaqtinchalikdek tuyuladi. Boz ustiga, bunday rahbar oʻzgalar bilan muzokaralar olib borishga ham qodir emas. Chunki oʻz shaxsiga va oʻz qobiliyatiga ishonmagan odam oʻzgalarda ham ishonch uygʻota olmaydi.

Peshqadam rahbarga xos fazilatlardan biri – vazminlik va sabru bardoshlikdir. Rahbar hissiyotini muvozanatlashganligi, uning ichki dunyosiga xos qarama-qarshi tuygʻularning tugʻyoniga yoʻl qoʻymaslikda va kayfiyatdagi sokinlikda ifodalanadi.

Maʼlumki, rahbar odamlar orasida va ularga xos turli hissiyotlar ogʻushida yashaydi. Binobarin, atrofdagilarning salbiy yoki ijobiy his- tuygʻulari oʻzaro kundalik muloqotda tez «yuqish» xususiyatiga ega. Shuning uchun rahbar qaltis va ziddiyatli vaziyatlarda nafaqat boshqalarning hissiyoti taʼsiriga berilmaslik, balki atrofdagilarga oʻz muvozanati va jilovlangan his-tuygʻusi bilan taʼsir eta olishi kerak. Shaxsning bu faziyalati bir tomondan asab tizimining tugʻma xususiyati bilan belgilansa, ikkinchi tomondan orttirilgan hayotiy tajribaga bogʻliqdir.

Asab tizimining moʻtadilligi uchun rahbar oʻz sogʻligi haqida qaygʻurishi lozim. Mehnat faoliyatini ratsional tarzda tashkil etish, yaʼni mehnatdagi ijobiy jihatlarga koʻproq eʻtibor berish, noxush vaziyatlarni donolik bilan bartaraf etish, koʻproq yaqin doʻstlar davrasida boʻlish, jismoniy tarbiya va foydali

mashg'ulotlarga ishqibozlik kayfiyatida vaqtni o'tkazish, har qanday stressga qarshi tura olishni kuchaytiradi, shuningdek, organizmning ishchanlik qobiliyatini qayta tiklashga xizmat qiladi.

Boshqaruv faoliyatini samarali bajarish uchun rahbarga zarur fazilatlardan yana biri - muvaffaqiyatga intilishdir. Rahbar o'z oldiga maqsad qo'ya olishi va uni bajarishga urinishi lozim. Umuman olganda, insonga xos intilishni ikki toifaga bo'lish mumkin:

- 1) muvaffaqiyatga intilish;
- 2) mag'lubiyatdan qochish. Biron-bir qiyin va inqirozli vaziyat paydo bo'lganda, ba'zi birlar mazkur vaziyatni hal etish orqali muvaffaqiyatga erishish haqida o'ylasa, boshqa birov esa talofotga uchramaslik g'amida o'zini iloji boricha «ofat»dan olib qochadi.

Bu bir xil vaziyatga ikki xil yondoshuv bo'lib, uning egalari turlicha xarakterdagi insonlardir. Boshqaruvni samarali olib boruvchi rahbar esa aynan birinchi toifaga mansub bo'lgani sababli, u muammolarni tez hal etadi va yanada o'z maqsadi sari oldinga intiladi. Bunday toifa kishisi odatda tavakkalchilikka xam borishi mumkin. Kezi kelganda u katta maqsadni kichik bo'laklarga bo'lib, har bir kichik maqsad ortida turgan natijani oldindan tasavvur etadi. Biroq, bunday omilni hamisha amalga oshirish oson emas. Binobarin, rahbar tavakkalga bora oladigan va xavf- xatardan qo'rqmaydigan xarakterga ega bo'lishi lozim. Mashhur biznesmen va menejer Li Yakokkaning ta'kidlashicha: «Ba'zida tavakkal ham ma'qul, lekin yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida tuzatib ketish lozim».<sup>7</sup> Maqsadga erishish ishtiyoqi bilan yashaydigan odam doim o'z faoliyat natijalari haqida xabardor bo'lishni istaydi. Mehnat bilan bog'liq vaziyat esa faoliyatidan ma'lumot olish orqali o'z hayot mazmunini tahlil etish imkonini beradi. Aynan shu toifaga mansub shaxslardan birining aytishicha: «Men uchun biznes faqatgina boyish vositasi emas, boylik orttirish men uchun hech qachon maqsadga aylanmagan. Biznes shuning uchun ham menga rohatbaxshki, u har kun cheksiz muammolarni hal qilish maqsadida aql-idrokimni bir nuqtaga jamlashga undaydi»

Bunday ibora ko'pgina tadbirkorlarga xos bo'lib, aniqlanishicha, maqsad yo'lida malakasi yorqin biznesmenlar uchun pul degan narsa unchalik katta qiymatga ega emasdir.

Samarali boshqaruv uchun yana bir zaruriy xislat – mas'ullik va vazifani hal etishga qaratilgan ishonch. Iqtisodiy va ijtimoiy qalqish paytida o'z hamkorida ishonch uyg'otish, navbatdagi ishga kafolat berish va boz ustiga, uni uddalash zamonaviy rahbar uchun muhim fazilatdir. Bu jarayonda rahbarlik tadbirkorlik faoliyati bilan uyg'unlashib ketadi va ishonch tushunchasi markaziy o'ringa ko'tariladi.

Rahbarning, nafaqat, obro'sini oshiradigan, balki qiyin vaziyatda uni asosiy maqsad yo'lidan etaklaydigan fazilatlardan biri – mustaqillikdir. Rahbar o'z qarashi, mushohada layoqati va shaxsiy nuqtai nazariga egalikka intilishi lozim. To'g'ri, rahbar o'z hamkasblariga, shuningdek, maslahatchilariga quloq tutishi kerak, lekin qaror va uning ijrosi rahbar zimmasiga yuklatiladi. Shu bois fikrlash va xatti-harakatdagi mustaqillik samarali boshqaruvning asosiy omillaridan biridir. Ammo, mustaqillik qaysarlik kayfiyatiga aylanmasligi lozim. Buning uchun rahbar hamisha o'z tashabbusini tashkilot yoki jamoa maqsadlari bilan uyg'unlashtirib borishi lozim.

Navbatdagi zaruriy xislatlardan yana biri muloqotga moyillikdir. Aniqlanishicha, rahbar o'z kundalik faoliyatining to'rt dan uch qismini turli-tuman muloqotga sarflaydi. Muloqotning boshqaruvdagi ahamiyatini ko'zdan kechirar ekanmiz, beixtiyor Li Yakokka esdaliklariga duch kelamiz:

«Men avtomobil sohasida bir umr ishlagan odamni bilaman. U oliy ma'lumotli bo'lib, o'zini boshqarish qobiliyatiga ega, shuningdek, ajoyib strateg va o'z kompaniyasining yirik mutaxassisi edi. Lekin, uni hech qachon hech kim yuqori lavozimga tayinlamagan, chunki u o'zga bilan muloqotda bo'lishni bilmas edi»<sup>6</sup>.


Shunday qilib, rahbar faoliyatidagi samaradorlikni amalga oshiradigan shaxs xislatlari bilan tanishib o'tdik. Sir emaski, hech bir inson ushbu ro'yxatdagi xislatlar bilan birga tug'ilmaydi. Bularning hammasi insonga ato etilgan layoqat, shuningdek, ijtimoiy-tarixiy yashash sharoitlarining mahsulidir. Bunday

xislatlarning rahbar faoliyatida namoyon bo'lishi, shaxsdan muntazam tartib va o'z ustida ishlashni, doimo o'z idrokida namuna yaratish va unga taqlid etishni talab qiladi.

### **Samarali rahbar qiyofasi.**

Yuqorida samarali boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shaxs xislatlarini keltirib o'tdik. Bu xislatlarni bilish, rahbar ularni o'zida shakllantirishga intilishi, so'zsiz, uning boshqaruv mahoratini yanada yuqori pog'onalarga olib chiqadi va tashkilotning ko'zlangan maqsadga yo'nalishini tezlashtiradi. Lekin, metodologiya nuqtai nazaridan rahbar shaxsi shunchaki xislat yig'indisidan iborat emas, ayni vaqtda mazkur xislatlarni mujassamlashtirib, uyg'unlashtirib turuvchi yanada shiddatli kuchlar borki, ular ishtirokida xislatlarning ma'lum kombinatsiyasidan iborat rahbar qiyofasi mavjud bo'lishi mumkin. Psixologiya fanida ushbu fikr shaxs strukturasi degan ibora orqali o'z mazmunini topgan. Hozirga kelib psixologiya fanida shaxs strukturasi ifodalovchi turlicha ta'riflar mavjud bo'lib, ularning qiyosiy tavsifini keltirishga hojat yo'q deb, o'ylaymiz. Ulardan eng ahamiyatlisi sifatida quyidagi tahlil bayon etish mumkin.

Shaxsdagi barcha psixologik xislatlar va ijtimoiy sifatlar quyidagi tizim shaklida tasavvur etilishi mumkin:



3– chizma. Shaxsning ijtimoiy-psixologik strukturasi

Tasvirlangan piramidaning tarkibiy qismlarini qatlamlar deb, qabul qilsak, yuqorida turgan tarkib o'zidan pastda joylashgan qatlamlardan shakl topadi. Demak, ushbu tizimning birinchi pog'onasida turgan «xatti-harakatlar» deb, ataluvchi qatlam birlamchi hisoblanadi va uning asosida shaxsning yanada yuksakroq tarkibiy sifatlari shakllana boshlaydi. Yuksak pog'onada turuvchi tuzilmalarning sifati va ifodalanishi pastki o'rindagi qatlamlar sifat mohiyati bilan bog'langan. Shu nuqtai nazardan qaraganda insonda avval pastki qatlamlar (xatti- harakat va ustanovkalar) shakllanadi, so'ngra ular qadriyatlarining shakllanishiga asos bo'ladi, qadriyatlar negizida insonning e'tiqodi shakllanadi va e'tiqodlar majumasi inson missiyasi orqali birlashadi. Endi, shu fikrga asoslangan holda yuqorida tasvirlangan piramidaning tarkibiy bo'laklari (qatlamlari) ustida alohida to'xtalib o'tamiz.

*Missiya* – eng oliy maqsad bo'lib, inson butun umrini shu maqsadga intilish uchun bag'ishlaydi. Odatda missiya shakllanishi va inson tomonidan anglanishi, uning etuk yoshlariga to'g'ri keladi. Missiya inson hayotining yo'nalishini ifodalaydi. Odatda har bir inson hayotida o'z missiyasiga ega va hamma gap uni erta yoki kech anglanishidir. Psixologiya fanida katta o'rin egallagan gumanistik yo'nalish e'tirof etadigan asosiy vazifalardan biri - insonga uning missiyasini anglashda yordam berishdan iboratdir. Mavzuimiz mazmunidan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, har bir rahbar o'z faoliyatini qanday missiya orqali ifodalanishini iloji boricha ertaroq anglab olishi lozim. Masalan, missiya sifatida o'z xalqiga xizmat qilish, o'z vatanining ravnaq topishida ishtirok etish yoki butun xatti-harakatini oilasi farovonligiga bag'ishlash kabi sharafli burch bo'lishi mumkin. Albatta, bunday iboralar ro'yxati cheksiz va ular har bir shaxs uchun individualdir. Shaxs o'z missiyasini nafaqat anglashi, balki, tashkilot umumiy maqsadi bilan uyg'unlashtirishi lozimdir. Missiya o'z shakliga binoan aniq va ravshan ifodalanishi, shaxsdan «tashqarida» joylashishi, ya'ni tashqi muhit ob'ektlarida mujassamlashgan bo'lishi lozim (masalan, kasbiy yo'nalish, o'z galar manfaati, xizmat sohasi va



h.k.). Missiya o'z mazmuniga ko'ra shaxs e'tiqodlaridan unib chiqadi.

**E'tiqod** – inson behad ishonadigan g'oya va fikrlar bo'lib, ularni hatto shubha ostiga olish shaxs uchun noo'rindir. Inson tashqi olamdagi voqea-hodisalarni tahlil qilarkan, ko'p narsalarga o'z e'tiqodi nuqtai nazaridan qaraydi.

**Qadriyatlar** – eng qimmatli ma'naviy boylik bo'lib, inson uni haqoratlanishi va tahqirlanishidan himoya qiladi, saqlaydi. Odatda qadriyatlarning umuminsoniy, biron ijtimoiy guruh qadriyatlari va shaxsiy turlari farqlanadi. Umuminsoniy qadriyatlar inson qaerda yashashidan, boyligidan, mansabidan va boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, doim ardoqlanadigan mazmundir, masalan - tinchlik, hayot, ozodlik, birdamlik, mas'uliyat, oriyat.

Ijtimoiy guruh qadriyatlari bir guruh insonlar uchun qadri va boshqa bir guruh tomonidan e'tiborsiz ma'naviy boylik bo'lib, milliylik, yoshlik va keksalik, oilaviy, siyosiy, hududiy orientirlardan iborat. Shaxsiy qadriyatlar deb, ayni shaxsga tegishli qadriyatlarning o'ziga xos majmuiga aytiladi. Har bir insonning ichki dunyosida sanab o'tilgan qadriyatlarning hamma guruhi mavjud. Yuqorida sanalgan uch guruh qadriyatlarning o'zaro uyg'unlashuvi shaxs va jamiyat o'rtasidagi muvofiqlikni belgilaydi. Agar shaxsiy qadriyatlar ro'yxatida umuminsoniy va guruh qadriyatlar etakchi bo'lsa, insonning jamiyatdagi o'rni va hayoti nihoyatda engil va ravnaqlidir. Aks holda, inson ichki dunyosida uchraydigan turli guruh qadriyatlari o'rtasidagi nomuvofiqlik shaxsda ichki tug'yon va nizoni keltirib chiqaradi.

**Ustanovka** – bu ibora psixologiyada inson xatti-harakatining anglanmagan programmasi sifatida tushuniladi. Inson doimiy bajaradigan xatti-harakat dastavval anglanilgan holda amalga oshadi va u takrorlangani sari beixtiyor, avtomatlashgan holatga o'tib boradi. Aynan shunday anglanilmagan harakat rejasi ustanovka deb ataladi. Xodimdagi maqbul harakatlar muntazam takrorlanishi natijasida unda maqsadga muvofiq faoliyat ustanovkasi shakllanadi. Binobarin, xodimning doimiy faoliyati va xulqini kuzatgan holda unda qay mazmundagi ustanovkalar ustuvor ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Piramida shaklida tasvirlangan shaxs tizimining asosiy psixologik

mazmuni shundan iboratki, inson hayotining mazmuni bo‘lmish missiyasi va e‘tiqodi, pastki qatlamda turuvchi qadriyat va ustanovkalar asosida shakllanadi. Qadriyat esa, o‘z navbatida, inson qadrllovchi orientir sifatida ustanovkalarining rivojlanish natijasidir. Qatlamlar o‘rtasidagi bunday bog‘liqlik inson faoliyatiga ma‘lum ma‘no kiritadi va hatto inson ichki dunyosini bir butun, yaxlit tarzda tushunish imkonini beradi. Gap shundaki, komil insonning hayotidagi hamma qatlamlar bir-biri bilan uyg‘unlashgan

holda namoyon bo‘ladi. Demak, uning qilayotgan ishlari qadriyatlariga mos keladi, e‘tiqodiga va hayotidagi asosiy maqsadi bo‘lmish missiyasiga qarshi chiqmaydi.

Rahbar o‘z xodimini sinchkovlik bilan kuzatishi orqali, uning shaxsidagi qatlamlar o‘rtasida uyg‘unlik yoki ziddiyatni ilg‘ashi mumkin. Rahbarning bunday nazarga ega bo‘lishini yana bir sharti - xodim ruhiyatidagi qatlamlar ziddiyatiga tashkilot miqyosida shakllangan muhit ham sabab bo‘ladi. Demak, tashkilotda shakllangan normalar nosog‘lom bo‘lsa, xodim nosamimiy harakatlarga yo‘l qo‘yadi va u o‘z e‘tiqodi va qadriyatlariga zid chiqishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan shaxs strukturasi asoslangan holda zamonaviy rahbarni tavsiflar ekanmiz, unga xos bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jihatlar haqida ham gapirib o‘tish lozim bo‘ladi. Aynan shu jihatlar insonning missiya va e‘tiqod qatlamlarida mujassamlashgan holda samarali rahbarning negizini tashkil etadi. Rahbar e‘tiqodining, etakchi qadriyatining jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy-siyosiy vazifalar bilan uyg‘unlashganligi, uning faoliyati samarasini belgilaydi. Shuning uchun boshqaruv lavozimiga kadrlarni qo‘yish hamda rahbar kadrlarni baholash jarayonida e‘tiqod sohalari birlamchi deb qabul qilinsa va bu mezonga asosiy e‘tibor qaratilsa, o‘rinli bo‘lardi. Demak, davr talabi bilan, rahbarning siyosiy boshqaruvga qobiliyati dolzarb masalaga aylanadi. Albatta, bunday qobiliyat rahbarning ma‘muriy-xo‘jalik majburiyatidan bir oz chetlanish deb o‘ylanishi mumkin. Lekin, mamlakatimizning hozirgi rivojlanish bosqichi, xo‘jaligimizning umumjahon iqtisodiyoti bilan integratsiyasi, investitsiyalar sohasidagi hamkorlik masalasi zamonaviy rahbarni xo‘jalik muammolari doirasida cheklanib qolmay,

balki atrofdagi voqealarni kengroq idrok etishini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy rahbar nafaqat tashkilotni iqtisodiy cho‘qqiga etaklovchi shaxs, balki, targ‘ib etilayotgan davlat siyosatini mehnat jamoasi ongiga etkazuvchi faol hamdir.

Yuqoridagi matndan quyidagi fikrlar kelib chiqadi: rahbarlarni tayyorlash va malakasini oshirish mobaynida iloji boricha shaxsning o‘z- o‘zini anglashi, o‘z e‘tiqodi va qadriyatlarini hayoti davomida aniq ifodalash choralari haqida bilim va ko‘nikmalar shakllantirish lozim. Axir, aynan, ichki poklik, samimiyluk va inson tabiatining yaxlitligi o‘zgaga ta’sir etishdagi asosiy kuch sifatida maydonga chiqadi. Rahbarni tayyorlash, uning malakasini oshirish bilan bog‘liq har qanday tadbir oxir- oqibatda rahbar shaxsi, uning boshqaruv mahoratini takomillashtirish, o‘zgalarga ta’sir etish ko‘lamini kuchaytirish maqsadini qo‘yadi.

Ushbu bo‘lim yakunida samarali boshqaruvni amalga oshirishda xalaqit beruvchi shaxs xislatlari haqida gapirib o‘tmoqchimiz va quyida ularni ichki to‘siqlar deb nomlaymiz:

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

**Samarali boshqaruvga to‘sqinlik qiluvchi shaxs xislatlarini farqlang.**

1. *O‘z-o‘zini boshqara olmaslik.*
2. *Shaxsiy qadriyatlarning shakllanmaganligi.*
3. *Shaxsiy maqsadning aniq ifodalanmaganligi*
4. *Kamolotga intilishning yo‘qligi.*
5. *Ijodiy yondoshuvning etishmasligi*
6. *Itoatidagi xodimlarga ta’sir etolmaslik.*
7. *Boshqaruv faoliyati xususiyatini yaxshi bilmaslik.*
8. *Itoatidagi xodimlarda mehnat malakasini shakllantira olmaslik.*
9. *Jamoa tashkil etishdagi sust qobiliyat.*

## XI - BOB. BOSHQARUV MULOQATI.

### *Muloqot ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida*

Guruh faoliyati muayyan muammolarni (iqtisodiy, sanoat, ta'lim, huquqni muhofaza qilish va boshqalar) birgalikda hal qilishda shaxslarning o'zaro ta'siridan iborat. Guruhlarda odamlarning o'zaro ta'sirining eng muhim sharti bu muloqotdir. Ushbu tushunchaning mohiyati nimada?

Muloqot - bu odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyatga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish jarayoni. Muloqot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- manfaatdor tomonlar, guruhlar va tashkilotlardagi xodimlar, shuningdek guruhlar o'rtasida ma'lumot almashish;
- muloqot predmetlarini o'z ichiga olgan birgalikdagi faoliyat strategiyasini ishlab chiqish;
- birgalikdagi muammolarni hal qilish jarayonida odamlar bir-birlarini tushunishlari va idrok etishlari.

Ba'zida «muloqot», "ijtimoiy munosabatlar", "shaxslararo munosabatlar" tushunchalarini aniqlash tendensiyasi mavjud. Biroq, bu tushunchalar o'zaro bog'liq bo'lib, bir-biriga o'xshash emas, chunki ular o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Muloqot tushunchasi kengroq ma'noga ega. Muloqot odamlarning ijtimoiy muhit va tashqi guruhlararo munosabatlaridagi tashqi aloqalar tizimidagi birgalikdagi hayotiy faoliyati natijasida ob'ektiv ravishda vujudga keladi.

Ijtimoiy munosabatlar odamlarning shaxs sifatida emas, balki ijtimoiy sinf vakillari (ish beruvchi va xodimning munosabatlari), iqtisodiy tuzilmalar (tovarlarni sotuvchi va xaridor), ierarxik rasmiy tashkilotlar (huquqni muhofaza qilish organlarining viloyat va tuman bo'limlari) va boshqalar vakillari sifatida namoyon bo'ladi. .

Shaxslararo munosabatlar ishbilarmonlik va hissiy baholash, shuningdek, odamlarning bir-birlarini afzal ko'rishi asosida quriladi.

Shunday qilib, odamlar va shaxslararo munosabatlar har doim aloqada vujudga kelgan va faqat shu narsada amalga oshirilishi mumkin. Muloqot - shaxslarni birlashtirish usuli, ayni paytda ularning shaxsiy va kasbiy nuqtai nazardan rivojlanishi yo'li sifatida namoyon bo'ladi. Bu ijtimoiy munosabatlarning voqeligi va shaxslararo munosabatlarning uzviyligi sifatida aloqa mavjudligini anglatadi. Ehtiyoj bilan muloqot turli xil insoniy munosabatlarda, ya'ni ijobiy va salbiy ijtimoiy, shuningdek, shaxslararo munosabatlarda ham amalga oshiriladi.

Aytishimiz mumkinki, muloqot odamlar hayoti va faoliyatida katta rol o'ynaydi. Muloqotning turli shakllarida odamlar o'z faoliyati natijalari, to'plangan tajriba almashadilar, o'zaro bilim, fikr, g'oyalar, qiziqishlar, his-tuyg'ularni almashadilar, odamlarning intilishlari, ehtiyojlari va maqsadlarini muvofiqlashtiradilar, psixologik hamjamiyatni rivojlantiradilar va o'zaro tushunishga erishadilar.

Muloqot jarayonida umumiy dastur va birgalikdagi faoliyatning umumiy strategiyasi shakllanadi. Muloqot tufayli insonning ufqlari kengayadi, individual tajribaning cheklangan tabiati engiladi. Shuning uchun muloqot inson taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Psixologik fanda odamlar o'rtasidagi muloqot mohiyatini tushunishga bir nechta yondashuvlar mavjud:

- muloqot - turli xil aloqa vositalari va mexanizmlaridan foydalangan holda ma'lumotni bir predmetdan boshqasiga o'tkazish jarayoni. Muloqotning maqsadi o'zaro tushunishga erishishdir (A. G. Kovalyov);
- muloqot - bu odamlarning o'zaro munosabati va ma'lumotni uzatish faqat zaruriy shartdir, ammo aloqaning mohiyati emas (A. A. Leontev);
- muloqot - bu guruhdagi kollektivistik xususiyatlar shakllanadigan jamoadagi odamlar o'rtasidagi munosabatlar jarayoni (K. K. Platonov);
- muloqot - bu ma'lumot almashish, odamlarning o'zaro harakatlari va o'zaro munosabatlari yig'indisidir (B. D. Parigin).

Muloqotga psixologlarning bunday yondashuvlari uning rolini baholashining muhimligini ko'rsatadi. Qarama-qarshiliklar bilvosita va bevosita boshqa ajralmas psixologik hodisalar - munosabatlar, o'zaro ta'sirlar va faoliyatning o'zi

bilan, shuningdek, bu munosabatlardagi aloqaning mohiyatini kristallashtirish qiyinligini ko'rsatadi.

### ***Faoliyat bilan muloqotning o'zaro aloqadorligi***

Muloqot, bir qator mualliflar tomonidan berilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, odamlar faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Bu muloqotni faol yondashuv nuqtai-nazaridan ko'rib chiqadigan barcha psixologlar tomonidan tan olingan. Biroq, bunda muloqotning tabiati boshqacha tushuniladi.

Ba'zi bir mualliflar (A. N. Leontev) muloqotni faoliyatning muayyan tomoni deb hisoblashadi: u har qanday faoliyatga kiritilgan, bu uning elementi, shartidir.

Boshqa psixologlar muloqotni o'ziga xos faoliyat turi deb bilishadi. Ulardan ba'zilar (D. B. Elkonin) uni inson taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida mustaqil bo'lgan (masalan, maktabgacha yoshdagi bolalar va ayniqsa o'smirlik davrida) kommunikativ faoliyat (yoki aloqa faoliyati) deb atashadi; boshqalar (A. A. Leontev) - faoliyat turlaridan biri (masalan, nutq faoliyati)deb hisoblaydi.

Uchinchi nuqtai-nazar (B. F. Lomov) shundan iboratki, faoliyat va muloqot parallel va mavjud bo'lgan o'zaro bog'liq faoliyat sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy mavjudotining ikki tomoni, uning turmush tarzi sifatida ko'rib chiqiladi. Muloqotga alohida ahamiyat berib, B. F. Lomov insonning haqiqiy hayoti nafaqat mazmunli va amaliy faoliyat bilan cheklanib qolishini yozadi. Muloqot unda g'oyalar, qiziqishlar almashish, xarakter xususiyatlarini uzatish, shaxsga bo'lgan munosabatni, uning pozitsiyasini shakllantirishning maxsus funksiyalarini bajaradi.

Shunday qilib, ba'zi bir farqlarga qaramay, barcha nuqtai-nazarlarning mualliflari faoliyat va muloqot o'rtasidagi bog'liqlikni tan olishadi, garchi ular buni turli yo'llar bilan ochib berishsa ham. Odamlar doimiy ravishda bevosita da bo'lgan kichik bir guruh hayotida muloqot juda muhim rol o'ynashi aniq.

## *Muloqotning asosiy funksiyalari*

Muloqot kichik guruhlarining hayotida va birgalikdagi faoliyatida bir qator funksiyalarni bajaradi. Avvalo, bu *kognitiv funksiya*. Muloqot shaxs uchun jamiyatda sodir bo'layotgan voqealar, guruhga tegishli bo'lgan sohada, guruhning ichki hayotida, guruh a'zolari tomonidan bir-birlarini tushinishlari, niyatlar, holatlar va harakatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning muhim manbayi ekanligidan iborat. Guruhning boshqa a'zolari, ularning hayotidagi voqealar, birgalikdagi faoliyatning natijalari, guruhning alohida a'zolari haqida fikrlar va boshqalar aynan muloqot jarayonida sodir bo'ladi va oydinlashadi. Oxir oqibat, muloqot o'zaro tushunish manfaatlariga xizmat qiladi. O'zaro anglashuv va guruhning rivojlanishining eng yuqori darajasi - jamoa - bu hamfikir bo'lgan odamlar ittifoqidir.

Muloqotning *rivojlantiruvchi funksiyasi* uning ontogenezida shaxsning butun sotsializatsiya qilinishidagi rolida yotadi. Kichik guruhda, bu ijtimoiylashuv guruh a'zolari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri va vaqt talab qiladigan aloqa natijasida rivojlanib boradi va alohida intensivlikda davom etadi. Ko'p tomonlama bilimlar, mulohazalar, fikrlar, his-tuyg'ular, qadriyatlar va ideallar, motivlar va qiziqishlar almashinuvi amalga oshiriladi, natijada guruh a'zolarining psixologik xususiyatlari va fazilatlarini o'zgaradi. Umuman olganda guruhning xususiyatlari guruh a'zolariga ta'sir qiladigan, ularning bilimlari, munosabatlari, harakatlari, ko'nikmalari, odatlari va hokazolarning uyg'unligini ta'minlaydigan umumiy omil bo'lib xizmat qiladi va shu bilan birga ular rivojlanishning individuallasuvi uchun imkoniyatlar ochadigan bo'shliqni anglatadi. Tabiiyki, guruhning rivojlanayotgan ta'sirining tabiati uning faoliyati, hayoti va strukturasi tashkil etilishi, uning etakchilik darajasi, qiziqishlar, qadriyatlar, qarashlar, urf-odatlar, an'analar, munosabatlar va boshqa guruhdagi ijtimoiy-psixologik hodisalarga bog'liq. Bunda muloqot guruh hayotidagi barcha jabhalarda ustunlik qiladi, guruhga xos bo'ladi va guruh a'zolari o'rtasidagi aloqa xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

*Anglash yoki idrok qilish funksiyasi* shundan iboratki, muloqot kichik guruh a'zolari xulq-atvorining ijtimoiy bog'liqligining muhim omillaridan biri, ularning

qiziqishlari, maqsadlari, rejalari, motivlari, istaklari, ehtiyojlari, harakatlari va xatti-harakatlari, shuningdek ularning tashqi ko‘rinishini tartibga solishdir. Muloqot ma’lum ruhiy holatlar, jarayonlar, faoliyat natijalarining paydo bo‘lishi, kuchayishi va aksincha, ularni o‘z ichiga olishi, oldini olishi, zaiflashtirishga yordam beradi.

*Yig‘ish yoki to‘plash funksiyasi* guruhda guruh a‘zolari o‘rtasida yagona fikrning paydo bo‘lishiga, o‘zaro tushunish, kelishuvga erishish, murosaga kelish, yaqin munosabatlar o‘rnatish, sinxronizatsiya, harakatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Kichik guruhning menejmenti, *etakchilik yoki boshqarish funksiyasi* muloqotni tashkiliy omil sifatida ishlatish, guruh hayoti va faoliyatida tashkiliy tartibni o‘rnatishga, qo‘shma faoliyat jarayonida guruhning barcha a‘zolarining aniq o‘zaro ta’sir ko‘rsatishiga, maqsadlariga erishish va har birining manfaatlarini qondirish orqali amalga oshiriladi.

*Muloqotning motivatsion-maqsadli tomoni.* Murakkab psixologik hodisa sifatida muloqot bir qator tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan psixologik tuzilishga ega.

Motivatsiya-maqsad komponenti muloqot motivlari va maqsadlari tizimidir. Kichik guruh a‘zolari bilan muloqot qilish uchun sabablar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- a) muloqotda tashabbus ko‘rsatadigan bir kishining ehtiyojlari, qiziqishlari;
- b) ikkala muloqot sheriklarining ehtiyojlarini va manfaatlarini, ularni muloqot qilishga undovchi sabablar;
- v) birgalikda hal etiladigan vazifalardan kelib chiqadigan ehtiyojlar.

Muloqot uchun motivlarning nisbati to‘liq tasodifdan tortib to to‘qnashuvgacha davom etadi. Shunga ko‘ra, muloqot do‘stona yoki qarama-qarshi(dushmanlik ruhida) bo‘lishi mumkin.

Muloqotning asosiy maqsadlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- foydali ma’lumotlarni olish yoki uzatish;
- zo‘riqishni engillashtiradigan sheriklarni faollashtirish;
- birgalikdagi harakatlarni boshqarish;
- do‘stlarga yordam va ta’sir.



Muloqotda qatnashuvchilarning maqsadlari bir-biriga zid kelishi yoki bir-birini istisno qilishi mumkin. Bu muloqotning tabiatiga bogʻliq.

***Muloqotning kommunikativ tomoni.*** Muloqotning kommunikativ tomoni yoki soʻzning tor maʼnosidagi aloqasi muloqot qiluvchi shaxslar oʻrtasida maʼlumot almashishdan iborat. Birgalikdagi faoliyat davomida, kichik guruh aʼzolari, yuqorida aytib oʻtilganidek, oʻzaro fikrlar, qiziqishlar, his-tuygʻular va boshqalarni almashadilar. Bularning barchasi maʼlumot almashish jarayonini tashkil etadi, bu quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- agar kibernetik qurilmalarda maʼlumotlar faqat uzatilsa, u holda odamlar bilan muloqot qilish sharoitida u nafaqat uzatiladi, balki shakllantiriladi, aniqlanadi, ishlab chiqiladi;

- ikki qurilma oʻrtasidagi oddiy "axborot harakati" dan farqli oʻlaroq, odamlar bilan muloqot qilishda ular bir-biriga boʻlgan munosabat bilan birlashtirilgan;

- odamlar oʻrtasida maʼlumot almashinuvi tabiati, tizim belgilaridan foydalanish orqali sheriklar bir-biriga taʼsir qilishi va sherikning xulq-atvoriga taʼsir qilishi mumkinligi;

Axborot almashish natijasida kommunikativ taʼsirga faqat maʼlumot yuboruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (oluvchi) bir xil yoki oʻxshash kodlash yoki dekodlash tizimiga ega boʻlgandagina mumkin boʻladi. Oddiy tilda ushbu qoida quyidagi soʻzlar bilan ifodalanadi: "hamma bir xil tilda gaplashishi kerak".

Odamlar muloqotida muayyan aloqa toʻsiqlari paydo boʻlishi mumkin. Ular tabiatan ijtimoiy yoki psixologik boʻladi. Kommunikatsion toʻsiqlarning ijtimoiy tabiati odamlarning ijtimoiy, siyosiy, milliy, kasbiy farqlari, ularning dunyoqarashi va eʼtiqodlari natijasida vujudga kelgan bir xil tushunchalar, voqealarni boshqacha talqin qilishda namoyon boʻladi. Kommunikatsion toʻsiqlarning psixologik tabiati ular oʻzaro muloqot qiluvchi odamlarning individual psixologik xususiyatlari (uyatchanlik, maxfiylik, «aloqasizlik») natijasida yoki ular orasidagi oʻziga xos psixologik munosabatlar: adovat, ishonchsizlik va boshqalar natijasida yuzaga kelishi mumkinligida namoyon boʻladi. Bunday holda, muloqot va munosabat oʻrtasidagi aloqa aniq ajralib turadi.

Kommunikatoridan keladigan ma'lumotlar ikki xil bo'lishi mumkin: rag'batlantirish va aniqlashtirish turdagi. Rag'batlantiruvchi ma'lumotlar buyurtma, maslahat, so'rovda ko'rsatiladi. U ba'zi harakatlarni rag'batlantirish uchun mo'ljallangan. Nazorat qiluvchi ma'lumotlar xabar shaklida paydo bo'ladi, u turli xil ta'lim tizimlarida sodir bo'ladi.

Muloqot (aloqa) verbal, noverbal va energetik bo'lishi bo'lishi mumkin. Ijtimoiy psixologiyada ushbu tushunchalar ko'pincha muloqot vositalari deb ataladi va ular orasidagi quyidagi tizimlarni ajratib ko'rsatadi:

- 1) optik tizim (tashqi ko'rinish va harakat);
- 2) akustik tizim (tembr, ovoz balandligi, intonatsiya, nutq sur'ati);
- 3) kinetik tizim (teginish, paypaslash);
- 4) fazoviy-vaqtinchalik xususiyatlar tizimi (ular orasida xronotiplar aniq holatlar, masalan, transport vositasi hamrohidir);
- 5) energiya tizimi (K. S. Stanislavskiy - "nurlanish va ruhiy oqimlarni nurli qabul qilish").

Verbal muloqot nutq yordamida amalga oshiriladi, so'zlarda ma'lumotlar kodlashtiradi va dekodlaydi: kommunikator gaplashish jarayonida kodlaydi (uni nutqqa tarjima qiladi) va qabul qiluvchi tinglash jarayonida ushbu ma'lumotlarni dekodlaydi (qabul qiladi, assimilyatsiya qiladi). Nutq orqali muloqot ishtirokchilari alohida tarzda o'zaro harakat qilishadi, bir-birlarini ishontirishadi, ya'ni xatti-harakatlarning ma'lum bir o'zgarishiga erishishga intilishadi.

Verbal muloqot (yoki muloqot vositalari) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- so'zlar, iboralar, taklif mantiqiyliqi, nutq apparati (hajm, sur'at, diksiya, talaffuz, tembr);
- ekspressivlik - nutqning ekspressivligi (tonallik, hissiylik, tasavvur, ifodali so'zlar bilan to'yinganlik, nutqning burilishlari, tovushli qo'shimchalar - qahqaha, xo'rsinish va boshqalar).

Noverbal muloqot vositalari og'zaki so'zlashuv bilan birga keladi va quyidagi nuqtalarga qisqartiriladi:

- yuz ifodalari, imo-ishoralar;

- taksika (teginish - qo‘l siqish, quchoqlash, yuz va qo‘llarni o‘pish);
- pantomimika (holat va tana harakatlari - turish, egilish, bosh kiyimini echish, joyni o‘zgartirish, suhbatdoshga yaqinlashish usuli);
- proksematik (bir-biriga nisbatan aloqada bo‘lganlarning joylashuvi
- masofa va joylashish usuli - ikkalasi ham o‘tirgan, biri tik turgan, ikkinchisi o‘tirgan va boshqalar).

Ularning barchasi, muloqot qilishda, ma’lum bir ma’lumotni o‘z ichiga oladi.

Noverbal muloqot, shuningdek, odamlar tomonidan ishlab chiqilgan maxsus belgilar-ishoralar tizimidir: harakatni boshqarish belgilari, kiyimlar, ordenlar, mukofotlar va boshqalar.

Noverbal muloqot vositalari muloqot imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, ko‘pincha ekspressiv va lakonik turlarda. Shunday qilib, rasmiy ishlab chiqarish jamoalari va norasmiy guruhlar o‘zlarining faoliyat turlarini, ijtimoiy mavqeini, joylashishini va boshqalarni ko‘rsatadigan etarlicha ramziylikni topishga intilishadi. Norasmiy guruhlarda faqat tashabbuskorlarga tushunarli bo‘lgan ramziylik mavjud: kiyim imidji, soch turmagi va boshqalar.

Ontogenez jarayonida, tarbiya va o‘qitish sharoitida, so‘ngra malaka oshirishda har bir kishi verbal va noverbal muloqot tizimiga ega bo‘ladi.

***Muloqotning interaktiv tomoni.*** Muloqotning interaktiv tomoni odamlarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish, ularning o‘zaro ta’siri (hamkorligi) bilan bog‘liq.

Interaktiv muloqot funksiyasi kommunikativ funksiya bilan o‘zaro bog‘liq, ammo ayni paytda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Guruh faoliyati nuqtai-nazaridan uning ishtirokchilari uchun nafaqat ma’lumot almashish, balki guruhning har bir a’zosi alohida hissa qo‘shadigan qo‘shma tadbirlarni tashkil etish muhimdir. Shu bilan birga, "harakatlar almashinuvi, umumiy faoliyatni rejalashtirish ham mavjud. Bunday rejalashtirish bilan (B.F. Lomov ta’kidlaganidek) bir kishining xatti-harakatlarini "boshqasining hayolida pishgan(tayyorlangan) rejalar" bilan tartibga solish mumkin, bunda faoliyat chindan ham jamoaviy bo‘lib qoladi va uning tashuvchisi endi alohida shaxs bo‘lmaydi. Ushbu jarayon muloqotning interaktiv tomonining mohiyatidir.

## *Muloqotning psixologik tuzilishi*

Guruh faoliyati jarayonida odamlar turli xil shovqinlarga kirishadilar, shuning uchun ularning tasniflarini tuzishga ko'p urinishlar mavjud. Eng keng tarqalgan mulohaza bu o'zaro ta'sirning barcha turlarini ikki turga bo'lish mumkin bo'lgan ikkitomonlama tasnif: hamkorlik va raqobatdir.

Hamkorlik deganda, birgalikdagi faoliyatni tashkil etishga yordam beradigan o'zaro ta'sir turlari tushuniladi. Bu erda faoliyatning psixologik mexanizmi odamlarning o'zaro yordamiga, ularning hamkorligiga asoslangan. Hamkorlik doirasida raqobat tabiatda antagonistik bo'lmagan va hatto o'zaro yordam elementini qamrab oladigan o'zaro ta'sir sifatida yuzaga kelishi mumkin.

30. Jonimga tekkanlarida qizishib ketib, tuyg'ularimni nazorat qila olmayman.
31. Qo'l ostimdagilar orasida tez-tez bo'lib tursam edi, rahbarlik qilishda ancha samarali ishlagan bo'lardim.
32. Qo'l ostimdagilarning qiziqish va mayllariga men goho xotirjam va sovuqqon munosabatda bo'la olaman.
33. Qo'l ostimdagi tajribaliroq kishilarga ularni alohida nazorat qilgan holda, murakkab vazifalarni ado etishlari uchun ko'proq mustaqillik beraman.
34. Qo'l ostimdagilar bilan ularning muammolarini hamisha tahlil va muhokama qilib turaman.
35. Yordamchilarim nafaqat o'zlarini, qisman mening vazifalarimni ham bajara oladilar.
36. Bir cho'kishda ta'zirini berib qo'ya oladigan qo'l ostimdagilardan ko'ra, yuqoridagi rahbariyat bilan nizolashishdan qochish engilroq.
37. Qanday vaziyat bo'lmasligaga qaramasdan farmoyishlarim bajarilishiga doimo erishaman.
38. Men uchun eng qiyini – odamlarning ish jarayoniga aralashib, ulardan yanada yaxshiroq ishlashni talab qilishdir.
39. Qo'l ostimdagilarni yaxshiroq anglash uchun o'zimni ular o'rnida deb tasavvur qilishga intilaman.
40. O'ylashimcha, jamoani boshqarishda rahbar odam qiyishqoq bo'lishi kerak, qo'l ostimdagilarga temirdek qattiqqo'llikni ham, o'ta ko'ngilchanlikni ham namoyish etavermaslik lozim.
41. Menga qo'l ostimdagilarnikidan ko'ra ko'proq o'z shaxsiy muammolarim muhimroq.
42. Men odatiy ishlar bilan juda band bo'lganimdan katta hissiy va aqliy mehnat yukini xis etishga to'g'ri keladi.
43. Ota-onam men aqlga sig'maydigan holat, deb bilgan paytlarda ham ularga buysunishimga majbur etishgan.



44. Odamlar bilan ishlashni men azobli mashg'ulot deb o'ylayman.
45. Jamoada o'zaro yordam va hamkorlikni rivojlantirishga xarakat qilaman.
46. Qo'l ostimdagilarning taklif va maslahatlarini bajonu dil qabul qilaman.
47. Rahbarlik qilishdagi masala - vazifalarini taqsimlashdir.
48. Qo'l ostingdagilar asosan ma'suliyatsiz kishilardir, shuning uchun ularni doimo nazorat qilib turmoq kerak.
49. Qo'l ostingdagilar sening aytganlaringni so'zsiz bajargandagina boshqaruv samaradorligiga erishish mumkin.
50. Eng yaxshisi - jamoaga to'la erkinlik berish va hech narsaga aralashmaslikdir.
51. Rahbarlik qilishda samaradorlikka erishish uchun qobiliyatli insonlarni rahbatlantirib borish va nomanzurlarni keskin jazolash zarur.
52. Men o'zim qilgan xatoni hamisha tan olaman va mavjudlaridan to'g'riroq qarorni tanlayman.
53. Ko'pincha boshqaruvdagi muvaffaqiyatsizliklarni ob'ektiv sabablar bilan izohlashimga to'g'ri keladi.
54. Tartibni buzuvchilar keskin jazolanishi shart.
55. Qo'l ostimdagilarning kamchiligini tanqid qilishda men juda ayovsizman.
56. Ba'zida shu jamoada men ortiqcha odam emasmikanman, deb o'ylanib qolaman.
57. Qo'l ostimdagi xodimga ta'na qilishdan avval ularni sal maqtab qo'yishga urinaman.
58. Jamoa bilan hamisha yaxshi muomalada bo'laman va uning fikriga quloq solaman.
59. Ko'pincha qo'l ostimdagilarga o'ta yumshoq muomalada bo'lishimni ta'kidlashadi.
60. Qo'l ostimdagilar aytganlarimni talab qilganimdek bajarsalar edi, men yanada ko'proq narsaga erishgan bo'lardim.

#### **JAVOBLARNING KALIT JADVALI**

Boshqaruv uslubingiz	Tasdiq – javoblar raqami	Javoblar jami

Avtoritatsiz	1, 0, 7, 12, 13, 18, 19, 24, 25, 30, 31, 36, 37, 42, 43, 48, 49, 54, 55, 60.	
Liberalsiz	2, 5, 8, 11, 14, 17, 20, 23, 26, 29, 32, 35, 38, 41, 44, 47, 50, 53, 56, 59.	
Kollegialsiz	3, 4, 9, 10, 15, 16, 21, 22, 27, 28, 33, 34, 39, 40, 45, 46, 51, 52, 57, 58.	

Olingan javoblar jamuljamiga binoan rahbarlik qilish uslublari turli darajada ifodalanadi: eng past daraja 0 – 7 oʻrtacha daraja 8 - 13 yuqori daraja 14 - 20. Agar olingan baholar oʻrtacha koʻrsatkich boʻyicha ham eng past darajada boʻlsa bunaqa rahbarlik uslubi beqaror, noaniq uslub, deb baholanadi. Tajribali rahbar koʻpincha boshqarish uslublarini aralashtirib turadi. Agar rahbar odamlar bilan munosabatda qayishqoqlik koʻrsatsa va boshqarishning samarali uslubini maʼqul koʻrsa, bunda uning koʻproq avtoritar va kollegiallik uslublarini qoʻshib ish yuritishi maʼlum boʻladi.

Boshqaruvning oʻziga xos uslubini toʻla namoyon qilish va uni yanada takomillashtirish uchun quyidagi jadvalda berilayotgan maʼlumotlardan foydalanish mumkin.

Boshqaruvning oʻziga xos (individual) uslubi tavsiyanoma --jadvali

Tasdiq javoblar raqami	Boshqaruv uslubining namoyon boʻlish darajasi
<b>A v t o r i t a r   u s l u b</b>	
0 - 7	Eng past koʻrsatkich: chinakam lider boʻlishni istamaslik, oʻziga ishonch, oʻjarlik, boshlagan ishini oxiriga etkazishga intilish, qoloq va noqobil odamlarni tanqid qilish tuygʻularning yoʻqligi namoyon boʻladi.

8 - 13	O'rtacha ko'rsatkich: yaxshi raxbarlik xislatlari, qo'l ostidagilarning xatti-xarakatlarini boshqarish layoqati, talabchanlik va qat'iyatlilik, jamoaga buyruq kuchi va majbur qilish asosida ta'sir ko'rsatish, maqsad sari intilish va o'zibo'larlik, qo'l ostidagilarning istaklariga yuzaki qarash, ularning takliflarini eshitishni istamaslik sifatlari namoyon bo'ladi.
14 - 20	Yuqori ko'rsatkich: liderlik va yakkaxonlikka intilish yorqin namoyon bo'ladi, qat'iyat va mulohazalarda dadillik, g'ayratlilik va talabchanlikda qattiqqo'llik, qo'l ostidagilarni tashabbuskorligini hisobga olmaslik va ularning mustaqil xarakatlariga yo'l qo'ymaslik, tanqid qilishda shartakilik, manmanlik va xodimlar bilan chiqishmaslik, jazolashda suyiste'molga yo'l qo'yish, jamoa fikri bilan hisoblashmaslik kabi xususiyatlar ko'proq namoyon bo'ladi.
<b>Liberal uslub</b>	
0 - 7	Eng past ko'rsatkich : odamlar bilan ishlashga astoyidil intilmaslik, qo'l ostidagilarga topshiriq berolmaslik va ularni birgalikda hal etolmaslik, vazifalarni taqsimlashda qat'iyatsizlik va mujmallik, qo'l ostidagilarni tanqid qilishda haddidan oshish, talabchanlikning va ma'suliyatning susayib ketishi.
8 - 13	O'rtacha ko'rsatkich : o'z vazifasini o'zgalarga ag'darishga urinish, odamlarga rahbarlik, talabchanlikning yo'qligi va hammaga ishonaverish, qaror qabul qilish kerak bo'lganda qilish, intizomni buzuvchilarga haddan tashqari yumshoqlik qilish, kelishuvchanlikka intilish xususiyatlari namoyon bo'ladi.
	Yuqori ko'rsatkich : jamoa manfaatlariga to'la befarq qarash, ma'suliyatni o'ziga olishni va murakkab muammolarni hal etishni istamaslik, talabchan bo'lmaslik va boshqaruvda o'zini olib

14 - 20	qochishga intilish, o'zgalarning gapiga kirib ketaverish va irodasizlik, qat'iyatsizlik va o'z nuqtai nazarini himoya qilolmaslik, maqsad va ish reja yo'qligi, behuda xarakat qilish, tanishlarini yuzidan o'tolmaslik kabi xususiyatlari namoyon bo'ladi.
<b>K o l l e g i a l u s l u b</b>	
0 - 7	Eng past ko'rsatkich : qo'l ostidagilar bilan yaqin bo'lishni istamaslik, boshqalarning gapiga kirish va ular bilan hamkorlik, jamoa faoliyatini yordamchilar va faollar orqali boshqarishga intilish, o'zining adolatli ish taqsimlash xislatiga ishonmaslik
8 - 13	O'rtacha ko'rsatkich : jamoa manfaatini o'ylab yashashga intilish, xodimlar haqida g'amxo'rlik qilish, yordamchilarga ishonch bildirish va ularning tashabbuslarini rag'batlantirish, ishontirish va majburlash usullarini qo'llash, xodimlar maslahatiga quloq solish.
14 - 20	Yuqori ko'rsatkich : jamoa faoliyatini rejalashtirish va yo'naltira olish , qo'l ostidagi epchil xodimlar xarakatlarini qo'llab-quvvatlash, yangi-yangi tashabbuslarni va ish uslublarini har tomonlama rivojlantirish, xodimlarni o'z kuchlariga ishontira bilish va ruhini ko'tarish, qo'l ostidagilarning - shaxsiy hislatlarini o'rganish va jamoadagi ijtimoiy psixologik jarayonlarni taxlil qila bilish, oshkoralik va tanqidni kuchaytirish, janjallarning oldini olish va jamoada ishchan xamkorlik muhitini shakllantirish.


## **BOSHQARUVCHILIK IMKONIYATLARI**

Menejer faoliyatida psixologik faoliyatining quyidagilarga javob topish orqali o‘rganish mumkin. (E.G‘.G‘oziev)

- Tarjimai xolning tavsifnomasiga binoan;
- Qobiliyat va iste’dodiga ko‘ra;
- Shaxsiy fazilatlariga ko‘ra;

Boshqaruvchilik imkoniyati deganda biz voqeaning borish jarayonida ta’sir ko‘rsatish qobiliyatini tushunamiz. Bu qobiliyatda muammoli vaziyatlarda voqeaning borish yo‘nalishiga qarab xarakat strategiyasi va taktikasini belgilashdan iborat faoliyat tushuniladi.

Fransiyadagi “Mukammal boshqaruv” tizimi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomalarning ko‘rsatilishicha, eng tajribali menejerlar RAHBAR TALANTIga xos xususiyatlarni qayd etganlar. Fransiyadagi menejerlarning “Yaxshi menejerlar uchun eng muhimi nima?” degan savolga bergan javoblari quyidagi diagrammada o‘z aksini topgan:



Rivojlangan davlatlarda o‘tkazilgan testlarning ko‘rsatishicha rahbar shaxsiga xos quyidagi sifatlar ajratib ko‘rsatilgan.

Uzoqni ko‘ra olish, agressivlik, o‘z-o‘ziga buysunuvchanlik, o‘ziga ishonish, xalollik, ochiq ko‘ngillik, reatsiya tezligi, orginallik, ijtimoiy his etuvchanlik, optimizm, hayotdan quvonch oluvchanlik, ichkilikka munosabat, intellekt,

muomalaga kirishimlilik, o'zini-o'zi baholash, qat'iylik va boshqa sifatlar qayd etiladi.

### **Boshqaruv muomalasi va uning psixologik mexanizmlari**

**Muomala** - insonlarning bir-biriga o'zaro ta'siri, birgalikdagi faoliyati, konfrontatsiyaga amal qilish jarayoni.

Boshqaruvchilik muomalasi rahbarlik faoliyatining muhim jihatlaridan hisoblanadi. Muomala psixologiyasining asosiy kategoriyasi bo'lganligi bois uning asosiy qonuniyatlarini tushunish uchun psixologiya faniga murojat etish lozim. Chunki boshqaruv jarayonida muomala mexanizmlaridan unumli foydalanish rahbar ish faoliyatining ijobiy natijalar berishiga imkoniyat tug'diradi. Muomala inson faoliyatining barcha jabhalarida ahamiyat kasb etishi sir emas, ammo uni ma'lum shart-sharoit va rahbarlik pog'onalariga qarab ishlatish mumkin. Shu bois maktab rahbarlari faoliyatida boshqaruvchanlik muomalasini tadbqiq etishning o'ziga xos jihati qanday xarakterlanadi ?

Rahbar boshqaradimi yoki rag'barlik qiladimi? Ba'zi rahbarlar bu tushunchalarni bir xil, ba'zilari esa farq qiladi, deb qarashadi. Masalaga jiddiy yondashilsa, bu atamalar o'rtasida farqlar o'z-o'zidan kelib chiqadi. Sabab, boshqaruvchini – “Mashinani boshqarish”, “Texnologik jarayonni boshqarish”, jamoani boshqarish tarzida ishlatish mumkin. Unda rahbarlik nima?

Bu holdan chiqish uchun boshqaruvni rahbarlik tushunchasiga almashtirish mumkin. “Rahbarlik qilish” insonlarga munosabat bildirilganda ishlatiladi. “Boshqaruv” tushunchasi esa ancha keng mazmunga ega, xattoki “raxbarlikni” ham o'ziga qamrab oladi. Biz foydalanayotgan “Boshqaruvchilik muomalasi” tushunchasi – odamlarga rahbarlik qilish ularning faoliyatini biron bir yo'nalishga o'zgartirish, zarur yo'nalishni shakllantirish mazmunida ishlatiladi.

## Rahbarlik xodimlar bilan xizmat yuzasidan quyidagicha muomala qiladilar.

№	Boshqaruvchilik muomala yoʻnalishlari
1	Buyruq berish, ish taqsimlash, koʻrsatmalar berish. Maslaxatlashish
2	“Teskari aloqa” (nazorat qilish), yaʼni xodimning vazifani bajarganligi haqida maʼlumot olish.
3	Topshiriqlarni bajarganligi yuzasidan xodimning faoliyatini baholash.

Esda tutish lozim.

Амалий жихатдан хар бир топширикни ёмон, қониқарли, яхши ва аъло даражада бажариш мумкин.

Rahbar tomonidan berilgan topshiriqni aʼlo darajada bajarish bir tomondan uning murojaat usuliga bogʻliq boʻlsa, ikkinchidan, xodimning berilgan vazifani bajarishga xoxishi bilan belgilanadi. Ushbu masala yuzasidan ingliz olimlari Erks va Dodson tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyada ham inson xoxishining faoliyati amalga oshirishda qanchalik ahamiyatga egaligini sezish mumkin. Ularning fikricha, kuchli xoxish yaxshi natija. Ammo maʼlum chegaradan oʻtkach, natija yomonlashadi. Shuning uchun faoliyatni amalga oshirilishi belgilovchi optimal motivlar doimo ham boʻlavermaydi.

Бажариладиган ишни хохиш билан амалга ошириш лозим.  
“ХОХИШ” - муваффақиятга эришиш

Ishni koʻngildagidek va aʼlo darajada bajarishning asosiy shartlaridan biri.

Baʼzan rahbarlarga xodimlaringiz topshirigʻingizni doim ham aytganingizdek bajarishadimi, deb savol beriladi. Ular doimo ham bir xilda bajarmasliklarini va nima sababdan shunday ekanligini tushunmay oʻyga tolishadi.

Nega shunday? Bu oʻzaro tushunchaning etishmasligi boʻisdir. Balki?!

Shu sababli raxbar xodilariga topshiriq berayotganda quyidagilarga e'tibor qaratishi maqsadga muvofiq:

Umumiy ish faoliyati yuzasidan til topishish
Intellektual salohiyatini hisobga olish
Ma'lumotning to'raligi
Mantiqan bayon etish
Diqqatni to'plash

#### Boshqaruvchilik muomalasining qonunlari:

Insonning yuz tuzilishi, mimikasi, pantomimikasi, imo - ishorasi, gavda tuzilishi va bir-biri bilan salomlashishi u to'g'risida ma'lumot olishning maqbul vositalaridan hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, insonlar to'g'risida ma'lumotlarni quyidagi vositalar yordamida olish mumkin ekan:

- 1) So'z - 38% ;
- 2) imo- ishora, mimika , pantomimika , yurish, gavdani tutish -55%;

Biz ushbu statistik ma'lumotlarga asoslanib, quyida raxbar xodimlari bilan o'zaro munosabati jaryonida qo'l keluvchi eng qulay ta'sir o'tkazish usullarining ayrimlarini keltirib o'tamiz. Ulardan birinchisi Xodimlaringizga ularning ismiga qarab murojaat qilishga intiling.

Xodimlar ismini aytib murojaat qiling
Qarshingizdagi kishiga e'tibor qarating
Xodimingizni shaxs sifatida qarshi oling
Xodimning ehtiyojlariga mos yordam ko'rsatish uning shaxsi tan olinganligini bildiradi.
Ijobiy emotsiya hosil qilish
Ijobiy emotsiyalarni yo'naltira bilish



## **“Xodimga ismiga ko‘ra ta’sir ko‘rsatish” mexanizmi**

Ism insonning eng yoqtiradigan jihati hisoblanadi. Chunki inson o‘zini yoqtirganligi bois uning ismi orqali murojaat qilinganda yoqimli tuyg‘u uyg‘onishi tabiiy. Bu murojaat usulidan rahbarning xodimlarga murojaat etishda foydalanishi juda muhim. Xatto tarixiy faktlarning ko‘rsatishicha ham insoniyat tarixidagi buyuk shaxslar - Amir Temur, Yu.Sezar, A.Makedonskiy qo‘shindagi sipohlarning har birining ismini bilganligi ma’lum. Bu xolatda shaxslar tomonidan shaxsiy nufuzni oshirishning bir omili sifatida qarash mumkin. Masalan, AQSh prezidenti Ruzveltning o‘z faoliyatida insonlar ismidan shaxslarga ta’sir o‘tkazish vositasi sifatida keng foydalanganligini bilamiz. U 18000 dan ortiq ismni yoddan bilgan. Bu uning prezidentlik faoliyatida ijobiy natijalarga erishishiga olib kelgan. Bu usulda maktabda ishlovchi rahbarlar foydalanishi e’tibordan holi emas.

Esda tutish lozim

Инсон юзи – муносабатлар кўзгуси

## **“Munosabatlar ko‘zguisi” usulining ta’sir mexanizmi**

Yuzdagi ochiqlik yoqimli kulgidan dalolat beradi

Signal: “Men Sizning do‘stingizman”

Do‘st himoya qiladi

Ehtiyojning qondirilganligi himoyalaniшни ta’minlaydi

Ijobiy his- tuyg‘ularni hosil qilish

Ijobiy emotsiyalarni manbaga yo‘naltirish

Bu usulning ko'rsatishicha, munosabat mobaynida insonlardan axborot olish va ular asosida atrofdagilarga ta'sir o'tkazish yaxshi natijalar beradi. Chunki bu mexanizmning har bir bosqichi o'ziga xos mazmunga ega.:

1. Ko'pchilik odamlar o'zlarining dushmanlaridan ko'ra, do'stlarini samimiy va ochiq yuz bilan qarshi olishadi.
2. Bu tarzda munosabat quyidagi ogohlikdan dalolat beradi: "Men Sizing do'stingizman".
3. Do'stlik yagona fikr egalari, maslakdoshlar o'rtasida yuzaga keladi.
4. Insonlarning eng muhim ehtiyojlaridan biri bu himoyalanihga, xavfsizlikka ehtiyoj hisoblanadi. Do'st – bu muxim ehtiyojni, ya'ni himoyalanihni ta'minlovchi kishidir.
5. Ehtiyojning qondirilganligi insonda ijobiy g'is-tuyg'ularni yuzaga keltiradi.
6. Har bir kishi o'zida ijobiy his-tuyg'u uyg'otgan kishiga intiladi.


Atrofdagilarga (jumladan xodimlarga) ta'sir ko'rsatishning yana bir usuli "oltin so'z" usuli hisoblanadi.

So'z psixologik jihatdan juda katta kuch va qurol hisoblanadi. So'z orqali odamlarga ta'sir o'tkazish *suggesteziya* deyiladi. So'z orqali qanday ta'sir o'tkazish mumkin? Insonlarga ta'sir o'tkazishning zamirida tabiiy asos borligini unutmaslik zarur. Shu sababli ham xalq orasida "yaxshi so'z dil ozug'i, yomon so'z dil qozig'i" maqoli ko'p ishlatiladi. Chunki his- tuyg'ular yoqimli narsalarning inson tomonidan qabul qilinishiga olib kelsa, yoqimsizlaridan esa jirkanish va norozilikni keltirib chiqaradi.

Shunday ekan, "Oltin so'z" (komplement) deganda nima tushiniladi?

Bu erda so'zni ishlata bilish va undan foydalanish oltindanda qimmatroq natijalarga olib kelishi mumkinligi nazarda tutilgan. "Oltin so'z" ga sinonim sifatida "yoqimli", "ta'sirchan", "ohangrabo", "jarangdor", "ancha qimmatli" mazmunidagi so'zlarni ishlatish mumkin. Masalan, rahbarning xodimga nisbatan "Sizing mahoratingiz meni taajjubga soladi, sizni qo'lingizning gulligiga xavasim keladi" deya olishi qanchalik yuksak baho ekanligini hamma yaxshi biladi. Ammo ushbu tarzdagi so'zlardan foydalana olish rahbardan mahorat talab qiladi. Endi "oltin so'z"

usulining asosiy strukturasi murojaat qilinadigan bo'lsa, quyidagi chizmaga e'tibor qaratish o'rinlidir.



### **“OLTIN SO‘Z” usulining psixologik mexanizmi:**

1. Inson o'z sha'niga aytilgan har qanday yoqimli so'zni eshitarkan, uni yoqtirganligi yoki kompliment bo'is qabul qiladi.
2. Kompliment barcha qonun- qoidalariga mos amalga oshirilsa, uning ta'sir kuchi samarali bo'ladi.
3. Ta'sir ko'rsatish oqibati.
4. Ehtiyojlarning qondirilishi ijobiy his – tuyg'ularni yuzaga keltiradi.
5. Yoqimli his –tuyg'ular inson tomonidan hech qarshiliksiz qabul qilinadi.

### **“OLTIN SO‘Z” usulidan foydalanish qoidalarini:**

1. Kompliment faqat va faqat insonning ijobiy sifatlarini ifodalashi lozim. Komplimentda ikki xil mazmun ifodalovchi holatdan qochish lozim. Masalan, aynan ushbu sifat kishida ham ijobiy, ham salbiy mazmun hosil qilib qolmasligi kerak.
2. Insondagi ijobiy sifatlarni aks ettiruvchi komplimentlardan foydalanishda ortiqcha bo‘rtirib yuborishdan qochish zarur.
3. Aytiladigan kompliment xaqiqatdan yo‘naltirilgan shaxsga nisbatan shaxsiy fikr bo‘lishi lozim. U siyqasi chiqqan gap bo‘lib qolishi kerak emas. Masalan, vrachni appenditsitga qo‘ygan diagnozini maqtash bu kompliment emas, balki siyqasi chiqqan so‘z hisoblanadi.
4. Bildirilgan kompliment haqiqatdan o‘sha kishida qisman bo‘lsada mavjudligini inobatga olish lozim, aks holda inkor etilishi hech gap emas.
5. Kompliment so‘z ishlatilgandan so‘ng ijobiy sifatini rivojlantirish haqida tavsiya va ko‘rsatmalar berish o‘rinli emas.

Boshqaruv muomalasi rahbarlar faoliyatiga qo‘l keluvchi usullar ko‘p. Shuningdek, rahbarning sabr-toqati tinglovchi sifatida ish tutishi ham ancha diqqatga sazovor xususiyatdir. Rahbarning xodimlar bilan munosabati jarayonida ularning fikr- mulohazalarini, arzlarini diqqat bilan tinglashi.

Rahbar xodimlar ish faoliyatlari davomida qo‘l ostidagi xodimlar shaxsining psixologik tiplarini inobatga olib ish munosabati o‘rnatishlari ancha maqsadga muvofiq. Chunki insonlarni psixologik tiplashtirish fanda bir qator yondashuvlarga ega, ular odamlarning asab tizimi, gavda tuzilishiga, psixofiziologik va psixologik xususiyatlariga ko‘ra belgilanadi.:

**Krechmer tipologiyasi: piknik – siklotim:** gavda tuzilishi to‘la bo‘lgan, og‘ir-keng odamlar, ularda his-tuyg‘uda barqarorlik etishmaydi. Ularda kollektivizm, o‘rtoqlik tuyg‘usi va boshqalar bilan birga bo‘lish hoxishi ustunlik qiladi.

**Sheldon tipologiyasi:** bu tipologiya odamlarni jismoniy ko‘rinishga asoslanib taxlil qiladi.

**Endomorf:** bu tipdagi odamlar korindor, ichki a'zolarini ancha rivojlangan, oyoq qismi nozik va nimjon. Ular odamshinavanda va xush muomala bo'lishadi.

**Mezomorf:** sersavlat, yirik va baquvvat gavdali, tana a'zolari rivojlangan, kaftlari va oyoq panjalari keng. Xotirjam bo'lmagan, agressiv kishilar.

**Ektomorf:** uzun bo'yli va ozg'in, asab tizimi yaxshi rivojlangan. Tarmozlashgan va introvert.

Psixofizologik tipologiya bu to'rtta tipga asoslanadi. Barqaror muomalali vaziyatni maqsadga muvofiq ijobiy mohirona bajara oladi.

Qo'zg'aluvchan: faol malakalarni tez o'zlashtira oladi.

Tarmozlashgan: malakalarni qiyinchilik bilan o'zlashtiradi.

Ko'nikmalarni oson o'zlashtira oladi.

Inert malakalarni o'zlashtirishda qobiliyatsiz.

Инсоннинг сезги ва хис-туйгуларига таъсир кўрсатиш орқали хулқ-атвори ва идрокидаги илк стереотипларни янгилари билан ўзлаштиришга олиб келувчи ишонтириш усуллари ҳақидаги фан

## RITORIKA

Rahbar qo'l ostidagi xodimlarga ko'rsatma, topshiriq va maslahatlar beradi. Rahbarning bunday faoliyatini amalga oshirish uchun psixologiya fani bilan bir qatorda qadimiy fan – RITORIKAgA zaruriyat tug'iladi.

Raxbarning ritorikasi psixologiya bilan bog'lashi yangi bir yo'nalishi – ritorika psixologiyasi keltirib chiqaradi. Rahbarning bu fan tarmog'idan foydalanishi asosida quyidagi mazmun yotadi. Rahbar xodimlarga bergan topshiriqlarining natijali bo'lishi ikki omilga bog'liq: topshiriqning mazmuni va psixologik shakliga.

Topshiriqning mazmuni uning biron-bir shaxsga yo'naltirilgani, so'roq, buyruq, tasdiq va direktiv xarakterga egaligi bilan belgilanadi. Rahbar

topshirig‘ining mazmuni bajaruvchi shaxsning xarakati uchun dastur bo‘lib xizmat qiladi. Topshiriqning psixologik shakli munosabat va motivlar darajasini belgilaydi.

Bularning barchasi rahbarda xodimga ta’sir ko‘rsatish, uni ritorikaga murojat qilishga ehtiyoj hosil qiladi. Shu bois yuqorida shaxsda ishontirish san’atini hosil qiluvchi fanga ta’rif berilgan edi.

### **Muomalaga kirishimlilikni psixodiagnostika qilish va shakllantirish**

Muomalaga kirishimlilikni psixodiagnostika qilish keng qamrovli psixologik testlardan iborat. Bu testlarni tadbiq etish va ularning natijalari taxlilidan muomalaga kirishimlilikni kishilarda shakllantirishga yo‘llanma berishda foydalanish mumkin. Ushbu holatdan kelib chiqqan holda muomalaga kirishimlilik qobiliyatini aniqlash metodikasi tavsiya etiladi.

Ko‘rsatma: Sizning e’tiboringizga bir necha oddiy savollar havola qilinadi. Siz tez javob berishga xarakat qiling: “HA”, “YO‘Q”, “BA’ZAN”.

#### **TEST SAVOLNOMASI**

<b>№</b>	<b>SAVOLLAR</b>	<b>“HA”</b>	<b>“YO‘Q”</b>	<b>“BA’ZAN”</b>
<b>1</b>	Siz ish yuzasidan uchrashuvga borishga shaylanib turibsiz, kutish sizni asabingizni buzadimi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>
<b>2</b>	Sizni biron bir yig‘ilish, kengashga yoki shu singari yig‘ilishlarda nutq qilishga taklif qilishsa norozilik paydo bo‘ladimi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>
<b>3</b>	Oxirgi daqiqalargacha vrachni chaqirishga urinmaysizmi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>
<b>4</b>	Siz bilmagan shaharga xizmat safariga borishni taklif qilishsa, siz bundan o‘zingizni olib qochasizmi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>
<b>5</b>	Siz kechinmalaringizni biror kishi bilan baham ko‘rishni xoxlaysizmi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>
<b>6</b>	Ko‘chada notanish kishi sizga iltimos bilan murojaat qilsa asabiylashasizmi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>

<b>7</b>	“Ota bilan bola” muammosi ularning bir-birilarini tushunmasligi bois yuz beradi, deb xisoblaysizmi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>
<b>8</b>	Siz tanishingizga bir necha oy oldin olgan pulini qaytarishni unutganligini aytishga uyalasizmi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>
<b>9</b>	Siz oshxonada mazasiz taom berishdi. Tarelkani jahl bilan surib, jimgina o‘tirasizmi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>
<b>10</b>	Siz notanish kishi bilan yolg‘iz qoldingiz, siz o‘z niyatingizdan voz kechmasdan navbatni oxirigacha kutib turasizmi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>
<b>11</b>	Siz kutilmagan navbatga turib qoldingiz siz o‘z niyattingizdan voz kechmasdan navbatni oxirigacha kutib turasizmi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>
<b>12</b>	Nizoli vaziyatni ko‘rib chiquvchi komissiya tarkibiga kiritishdi, siz bu holatdan qochishga urinasizmi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>
<b>13</b>	Badiiy adabiyot, san‘at, madaniyat, boshqalar fikrining noma‘qulligini belgilovchi shaxsiy individum mezoningiz bormi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>
<b>14</b>	Sizga oshkor bo‘lgan masala bo‘yicha kimdir noto‘g‘ri nuqtai nazar bildirdi. Siz baxslashmasdan jim o‘tirasizmi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>
<b>15</b>	Sizga bo‘sh vaqtingiz u yoki bu o‘quv mavzu va xizmat vazifalari bo‘yicha murojat qilib turishadimi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>
<b>16</b>	Sizda o‘z fikringizni og‘zaki bayon etishdan ko‘ra yozma ifodalash qulaymi?	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>0</b>

Natijalarga ko‘ra muomala kirishimlilik qobiliyatini belgilovchi darajalarni quyidagilarga ajratiladi:

30-32 ball. Muomalaga kirishishingiz juda qiyin. Siz ko‘proq o‘z ichki tuyg‘ularingizga berilib atrofdagilar bilan chiqishishga qiynalasisz.

25-29 ball. Berk, tund, odimsiz.

19-24 ball. Siz ma'lum darajada muomalaga kirish imkoniyatiga egasiz.

14-18 ball. Normal

9-13 ball. Muomalaga juda yaxshi kirisha oladi.

4-8 ball. Har xil vaziyatlarda etakchilik qila, muomalada mavzu tanlay olasiz.

3 va undan kichik ball. Sizda muomala kirishimlilik yuqori, ammo odamlar sizdan qochishga xarakat qilishadi.


### **Boshqaruvda vaqtdan foydalanish effekti**

Vaqtdan unumli foydalanish doimiy ravishda insonni bezovtalantirib turadi. Chunki hamma ham belgilangan muddaiga muvofiq oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshira olmaydi. Kimdir kam kuch sarflash orqali yuqori natijaga erishadi, kimdir ko'p kuch yo'qotish hisobiga quyi natijaga ega bo'ladi. Shu boisdan ham vaqtdan unumli foydalanish masalasi psixologik muammo sifatida kundalik faoliyatimizda uchrab turadi. Vaqtdan unumli foydalanishning siri nimada? Vaqtdami yoki insonning faoliyat yo'nalishidami?

Aynan belgilangan muddatda vazifalarni bajarish, maqsadga erishish bu vaqtdan ko'ra insonning o'ziga bog'liq muammosidir. Shu boisdan ham bu masalani samarali amalga oshirish insonning miyani qay tarzda ekspluatatsiya qilishiga bog'liq. Shunga ko'ra vaqtdan unumli foydalanishning eng maqbul yo'li miyangizni to'g'ri ishlata olishingizda.

Buni psixologik nuqtai nazardan umumiy ravishda quyidagicha ifodalash mumkin.

### **V A Q T.**



Maqsadni amalga oshirishda ustanovka bilan e'tiqod tafakkur usuli sifatida ishtirok etadi.

Fikrlar esa e'tiqod shaklida qabul qilinadi.:

Fikrlar:

- Siz erishishni xoxlagan narsangiz;



- Sizning hayotingiz;
- Siz uchun ahamiyatli bo'lgan narsa.

Insonlarni muvaffaqiyatli xarakat qiluvchi yoki muvaffaqiyatsiz ishlovchi shaxslar toifasiga ajratishimiz mumkin. Muvaffaqiyatli ishlovchi insonlarning siri ***vaqtdan unumli foydalanish uquviga egalidir.***

Vaqtdan unumli foydalanish shaxsiy reja ishlab chiqilganda ijobiyroq bo'ladi. Vaqt sizning ustingizdan hukmron bo'lishiga yo'l qo'ymang. Buning uchun siz quyidagilarning tartibga keltiring:

- O'zingizni;
- Sog'ligingiz va hayot rejangizni;
- Shaxsiy taraqqiyot rejangizni;
- O'z maqsad va niyatlaringizni.

Bu ishlarni amalga oshirish shaxsdan faollikni talab qiladi. Shu bois quyidagi holatlarni faollatirishga erishing:

- E'tiqodni;
- Ustanovkani;
- Xulq-atvorni;

Doimo har xil tpoishiriqlar bilan band va mashg'ul bo'linadi.

Topshiriqlarni bajarish yoki ular bilan bog'liq faoliyatni boshqarish lozim.

Boshqarishda ish yuzasidan topshiriqlarni taqsimlash uchun javobgarlikni o'z zimmangizga oling. Bu o'z yutuq va mag'lubiyatlariga nisbatan tayyor turish ma'suliyatini oshiradi.

Ma'suliyatni o'z zimmasiga olish har bir odamda quyidagi jihatdan keltirib chiqaradi:

- Yo'qotib qo'yishdan qo'rqishni;
- Nazoratni yo'qotish xissini;
- Xar xil turdagi ishonchsizlikni;
- Aynan damda sinab ko'ring.

Siz o'zingizni vaqtni mohirona boshqaradigan kishi sifatida qanday bag'olaysiz? O'zingiz haqingizda nimani zarur deb o'ylaysiz bu hulq-atvoringizni shakllantirish orqali yaxshi natijalarga olib keladi. Ular nimalardan iborat, deb o'ylaysiz?

- Men mutlaqo betartib odamman.
- Men odatda mo'ljallangan ishlarini muddatida bajara olmayman
- Men doimo vaqtni bekorga yo'qataytganimni his qilaman.
- Men uzoq vaqt diqqatimni to'plab tura olaman.
- Menda yo'q deb javob berish qiyin.
- Men ishni yaxshi boshlayman ammo uni oxiriga etkazish qiyin.
- Men muhim ishlarni o'zga kishilarga ishonmayman.
- Menda uzoq vaqt to'planib qolgan yumushlar bor.
- Men uy bilan ish o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatam olaman.
- Men ko'p vaqtga ega bo'lishni xohlayman.
- Men ko'pincha odamlarni xijolatga qo'yganman.
- Men stressni his qilaman.
- Mening ishlashim uchun quvvat etishmaydi.
- Men ba'zan muhim ishlarni unutib qo'yaman.
- Menda ko'p vaqtimni sog'lig'im va tashqi ko'rinishimni yaxshilashga ajratish hoxishi bor.
- Men ishning ko'pligidan jismoniy toliqishni his qilaman.
- Hozir besh yil oldingiga qaraganda ishlarim ancha yomon.
- Menga mehnat ta'tili zarur.

ВАҚТНИ БОШҚАРИШ  
ИНСОННИНГ ЎЗИНИ  
БОШҚАРИШДАН ИБОРАТДИР.

## ***PARETO QONUNI***

Marketing sohasida hamma uchun ma'lum mashhur qonun, 80:20 ko'rinishda bo'lib, bu 80foiz kuch sarflash orqali 20 foiz natijaga erishish yoki aksincha 20 foiz urinish orqali 80 foizli natijani qo'lga kiritishdir.

## **TA'LIM –TARBIYA JARAYONINI BOSHQARISHDA HAMKORLIK PSIXOLOGIYASI**

Maktab rahbarlari hamda pedagogik jamoa o'rtasida hamkorlik faoliyatini amalga oshirish jamoadagi muhitni hamda pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Hamkorlikdagi faoliyatni tahlil qilishda u bilan bog'liq bo'lgan quyidagi jihatlar inobatga olinadi:

Har qanday ta'sirlashuv ma'lum shart-sharoitlarga ko'ra yuzaga keladi va rivojlanadi.

### **I. Xukmronlikning tavsifi**

Xukmronlik
Bir tomonlama ustunlikka erishish qonuniyatiga asoslangan shaxslar o'rtasida o'zaro ta'sirlashuv
Asosiy xarakteristikasi Faoliyat yurituvchi shaxslarning biridagi ojizlikni anglashi bois ikkinchi shaxsning o'z ustunligiga erishishi hamda o'z manfaatlariga buysundirishi
<i>Xukmronlikning asosiy usullari: ko'rsatma berish, tajovuz qilish, jazolash, dag'dag'a qilish hamda kuch ishlatish</i>

### **II. Raqobatning tavsifi**

Raqobat
Shaxslararo munosabat ziddiyat asosida quriladi. Asosiy xarakteristikasi: Manfaatni o'z tomoniga burishga intilish hamda qarama-qarshilik tamoyiliga asoslanish
<i>Raqobatlarining asosiy usuli: munozara, baxslashish, ixtilof, nizolashuv</i>

*Keltirib chiqaruvchi asoratlari:* yurak-qon aylanish tizimini buzilishi, oshqozon-ichak kasalliklarini kelib chiqishi

### III. Xamkorlikning tavsifi

#### Xamkorlik

O‘zaro ta’sirlashuvda kuchlar nisbati emas, balki guruh a’zolarining manfaatlari tenglik tamoyiliga asoslanadi.

*Asosiy usullari:* O‘zaro xamjixatlik, ya’ni maslahat, muhokama, moddiy va ma’naviy jihatdan fikr almashish, o‘zaro yordam, iltimos, taklif kiritish, ko‘rsatmalar berish.

Xamkorlik faoliyati bir necha shart-sharoitlarga asoslanib amalga oshiriladi.

1. Simpatiyani namoyon qilish;
2. Hurmatni shakllantirish;
3. Ishonch hosil qilish;
4. Obro‘-e’tiborga ega bo‘lish.

Xamkorlikdagi faoliyat shaxslararo munosabat jarayonida shakllanish. Shu bois uni quyidagi jihatlar bilan tahlillash mumkin:

a) ratsional; b) hissiy; v) irodaviy; g) amaliy.

Ulardan hissiy, irodaviy va amaliy jihatlar kishilar o‘rtasidagi psixologik bog‘lanishini shakllantirishning manbai hisoblanadi.

#### Shaxslararo munosabat

Keltirib chiqaruvchi sabab: ehtiyoj

Amalga oshirilishini ta’minlovchi mexanizmlar.

“Uyg‘unlik” - rahbarning fikri, kechinmalari, baholari, ishonch xodimlari bilan bir xilda bo‘lishi;

“Etalon” – rahbarning jamoa a’zolari bilan ehtiyojlarni ma’naviy birlikda namoyon qilishi;

“Tanqislik”- rahbarning ijtimoiy munoasabatlarda xodimlarida yo‘q sifatlarni namoyon qilishi;

“Emotsional aks-sado” – kayfiyat orqali boshqalarning his-tuyg‘usiga ta’sir o‘tkazish;

“Ko‘maklashish” – rahbarning xodimlari bilan til topishishi va ularning maqsadlariga erishishda yordam ko‘rsatish;

“Go‘zallik” – rahbarning xodimlar bilan munosabatida o‘zining tashqi qiyofasiga e’tibor ko‘rsatish;

### **Rahbarning faoliyatini belgilovchi omillar:**

1. Kishilarga ta’sir o‘tkazuvchanlik xususiyatiga egalik;
2. Tavakkalchilik ;
3. Ma’suliyatni o‘z zimmasiga olishi va shaxsiy namuna ko‘rsata bilishi.

Rahbar bilan xodimlar o‘rtasidagi xamkorlikni belgilashda rahbardan talab qilinadigan jihatlar:

1. Obru-e’tiborga egalik;
2. Jamoaning ishonchini qozonish;
3. Xodimlar faoliyatini to‘g‘ri idrok qilish;
4. Talabchanlik;
5. Taqdirlay bilish;

Direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha muovini pedagogik jamoa bilan munosabatini samarali tashkil etishida u yuzasidan aniq ma’lumotlarga ega bo‘lishi lozim. Chunki faoliyatni amalga oshirishning o‘zi etarlicha ijobiy natijalar tahlilini beravermaydi. Bu amaliy jihatdan o‘rganishlarni taqazo etadi. Shu sababli quyida rahbarlarning maktab pedagog xodimlaridagi qaysi xususiyatlarni afzal hisoblanganlari xamda aynan pedagoglar nuqtai-nazariga ko‘ra rahbarlarning qaysi jihatlari ancha maqsadga muvofiqligini aniqlashga yordam beruvchi psixologik anketalar keltirib o‘tilgan..

Bu anketalardan foydalanishda rahbarlarning maktab psixologi bilan ba maslahat ish tutishlari maqsadga muvofiq. Birinchi anketada maktab pedagoglarining sifatlarni rahbarlar tomonidan ma’qullanishi darajasiga ko‘ra

baholashlari o'rganilsa, ikkinchidan, o'qituvchilarning maktab rahbarlari to'g'risidagi qarashlar o'rganiladi.

Ta'lim mussasasidagi pedagoglarni boshqarishni faollashtirishga to'siq bo'luvchi bir qator motivlar mavjud:

a) ta'lim mussasasi ishini yuksaltirish bo'yicha qandaydir takliflar kiritishning befoydaligi.

b) o'quv mussasasi hayotidagi kamchiliklarni doimo tanqid qilish:

v) pedagoglarning boshqaruvidagi ishtirokiga ishonchning yo'qligi.

Buni bartaraf etishda mussasa rahbari quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi lozim:

- 1) Faqat jamoa fikrii talab qilmay, ularning erkin faoliyat yuritishga ham shart-sharoit yaratish;
- 2) O'qituvchilar ishini faollashtirish uchun tanqidga to'g'ri munosabat bildirish;
- 3) Mehnatni ratsional tashkil etish - qog'ozbozlikdan, majlisbozlikdan, foydasiz ishlardan tiyilish;
- 4) Pedagogik madaniyat o'sishi uchun shart-sharoit yaratish;
- 5) Boshqaruvni faollashtirish, ya'ni jazolashga emas, balki rag'batlantirishga aylantirish lozim.

Shuningdek, ta'lim mussasasi rahbarlari o'rtasidagi hamkorlik faoliyati undagi psixologik muhitni belgilovchi omil hisoblanadi. Shu bois direktorning o'quv ishlari bo'yicha muovini bilan munosabati ta'lim - tarbiya jarayonini boshqarishda bir qator ahamiyatga ega. Direktorning O'IBDM yoki O'IBDMning direktorga munosabatini oddiy yo'l bilan tadqiq qilishimiz mumkin.

- Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, O'IBDM direktoriga xos kuchli tomonlarga: birinchi navbatda tashkilotchilik, professional ishchanlik, muomalaga kirishimlilik va o'zini tuta olishlik, talabchanlik, insoniylik, kasbiy imkoniyat, uddaburonlik, kabi sifatlarga ega bo'lishini afzal hisoblashar ekan.
- Direktorlarning O'IBDM bilan ishlariga to'siq bo'luvchi sifatlariga:
  - ishda pedagogik yo'nalganlikning etishmasligi;
  - o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda uyushganlikning mavjud emasligi;
  - takt va vazminlikning etishmasligi;

- jamoadan talab qilishning etishmasligi;
- ishda uddaburonlik va jamoaviy yondashishning etishmasligi;

Direktor bilan O'IBDM o'rtasida nizo keltirib chiqaruvchi jihatlari:

- ularning pozitsiyalarini qo'llab-quvvatlamasliklari;
- direktorning munosabat o'rnata olmasligi;
- o'quv - tarbiya jarayoniga etarli ishtirok etmasligi;

Ta'lim muassasi rahbarining pedagogik jamoa bilan hamkorlikdagi faoliyati turli muammoalrni hal qilishga yordam beradi:

- o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini oshirishga;
- pedagogik kuzatuvchanlik, boshqa shaxslar xulq-atvorini pedagogik idrok etishga va e'tibor qaratishga;
- ish yuzasidan ishonch –o'qituvchilarning O'IBDMning kasbiy

kompetentligiga ishonch bilan qarashi;

- uslubiy xamkorlik uchun rag'batlantiruvchi faoliyatning bo'lishi.

Ta'lim muassasi rahbari jamoa a'zolari bilan hamkorlikdagi faoliyatida rag'batlantirish bilan bir qatorda jazolash yoki tanqid qilish asosida ular faoliyatini to'g'ri yo'nalishga solishi mumkin. Buning uchun rahbarning pedagoglarni tanqid qilishida bir qator qoidalarni inobatga olishi mumkin bo'ladi. Ushbu qoidalarni quyida keltirib o'tamiz:

Birinchi qoida: o'qituvchini iloji bo'lmay qolgan xollarda tanqid qilish;

Ikkinchi qoida: tanqid shaxs qadr-qimmatini poymol qilmagan holda aniq belgilangan tomonga qaratilishi lozim;

Uchinchi qoida: tanqiddan ijobiy baholanishini e'tiborga olgan holda foydalanish;

To'rtinchi qoida: o'qituvchi bilan o'rtangizdagi emotsional kontakt bo'lsa, u sizning imkoniyatlaringizga, ochiq ko'ngilligingizga ishongan taqdirdagina amalga oshirilishi lozim;

Beshinchi qoida: tanqid kuchini oshirib borish;

Oltinchi qoida: aynan ko'z bilan ko'rib guvohi bo'lingan kamchiliklarni tanqid qilish;

Yettinchi qoida: o'qituvchining jamoaning boshqa a'zolari bilan qiyoslab tanqid qilish ma'qul emas;

Sakkizinchi qoida: tanqid qilinayotgan o'qituvchining jamodagi mavkeiga alohida e'tibor qaratish;

To'qqizinchi qoida: tanqid ishga manfaatdorlik tomonidan amalga oshirilishi zarur;

O'ninchi qoida: agar kamchilik barcha o'qituvchilarga xos bo'lsa, uni bir xilda yo'naltirish lozim.

Jamoa ishini tashkil etishda rahbar shaxsining namuna sifatida o'rnak ko'rsatishi mumkin. Chunki psixologiyada jamoada rahbar shaxsining nufuzga egaligi, shaxsiy namuna bo'la olishi, xodimlarga emotsional ta'sir ko'rsatishi doimo e'zozlab kelinadi. Xamkorlik faoliyatini muttasil nazorat qilish yoki u to'g'risida ma'lumot olib borish bu psixodiagnostik tadbirlarni talab etadi.

### **Rahbarning xodimlar faoliyatini o'rganish uchun anketa**

№	O'qituvchilarning sifatleri	Ball
1	Ogohlantirish, taqdirlashlarni to'g'ri idrok qilish uquviga ega	
2	Vijdonli, ma'suliyatli, mehnatsevar	
3	O'quvchilarga mehribon	
4	Odamlarga hurmat bilan qaraydigan,xushmuomala	
5	Har qandpy topshiriqni bajaruvchi	
6	Adolatli va pok	
7	Sizning talab va xarakatlaringizni qo'llab-quvvatlaydi	
8	O'quvchilarni o'ziga yaqin oladi. Ularni tarbiyalaydi.	
9	Ishga ijodiy yondashuvchi, yangiliklarni ilg'ovchi	
10	Jamoa manfaatlariga bo'ysunuvchan	
11	Boshlangan ishini oxiriga etkazadi	
12	Jamoa a'zolari bilan xamkor	
13	Sizning fikringaz, baholaringizni tushunadi	
14	Odamlarni, vaziyatlarni payqashga moyil	
15	O'z kasbining fidoyisi	
16	Hamkasblariga talabchan	
17	O'qituvchilik mahoratiga ega	



18	Qiziqishlari keng	
19	Xamkasblari kamchiliklarini ochiq tanqid qiladi	
20	Mustaqil ishlay oladi	
21	Yoqimtoy qiyofaga ega	

O'qituvchilarning maktab direktori va O'IBDM faoliyatini

baholash anketasi

№	Rahbarlar haqida mulohazalar	Direktor	O'IBDM
			M
1	Odamlarga talabchan		
2	Pedagoglarda ish faoliyatiga xos sifatlarni o'stirishga intiladi		
3	Bajaradigan ishni talab qilishdan oldin qanday va qachon bajarilishini aniq tushuntiradi		
4	Jamoani kollegial asosda boshqaradi, maslaxatlashadi		
5	Jamoani qo'llab –quvvatlashga moyil		
6	Jamoa hurmatiga sazavor		
7	Ishontira oladi		
8	Pedagoglarning ishidagi kamchiliklaridan ko'ra ko'proq yutuqlariga e'tibor beradi		
9	Pedagoglar bilan munosabatda ularning zaruriyatlarini inobatga oladi		
10	Pedagogik mahoratiga ega, boshqalarga o'rnak bo'la oladi		
11	Pedagoglarga yuqori darajada uslubiy yordam ko'rsata oladi		
12	Pedagogik tajriba va bilimlarni maktabda tashviqot qiladi va qo'llaydi		
13	Pedagoglarning tanqidini tinglaydi, tanqidlardan qasos olishga intilmaydi		
14	Jamoani sog'lom, yaxshi kayfiyati bilan qo'llab-quvvatlaydi		
15	Ishda tashabbuskor va kashfiyotchi		

16	O'qituvchining mehnati va vaqtiga ehtiyotkorona munosabatda bo'ladi		
17	Jon –jahdi bilan ishlaydi		
18	Yuzaki ko'rsatkichlarga emas, ta'lim-tarbiyaning sifatiga e'tibor beradi		

Yuqoridagi anketa savollaridan foydalanish rahbar xodimlarini ish faoliyatini to'g'ri tashkil etish va to'g'ri baxolashga olib keladi.

### **Ta'lim texnologiyalari.**

**Zinama-zina.** Texnologiyaning tavsifi. Ushbu mashg'ulot shaxsiy tarkibni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya shaxsiy tarkib bilan bir guruh ichida, yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi. Texnologiyaning maqsadi. Shaxsiy tarkibni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish. Texnologiyaning qo'llanishi: ma'ruza (imkoniyat va sharoit bo'lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o'tkazish hamda nazorat darslarida qo'llanilishi mumkin. Mashg'ulotda qo'llaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatli qog'ozlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flomaster yoki rangli qalam)lar.

### **Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

- mashg'ulot o'tuvchi mashg'ulot boshlangunga qadar o'quv materialini bir necha kichik mavzularga bo'lib oladi (masalan, 2 yoki 3 ta, 4 yoki 5 ta ...);
- mashg'ulot o'tuvchi shaxsiy tarkibni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo'lgani ma'qul);

- mashgʻulot oʻtuvchi shaxsiy tarkibni mashgʻulotning maqsadi va uning oʻtkazilish tartibi bilan tanishtiradi. Har bir guruhga qogʻozning chap qismida kichik mavzu yozuvi boʻlgan varaqlar tarqatiladi;
- mashgʻulot oʻtuvchi guruh aʼzolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qogʻozdagi boʻsh joyga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;
- guruh aʼzolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki chizma) koʻrinishida ifoda etadilar. Bunda guruh aʼzolari kichik mavzu boʻyicha imkon boricha toʻlaroq maʼlumot berishlari kerak boʻladi;
- tarqatma materiallar toʻldirilgach, guruh aʼzolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material, albatta, auditoriya (sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi;
- mashgʻulot oʻtuvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashgʻulotni yakunlaydi (taqdimot vaqtida boshqa guruh aʼzolari ham taqdimot qilingan mazmunga oʻzlarining fikrlarini bildirishlari mumkin).

Izoh: mashgʻulotning bunday tashkil etilishi tinglovchilarni mustaqil fikrlashga, oʻtilgan va oʻzlashtirilgan mavzularni eslashga, ularni yozma (yoki rasm, chizma koʻrinishida) bayon etishga, fikrlarni umumlashtirishga oʻrgatadi.

**Charxpalak Texnologiyaning tavsifi.** Ushbu texnologiya shaxsiy tarkibni oʻtilgan mavzularni yodga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda toʻgʻri javob berish va oʻz-oʻzini baholashga oʻrgatishga hamda qisqa vaqt ichida mashgʻulot oʻtuvchi tomonidan shaxsiy tarkibning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan. Texnologiyaning maqsadi: shaxsiy tarkibni mashgʻulot jarayonida mantiqiy fikrlash, oʻz fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, oʻzlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, koʻp fikrlardan keraklisini tanlab olishga oʻrgatish.

**Texnologiyaning qoʻllanishi:** texnologiya mashgʻulotlarning barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki oʻquv predmetining biron bir boʻlimi tugallanganda, oʻtilgan mavzularni shaxsiy tarkib tomonidan oʻzlashtirilganlik

darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg'ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

**Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar:** tarqatma materiallar, rangli qalam (yoki flomaster)lar. Izoh: reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda mashg'ulot o'tuvchi qo'ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o'tkazish mo'ljallangan bo'lsa, guruh tinglovchilari soniga, agar kichik guruhlarda o'tkazish belgilangan bo'lsa, u holda guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar tayyorlanadi).

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

- shaxsiy tarkibni (sharoitga qarab) guruhlariga ajratiladi;
  - shaxsiy tarkibni mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtiriladi;
  - tarqatma materiallar guruh, a'zolariga tarqatiladi;
  - mashg'ulot o'tuvchi belgilagan vaqt ichida tarqatma materiallardagi vazifalar guruh a'zolari tomonidan yakka tartibda mustaqil ravishda bajariladi;
  - har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir ramziy belgisini chizib qo'yadi;
  - vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga «charxpalak aylanmasi» yo'nalishida almashtiriladi;
  - boshqa guruh, a'zolarining yakka tartibda bajarilgan vazifalar varaqalari yakka tartibda yangi guruh a'zolari tomonidan o'rganiladi va o'zgartirishlar kiritiladi; jamolalar tomonidan o'rganilgan va o'zgartirishlar kiritilgan materiallar yana 10 yuqorida eslatilgan yo'nalish bo'yicha guruhlararo almashtiriladi (ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi); materiallarni oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh va har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirgan materiallarini (guruh raqami va o'zlari qo'ygan ramziy belgilari asosida) tanlab oladilar;
- har bir guruh a'zolarining o'zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a'zolarining to'zatishtirishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar;

- mashgʻulot oʻtuvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni oʻqiydi va jamoa bilan birgalikda toʻgʻri javoblarni belgilaydi yoki (sharoitga qarab) tarqatma materialdagi vazifalar ekranda yoritilib, ekran orqali toʻgʻri javoblar oʻqib eshittiriladi

- har bir tinglovchi toʻgʻri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni toʻplaydilar va oʻzlarini baholaydilar.

